IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI GAZETA 1992-YILNING 24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN / 2026-YIL 6-NOYABR / 45-SON (3211)

VATANPARVAR



Qanotim yöq, vale uçgaymen...

Omadbek Hasanov – Para Osiyo öyinlari kumush medali sohibi!



VATANPARVARLIK QAYERDA QOLDI?

yoxud

UYĞON, ÖĞLIM! TUR, ÖĞLIM! ĞAFLATDAN YUZ BUR, ÖĞLIM!

KEÇKI AVTOBUSDAGI “UDDABURONLIK” VA QURIMAGAN KÖZYOŞLAR

Işdan çarçab uyga qaytayotgandim. Avtobus gavjum, kunning şovqin-suroni asta-sekin tinib borayotgan palla. Old örindiqlardan birida yonma-yon ötirgan ikki kişining – yoşi ötib qolgan otaxon bilan örta yoşlardagi hamrohining suhbatiga beixtiyor quloğim tuşdi. Telefondan kimningdir suratini körsatib gapirayotgan otaxonning ovozida faxr emas, allaqanday ustomonlik, pinhoniy ayyorlik jilva qilardi:

– Mana, nabiram böyi ikki metr bölib ösdi. Lekin zamonni bilasiz-ku! Hozir armiyaga borib bir yil “sapog” kiyib, loy keçib yuradigan vaqt emas. Taniş-biliş orqali oyoği tekis *(“ploskostopiya”)* deb tibbiy ma’lumotnoma töğrilatdik. Endi bir amallab bir oylik pullik xizmatga ilintirib olsak, boşim osmonga yetardi. Bir yil umri kazarmada bekorga ketmaydi. Undan köra çet tilini örgansin, IT bilan şuğullansin, pul topsin!

Yonidagi hamrohi buni eşitib, tanbeh beriş yoki uyaliş örniga boş silkib ma’qulladi:

– Töğri qilibsiz, aka, hozir hamma şunday qilyapti. Uddalasa – qandini ursin!

Bu gaplar yuragimga muzdek botdi. Bir ayol, bir ona sifatida içimda nimadir çirt etib uzilib ketgandek böldi. Bizga nima böldi özi? Keksasi ham, yoşi ham safda turişdan qoçişni **“uddaburonlik”**, **“zamonga moslaşiş”** deb maqtaydigan, armiyaga halol borgan yigitga esa **“tanka”si yöqning bolasi”**, **“omadi çopmagan beçora”** deb açinadigan bu betayin kayfiyat qaysi darçadan oramizga oralab qoldi?!

Şu lahzada köz oldimda talabalik yillarimda mudofaa işlari bölimi – xalq tilida aytganda, **“voyenkomat”** darvozasi oldida guvoh bölganim bir manzara jonlandi.

Öşanda darvoza oldida ikki xil odamlar bor edi. Bir tomonda – kimgadir telefon qilib, ovoz çiqarmay piçirlayotgan, qölidagi papkasini mahkam qisib, “xizmatga yaroqsiz” degan muhrni urdirib oliş umidida şifokorning köziga javdirayotgan, özida durust örta yoşli erkak va çetda beparvo telefon titkilab ötirgan öğli.

Ikkinçi tomonda esa – boşiga römolini mahkam boğlab olgan, qöllari mehnatdan qavarib ketgan muştipar onaxon. Uning yonida egniga eskigina kurtka kiygan, lekin közlarida toğni tolqon qilgudek öt yongan yigitça safga yoziliş uçun tört soatdan beri tik oyoqda navbat kutardi. Onaxon öğlining peşonasidan öpib: **“Bor, bolam, yuzimni yerga qaratma, elingga xizmat qilib kel”**, deb duo qilardi.

Yana talabalik yillarimga qaytaman. Biz ikki kurs bir oqimda öqirdik. Jami ellik nafarga yaqin talaba bölib, şundan olti nafari qiz edi. Adaşmasam, yigitlarning atigi uç-tört nafari harbiy xizmatga bormagan edi.

Qiziği, biror taşabbus kötarilsa yoki jamoaviy vazifa berilsa, harbiy xizmatni ötab qaytgan kursdoşlarimiz birzumda birlaşar, vazifani bölib olib, muammoni hal qilişga kirişardi. Ular orasida qandaydir içki hamjihatlik, intizom va mas’uliyat bor edi.

Öşa davr muhitida armiyada xizmat qilib qaytiş köpçilik yigitlar uçun faqat **majburiyat emas, balki mardlik, mas’uliyat va hayot maktabi** sifatida qabul qilinardi. Men bilan öqigan kursdoşlarimning aksariyati harbiy xizmatdan muayyan imtiyozlar bilan qaytib, oliy ta’limga kirgan yigitlar edi.

Bugun esa atrofga nazar taşlasak, harbiy xizmatga intilayotganlardan köra undan qanday qilib çetda qoliş yölini öylayotgan yoşlarni ham uçratamiz. Tabiiy savol tuğiladi. Bu özgarişga nima sabab böldi? Harbiy xizmat bilan boğliq imtiyozlar qisqargani uçunmi? Ta’lim sohasidagi rağbatlar çeklangani uçunmi? Yoki jamiyatda harbiy xizmatning nufuzi va ma’naviy qiymati yetarliça tarğib etilmayaptimi?

Agar yoşlarni Vatan himoyasiga jalb qilişda moddiy va ta’limiy rağbatlar muhim örin tutsa, ehtimol, ularning samaradorligini yana bir bor körib çiqiş kerakdir. Biroq bu yerda yana bir jiddiy savol tuğiladi. Vatan himoyasi faqat imtiyoz va manfaat bilan ölçanişi kerakmi?



Menimça yöq. Imtiyoz yoşni xizmatga yetaklaşi mumkin, ammo Vatanga sadoqatni imtiyozning özi şakllantira olmaydi. Buning uçun oila, ta’lim, mahalla, ommaviy axborot vositalari, kino va madaniyat bir yönalişda işlaşi kerak.

Öşa keça avtobus derazasidan şaharning yorqin çiroqlariga tikilib, boşimda aylanayotgan savollarga javob izlardim. Nahotki Vatanni himoya qiliş faqat qöli kaltaligidan pullik xizmatga qurbi yetmagan, “orqasi” bölmagan sodda qişloq yigitlarining zimmasidagi yuk bölib qolsa?! Qaçondan boşlab Vatan oldidagi burç boy uçun “pullik istisno”, kambağal uçun “majburiyat”ga aylandi?

“2,9 TRILLION DOLLARLIK SABOQ” – TINÇLIK KIMGA KAFOLATLANGAN?

Biz **“tinçliksevar xalqmiz, çegaramiz mustahkam, heç kim bilan işimiz yöq”**, deya özimizni xotirjamlik beşigida tebratib yurgan bir paytda atrofimizdagi dunyo qayoqqa qarab ketmoqda?

Ilmiy tadqiqot yönalişim **tahdid va xavfsizlik** masalalari bilan boğliq bölgani uçun bu mavzudagi manbalarni doimiy kuzatib boraman. Stokgolm xalqaro tinçlik muammolarini tadqiq qiliş instituti *(SIPRI)* 2026-yilning aprelida e’lon qilgan yillik hisoboti har qanday huşyor köngilni larzaga soladi. 2025-yilda dunyo böyiça harbiy maqsadlar uçun sarflangan mablağ qariyb 2,9 trillion dollarga yetib, SIPRI qayd etgan eng yuqori darajaga çiqdi. Harbiy xarajatlar ketma-ket ön birinçi yil ösib, jahon yalpi içki mahsulotining 2,5 foizini taşkil etdi, bu 2009-yildan buyon eng yuqori uluşdir.

Bu raqamlarning mantiği oçiq va şafqatsiz. Dunyoda kuç siyosati, xaritalarni qayta çiziş vasvasasi qaytdi. Bugungi global buhronlar şaroitida xalqaro huquq me’yorlari köpinça bir varaq qoğozçalik ham qadrga ega bölmay qolmoqda. Harbiy safarbarligi böşaşgan, yoşlari burçdan qoçadigan millatlarning ertangi taqdiri özgalar qölida öyinçoqqa aylanişi heç gap emas.

“BUYUK QUDRATGA EGA XALQNI YENGA OLADIGAN KUÇ YÖQ”

Mustaqilligimizning 35 yilligiga bağişlangan tantanali marosimda davlatimiz rahbari xalqqa qarata sözlagan nutqida bugungi kunning boş haqiqatini oçiq va qat’iy bayon etdi:

“Bir fikrni işonç bilan aytmoqçiman. Biz bugun keçagidan kuçlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuçli bölamiz. Öttiz beş yillik mustaqil taraqqiyot yölimiz bizga bir haqiqatni örgatdi. Xalq va davlat yagona maqsad yölida birlaşib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bölmaydigan marraning özi yöq. Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuçning özi yöq!”

Bu şunçaki tantanali söz emas. Bu öz taqdirini özi belgilayotgan davlat rahbarining qat’iy işonçi va ayni paytda ogohlantirişidir.

Prezidentimiz Yangi Toşkentdan turib e’lon qilgan 7 ta milliy dastur zamirida ta’lim va ilm-fan, soğliqni saqlaş, iqtisodiy yuksaliş, suv va ekologiya, qonun ustuvorligi, mahalla hamda tinçlik va bağrikenglik ğoyalari yotibdi. Ammo unutmaslik lozim, iqtisodiy yuksaliş ham, ilm-fan ham, mahalla obodligi ham mustahkam qalqonsiz, zabardast armiyasiz va fidoyi farzandlarsiz bir lahzada çilparçin bölişi mumkin!

Davlat keçagidan kuçli böliş uçun tinmay harakat qilayotgan bir paytda safga borişi kerak bölgan yigitlar öşa buyuk qudratning mustahkam halqasi emas, zaif böğiniga aylansa, millatning ertangi taqdiri nima böladi?!

“TIŞSIZ” OAV VA MA’NAVIY NARKOZ

Keling, muammoni çuqurroq qaraylik. Yoşlarimizning bunday beparvo kayfiyatga tuşib qolişida ommaviy axborot vositalari, telekanallar va internet makonimizning **“xizmati”** qançalik?

Afsuski, milliy media jamiyatda kuçli ma’naviy va mafkuraviy immunitetni şakllantiriş örniga uni arzon ermak bilan **“ma’naviy narkoz”**ga örgatib qöydi. Televizorni yoqsangiz, saviyasiz töy-tomoşalar, oilaviy mayda-çuyda gina-kuduratlarga töla **“tok-şou”**lar, ertalabdan keçgaça qöşiq xirgoyi qiladigan yaltiroq **“yulduzlar”**.

Afsuski, birorta kanalda ofitserning maşaqqatli hayoti, çegara postidagi sarbozning viqori, harbiy libosning şarafi haqida yurakni titratadigan, badiiy saviyasi yuksak serial yoki tahliliy körsatuvga yaqin orada közingiz tuşdimi?

Borlarining ham boş-oxirida odatda **“Davlat rahbari taşabbusi bilan...”** degan yozuv çiqadi.

Savol tuğiladi: biz-çi? Siz-çi? Nahotki taşabbus faqat davlat rahbaridan çiqişi kerak bölsa? Axir jamiyat va davlat degani – biz emasmi?

Ilgari filmlarda **“armiyaga bormagan yigitga turmuşga çiqmayman”** qabilidagi epizodlar uçrardi. Bugungi nuqtayi nazardan bunday qaraşni mutlaq mezon sifatida qabul qiliş töğri emas albatta. Ammo öşa asarlarda harbiy xizmat **yigitning**

şa’ni, mas’uliyati va Vatan oldidagi burçi sifatida talqin etilardi.

Harbiy tarğibotimiz eski qoliplar girdobida qolib, zamonaviy raqamli olam bilan uyğunlaşişda qiynalmoqda. Özingiz öylang, yilda bir-ikki marta safda marş bosayotgan askarlarni körsatib, pafosli musiqa qöyiş bilan yoşlar qalbini zabt etib böladimi? **Z va Alfa avlodi** bunday yasamalikni birzumda payqaydi. Mafkuraviy maydon esa heç qaçon böş turmaydi. Öz askaringni e’zozlamasang, yoşlaring özgalarning qahramonlariga talpinib ulğayadi.

Nega bugun baloğat bösağasidagi 18–25 yoşli yigitlar orasida uyuşgan jinoiy guruhlar, öğrilik, firibgarlik, fahş va axloqsizlik illatlari xavfli sur’atda ildiz otmoqda? Nahotki erkinlikni çegara bilmas tantiqlik va erkalikka, tinçlikni esa töqlikka şöxlikka yöyib yuborgan bölsak?!

Aççiq bölsa-da, tan olaylik, bu fojialarning tub ildizlaridan biri – yoşlarning jismoniy mehnatdan uzoqlaşayotgani va eng yomoni, böş vaqti maqsadli yönaltirilmagani ortidan bekorçilikka berilganidadir.

Bugun yoşlar juda erta mustaqil hayot ostonasiga kelib qolmoqda. Ular 17-18 yoşida maktabni bitiradi, oliy ta’limga kirgan taqdirda esa 21-22 yoşida diplom olib, katta hayotga qadam qöyadi. Ammo şu oraliqda ularning fuqarolik mas’uliyati, jismoniy va ruhiy tayyorgarligi, Vatan oldidagi burç tuyğusi qay darajada şakllanyapti?

Harbiy xizmatning tarbiyaviy imkoniyatidan töğri foydalanilsa, u yoşlarda nafaqat **Vatanga muhabbat, balki oila qadri, mas’uliyat, sabr-toqat, jismoniy çidamlilik va jamoaga daxldorlik hissini** ham mustahkamlaydi. Balki, bu tajriba ayrim yoşlarni hayotdagi turli salbiy yöllardan – jinoyatçilik, zararli odatlar, yot mafkura va buzğunçi ğoyalar ta’siridan asraşga ham xizmat qilar.

Boisi inson ba’zan bor narsasining qadrini undan ma’lum muddat uzoqlaşgandagina anglaydi.

Soğinç qadrni, maşaqqat sabrni, mas’uliyat esa özlikni anglaşni örgatadi.

Nahotki tinçlik ne’matini ham uni boy beriş xavfi tuğilgandagina eslaydigan bölsak?!

Vatan bizga tinçlik, ta’lim va imkoniyatlarni muhayyo qilib, öz mas’uliyatini ado etmoqda. Biroq er yigitlarimiz öz muqaddas burçimizni qaçon tölaqonli ado etadi?

Şunday ekan, davr talabi va xalqaro tajribalardan kelib çiqib, yoşlarni Vatan oldidagi harbiy burç va safarbarlik mas’uliyatiga jalb qiliş tizimini tubdan takomillaştiriş fursati yetdi. Er yigit köça bezoriligi yoki bekorçilik girdobida emas, zimmasiga mas’uliyat olib, qat’iy intizom ostida jismoniy va ruhiy maşaqqatlarni yengib ötgandagina çinakam er bölib ulğayadi!

Vatanga muhabbat töylardagi qadah sözida emas, aynan safda, qiyinçiliklar orasida isbotlanadi. Toki yigit kişi çarçoqni, buyruqqa böysunişni, eli uçun sovuqda qaltirab postda turişni bilmas ekan, uning tomirlarida na Şiroqning sahroda jon bergan matonati, na Najmiddin Kubroning bayroq tutgan sadoqati, na Jaloliddinning yovga qarşi şermonand jasorati uyğonadi!

DASTURXON, HARAKATSIZLIK VA ERLIK QIYOFASI

Biz bugun er yigitning safdan qoçişini faqat ruhiy qaşşoqlik deb bilamiz, ammo muammoning ildizlari dasturxonimiz va kundalik turmuş tarzimizgaça yetib borganini payqamaymiz. Bozorlarimizni egallagan frityurda qovurilgan tezpişar taomlar, şirin gazli içimliklar va harakatsizlik navqiron avlod salomatligiga jiddiy ta’sir körsatmoqda. Töqlik va ermakka berilgan yoşlarning bir qismi bugun oğirlik kötarişdan, sovuqda safda turişdan qoçib, tanasining ham, ruhining ham noziklaşişiga olib kelmoqda.

Biz qaçon farzandiga ot miniş, kamon otişni örgatgan, dasturxoniga halol mehnat bilan topilgan tabiiy ne’matni qöygan ajdodlarimizning zabardast tarbiyasidan uzoqlaşib qoldik? Burçdan qoçmaydigan, oğirlikni mardona qarşi oladigan askarni virtual dunyo va fastfud emas, halol mehnat, çiniqqan badan va millatning ming yillik soğlom turmuş madaniyati tarbiyalaydi.

XAN DARYOSI MÖJIZASI: SAFDAGI ADOLAT VA “YUMŞOQ KUÇ”

Biz har kuni seriallarini körayotgan, telefonini işlatayotgan Janubiy Koreyadan köp narsani örganişimiz mumkin. Bu mamlakat 1953-yildan buyon tinçlik şartnomasiz, faqat öt oçişni töxtatiş bitimi asosida yaşamoqda. U yerda qonunga köra 18 yoşdan 28 yoşgaça bölgan har bir soğlom erkak fuqaro muddatli harbiy xizmatni ötaşi şart.

Eng muhimi – bu burçdan şuhrat ham qutqarmaydi. Jahonni zabt etgan BTS guruhi a’zolari ham safga turib, oddiy askar kabi xizmat qildi. Xizmatdan qoçiş uçun fuqarolikdan voz keçgan maşhur xonanda Stiv Y esa yigirma yildan ortiq vaqtdan beri öz yurtiga kiritilmaydi. Şu bois Koreyada harbiy xizmatdan qoçiş “ijtimoiy ölim” bilan barobar sanaladi.

Ular faqat jazo bilan çeklanmay, “yumşoq kuç”ni ham işga soldi. “Quyoş avlodlari” *(“Descendants of the Sun”)* seriali ofitserlik şa’nini şunday yuksak did bilan körsatdiki, butun Osiyoda harbiy libosga nisbatan havas uyğotgan bölsa, “D.P.” *(D.P.)* seriali esa kazarmalardagi muammolarni, “dedovşina”ni röyrost foş etdi. Şunday tanqidlar ortidan davlat askarlar maoşini bosqiçma-bosqiç keskin oşirdi, kazarma şaroitlarini yaxşiladi, xizmat davomida masofaviy ta’lim oliş imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada armiya jazoxona emas, kamolot maktabi sifatida qabul qilina boşladi.

2023-YILDA AHVOL ŞUNDAY EDI... HOZIR-ÇI?

Afsuski, bu gaplar şunçaki şaxsiy taassurot emas. Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti 14-yanvar – Vatan himoyaçilari kuni munosabati bilan milliy telekanallarda maxsus monitoring ötkazgan edi. “Jadid” gazetasi va “Xabar.uz” portalida e’lon qilingan uşbu tahlil natijalarini eslaylik:

– “Zör TV”da bayram kuni “Yor-yor”, “Oşxona qirollari” körsatuvlari, “Bahubali” hind filmi va xorijiy seriallar efirni egalladi;

– “Milliy” telekanalida Vatan himoyaçilari kuni şukuhi örniga “Bunçalar zörsan”, “M-kokteyl”, “Gulkaram” kabi yengil-yelpi körsatuvlar namoyiş etildi;

– “Sevimli” telekanali vatanparvarlik mavzusini butunlay çetlab ötdi;

– davlat tasarrufidagi “Kinoteatr” kanali vatanparvarlikka oid birgina milliy filmni *(“Sizga maktub”)* hamma uxlab yotgan tonggi 06:20 da efirga uzatib, kunduzi ikki soatlik “Zargarşop” taqinçoqlar reklamasi va xorijiy jangari filmlar bilan band böldi;

– boş kanal – “Özbekiston”da milliy jasorat haqidagi filmlar örniga “Işq riştasi” nomli hind seriali qöyildi;

– “Navo” musiqiy kanali harbiy qöşiq va dasturlarni tungi 23:00 dan keyin uzatiş bilan kifoyalandi;

– “Bolajon” va “Aqlvoy” esa Tömaris yoki Şiroq kabi milliy qahramonlarimiz örniga bolalar ongini “Kunfu jangçisi” va “Fiksiklar” bilan band qildi.

Bu aniq faktlar media makonimizda vatanparvarlik, milliy mudofaa va erlik burçi tarğiboti aksar hollarda mavsumiy, qolipga tuşgan va yuzaki bölib qolganini oçib berdi.

Oradan uç yil ötdi. Zamon şiddat bilan oldinga ketdi, dunyo esa trillionlab dollarlik qurollaniş girdobiga tortildi. Ayting-çi, öşa monitoring xulosalaridan keyin milliy mediamizda nima özgardi?

Bu savolning javobini oçiq qoldiramiz...

KESILGAN BARMOQLAR QAHRI. BAYROQ TUTGAN KAFTLAR NEGA SOXTA QOĞOZGA ALMAŞDI?!

Xöş, bizga nima yetmayapti? Ildizimiz zaifmidi yo tariximizda mardlar kammidi? Aslo!

Keling, xotiramizni bir “tirnab” köraylik. 1221-yil. Xorazm poytaxti Gurganj möğul bosqinçilari qamalida. Rivoyat qilişlariça, Çingizxon şayx Najmiddin Kubroning olamşumul dovruğini eşitib, unga maxsus çopar yuboradi:

“Öz şogirdlaring va yaqinlaringni olib, şahardan çiqib ket! Biz şaharni yer bilan yakson qilamiz, ammo senga omonlik beramiz”.

Yetmiş olti yoşli, soç-soqoli oppoq mö’tabar alloma bu taklifni eşitib, nima dedi? Qoçdimi? Jonini asraş uçun najot izladimi? Aslo yöq!

“Yetmiş yil bu el bilan şodlikni, tökinlikni baham kördim. Endi el boşiga kulfat tuşganda jonimni asrab qoçib ketsam, bu qanday mardlik, qanday insof bölur?! Mening taqdirim şu elning taqdiridir!”

Şayx qoçmadi! U jonini saqlaş uçun “ma’lumotnoma” töğrilamadi! Rivoyatga köra, keksa hazrat xirqasini mahkam boğlab, etagini toşga töldirdi, qöliga nayza olib, safning eng oldida duşmanga qarşi jangga kirdi va qahramonlarça şahid böldi. Şahid bölganidan keyin ham uning qöli duşman bayroğini şu qadar mahkam çangallagan ediki, bir neça askar yopirilib ham, panjalarini oça olmadi. Oxiri bayroqni ajratib oliş uçun şayxning barmoqlarini kesişga majbur bölişdi!

Bir tasavvur qiling: kesilsa ham, qöldan tuşmagan bayroq! Jon çiqsa ham, qöyib yuborilmagan or-nomus! Mana, vatanparvarlikning asl özagi! Mana, milliy ğururning tirik timsoli! Yetmiş olti yoşli şayxning kesilgan barmoqlari bilan himoya qilingan şu muqaddas tuproqda bugun yigirma yoşli, ikki metrli, toğni ursa tolqon qiladigan yigitlarning harbiy xizmatdan qoçiş uçun arzon bahona töqişi, ota-onalarning esa şifokorlar yölagida “ploskostopiya” qoğozini çangallab turişi özbekning nasliga, origa va iymoniga töğri keladimi?! Öşa kesilgan barmoqlar haqqi bizning yoqamizdan tutmaydimi?!

SÖNGSÖZ ÖRNIDA... QUROL TUTMAGAN QÖLLAR QISMATI

Jadid bobomiz Abdulla Avloniy “Tarbiya bizlar uçun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”, deganda faqat maktabdagi darsni emas, millatning ruhiy va jismoniy mudofaasini ham nazarda tutgan edi. Bugungi dunyoda harbiy safarbarlik va vatanparvarlik tarbiyasi çindan ham hayot-mamot masalasidir.

Şuning uçun harbiy xizmat haqida gap ketganda masalani faqat “boriş yoki bormaslik”, “imtiyoz bor yoki yöq” degan tor doirada körmasligimiz kerak. Asosiy savol boşqa. Biz harbiy xizmatni yoş avlod uçun qanday qilib Vatanga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati va hayotga tayyorgarlik maktabiga aylantira olamiz?

Vatanparvarlik – töylarda qölni kökrakka qöyib qasam içiş yoki bayramlarda yaltiroq sahnalar yasaş emas. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bizni yengilmas qudratga aylantiradigan kuç – xalq va davlatning mustahkam birligi. Bu birlik esa quruq maqtov bilan emas, har birimizning halol burçimiz va vijdoniy mas’uliyatimiz bilan mustahkamlanadi. Bir haqiqatni heç qaçon unutmaylik, öz uyini, öz Vatanini himoya qiliş uçun qurol tutişni örganmagan, bundan or qilgan yoki böyin tovlagan millatlarning ertangi taqdirini boşqalar – qölida qurol tutgan begonalar hal qiladi. Bu – tarixning isbot talab qilmaydigan aççiq saboğidir.

Nigora HUSANOVA,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi,
f.f.f.d. *(PhD)*



“Bormi er yigitlar,

Mamlakatimizdagi kuç tuzilmalari safida xizmat qilayotgan harbiy xotin-qizlar örtasida har yili an’anaviy tarzda “Vatan mehri yuragimda” şiori ostida “Tömaris izdoşlari” bellaşuvi ötkazib kelinişi ajdodlar tarixiga hurmat-ehtirom körsatiş, ularning munosib izdoşlari böliş kabi yuksak ğoyalarni özida mujassamlaştiradi.



Harbiylaşgan va huquq-tartibot tuzilmalarida xizmat qilayotgan jasur xotin-qizlar özining metin irodasi, yuksak kasbiy mahorati hamda fidoyiligi bilan barçaga örnak bölib kelmoqda. Oila va xotin-qizlar qömitasi hamda mamlakatimizdagi qator kuç tuzilmalari hamkorligida taşkil etilgan uşbu tadbir har safar çinakam vatanparvarlik bayramiga aylanadi.

Joriy yilda mazkur tadbir ilk bor an’anaviy körik-tanlov şaklida emas, balki örtoqlik uçraşuvi tarzida taşkil etildi. Özbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qömitasi hamda kuç tuzilmalari hamkorligida ötkazilgan bellaşuvda iştirokçilar öz bilim va mahoratlarini turli yönalişlarda namoyon etdi. Ikki kun davom etgan bellaşuvlarda yettita harbiylaşgan tizimda mehnat qilayotgan xotin-qizlar jamoalari özaro kuç sinaşdi. Unda Vatan himoyaçilari bölgan ayollarimizning jismoniy tayyorgarligi, intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatlari sinovdan ötkazildi.

Musobaqaning dastlabki kun bahslari Özbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bölib ötdi. Unda Mudofaa, Içki işlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Prezident davlat xavfsizlik xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya hamda Bojxona qömitasi vakillari va Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlaridan iborat sakkizta jamoa iştirok etdi.

Tadbirning birinçi kuni Özbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida boşlanib, unda iştirokçilarning jangovar va amaliy könikmalari sinovdan ötkazildi. Jamoalar “Otiş tayyorgarligi”, “Harbiy tayyorgarlik” va “Jismoniy tayyorgarlik” şartlarida özlarining tezkorligi, çidamliligi va jamoaviy harakat qiliş mahoratini namoyiş etdi. Şuningdek, harbiy xizmatçi ayollarimiz “Epçil, tejamkor va orasta beka” şartida milliy taom tayyorlaş borasidagi pazandalik tajribasini ham işga soldi. “PM töpponçasidan öq otiş tayyorgarligi”, “6x100 estafeta yuguriş”, “Tez tibbiy yordam körsatiş”, “Özbekona töy oşi tayyorlaş” şartlarini bajariş jarayonida örtoqlik uçraşuvi qatnaşçilarining kasbiy mahorati va ayollarga xos latofati bir-biri bilan uyğunlaşib ketganini kuzatdik. Ayniqsa, ularning jangovar quroldan foydalaniş çoğidagi sovuqqonligi hamda yuguriş yölagidagi çaqqonligi har qanday insonda harbiy xizmatga bölgan havasni uyğotgan bölsa ajab emas.

Uçraşuvning ikkinçi kuni jamoalarning “Zakovat” intellektual bellaşuvi, “Taniştiruv” hamda “Iste’dod va mahorat” şartlari bilan davom ettirilib, harbiy kasb şarafi, Vatanga sadoqat ğoyalari ijodiy sahna körinişlari, qöşiq va raqslar orqali ifoda etildi. Içki işlar vazirligi madaniyat saroyida musobaqaning navbatdagi şartlari böyiça bahslar davom ettirildi. Jumladan, jamoalar “Zakovat” intellektual bellaşuvi, milliy raqs va aktyorlik mahoratini namoyiş etiş, şuningdek sahnada Tömaris siymosini özига xos tarzda gavdalantiriş orqali hakamlar hay’ati va tomoşabinlar e’tiboriga havola etildi.





Yakuniy natijalarga köra, turli yönalişlar böyiça ğoliblar aniqlanib, “Çeksiz ğayrat” nominatsiyasidagi sovrin Mudofaa vazirligi şarafini himoya qilgan jamoaga nasib etdi. III darajali serjant Muxtasam Akmalova, kiçik serjant Şahnoza Jabborova, III darajali serjant Mavsuma Suyarova, III darajali serjant Bibimaryam Suyunova, III darajali serjant Saida Anvarova, III darajali serjant Viktoriya Morozova, kiçik serjant Rusalina Ahrorova, kiçik serjant Mayramxon Kenjayeva, III darajali serjant Nigora Alumuhamedovadan iborat harbiylarimiz “Ivan Vasilyeviç öz kasbini özgartiradi” filmidagi vaqt maşinasi sahna körinişi orqali hakamlar va tomoşabinlar mehrini qozonişga muvaffaq böldi. Ayniqsa,



bormi er qizlar...”

film qahramoni Şurik *(Viktoriya Morozova)* sahnada Tömaris yaşagan davrni ham jonlantiriş mumkinligini ta’kidlab ötadi. Musobaqa hakami, Özbekiston xalq artisti Gavhar Zokirova sinçkovlik bilan şunga e’tibor qaratganda jamoa qizlari Tömaris obrazini vaqt maşinasi orqali navbatdagi tanlovda olib çiqamiz, deya barçani birdek qiziqtirib qöydi.

Biz yuqorida nomlari qayd etilgan qizlarimizning Armiya öyinlari doirasidagi “Harbiy-tibbiy estafeta”, “Sodiq dost” musobaqalari Mudofaa vazirligi va kuç tuzilmalari örtasidagi boşqa köplab musobaqalardagi yutuqlariga bir neça marta guvoh bölganmiz.

Şuning uçun “Tömaris izdoşlari” örtoqlik uçraşuvidagi natijani odatdagidek qabul qildik. Erişilgan navbatdagi yutuqni qizlar bilan birgalikda Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy xizmatçilarning oilalari bilan işlaş boşqarmasi inspektori Zulfiya Mansurova kötarinki kayfiyatda qabul qildi. Çunki Zulfiya Mansurovaning “Biz milliy armiyamiz tarkibidagi bir oilamiz. Ana şu oilamiz erişgan har bir muvaffaqiyat jamoamizni yangi-yangi marralar tomon çorlab qolaveradi”, degan e’tirofiga amalda yana bir bor guvoh böldik. Ha, aytgança, bellaşuvlar davomida Mudofaa vazirligi jamoasini III darajali serjant Şohida Gapparova boşçiligidagi tomoşabinlar har tomonlama qöllab-quvvatlab turgani barçaning diqqat markazida böldi. Şohidani yaqindan taniganlar uni tinib-tinçimas sportçi va taşkilotçi harbiy xizmatçi sifatida biladi. Şuning uçun ham tadbir jarayonida Şohida Gapparova Özbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qömitasi tomonidan ta’sis etilgan “Matonatli ayol” kökrak nişoni bilan taqdirlanganidan ajablanmadik.











Içki işlar vazirligi madaniyat saroyida bölib ötgan tantanali taqdirlaş marosimida turli yönalişlar böyiça nominatsiyalar ğoliblari, jumladan Qurolli Kuçlarimiz safida şaraf bilan xizmat qilib kelayotgan harbiy xotin-qizlar medal, diplomlar bilan taqdirlandi. Şuningdek, barça jamoa a’zolariga taşkilotçilar tomonidan qimmatbaho sovğalar topşirildi.

“Tömaris izdoşlari” tanlovi – bu şunçaki bellaşuv emas, u mamlakatimizda xizmat qilayotgan harbiy xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oşiriş, ularni qöllab-quvvatlaş va yangi imkoniyatlar eşigini oçişga xizmat qiluvçi muhim maydon hisoblanadi. Bu kabi tadbirlar orqali ularning Vatanga bölgan sadoqati, aql-zakovati va fidoyiligi yuksak darajada e’tirof etiladi. Mazkur örtoqlik uçraşuvi harbiy xotin-qizlarning kasbiy mahorati, jismoniy tayyorgarligi, bilim va ijodiy salohiyatini namoyon etiş, ular örtasida özaro hamjihatlik va döstona munosabatlarni mustahkamlaşda muhim örin tutgani bilan ahamiyatli.

Tömaris jasorati va harbiy-siyosiy faoliyati töğrisida xalq dostonlari yaratildi, jangnoma va rivoyatlar töqildi. Ergaş Jumanbulbul öğlining “Oysuluv” dostonida Turon mamlakati malikasi Oysuluv obrazida Tömaris faoliyati özining badiiy talqinini topgan. Yozuvçi Mirkarim Osim “Tömaris” qissasida uning jasoratini uluğlaydi. Xullas, bu kabi misollarni köplab keltiriş mumkin. Kuç tuzilmalari harbiy xizmatçilari örtasida “Tömaris izdoşlari” körik-tanlovining muntazam taşkillaştirilişi orqali Tömaris siymosini yanada uluğvor talqinlarda köraveramiz. Har safar Turon mamlakati malikasining tillarda doston bölgan qahramonligi sahnada jonlantirilganda faxr bilan kuzataveramiz.

Qisqa qilib aytganda, Tömaris haqidagi tarixiy haqiqat millatimiz ötmişining naqadar uluğvor va ibratli ekanidan dalolat beradi. Özbek davlatçiligi tarixida ayollar faqatgina oila bekasi emas, balki yurt himoyaçisi, Vatan qalqoni bölib maydonga çiqqan. Ularning nozik yelkalarida ulkan saltanatning butun boşli taqdiri va kelajagi turgan. Şuning uçun ajdodlarimiz, xususan turonlik momolarimizning bunday tengsiz jasoratidan doimo faxrlanişga haqlimiz. Tariximizning bunday yorqin sahifalarini çuqur örganiş, “Tömaris izdoşlari” körik-tanlovi sifatida muntazam ötkazib kelinişi milliy ğurur tuyğusini yanada yuksaltiradi. Buyuk e’tiqod, tuganmas iroda va mardlik ustiga qurilgan millat qaddi heç qaçon bukilmasligini bugungi avlodga yanada teranroq yetkazişda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asror RÖZIBOYEV,
“Vatanparvar”

Sönggi vaqtlarda Özbekiston hayotida taşqi siyosat, milliy özlik va hududiy taraqqiyotni qamrab olgan muhim jarayonlar tarix zarvaraqlaridan örin olmoqda. Mamlakatimizda yuz berayotgan özgarişlar, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan taşabbuslar taraqqiyotimizning yangi bosqiçini belgilab bermoqda. Bu jarayonlar zamirida esa millatimiz nomi özagida turgan “Öz” ğoyasi alohida mazmun kasb etmoqda.



“ÖZ” ĞOYASI VA ONA TILIMIZ:

milliy özlikdan raqamli taraqqiyot sari

Prezidentimiz 21-oktabr – Özbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan Özbekiston xalqiga yöllagan bayram tabrigida “Öz” ğoyasining mazmuniga alohida e’tibor qaratilgan. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Biz “Öz” degan ezgu ğoyani tilga munosabatimizda ham ana şunday tuşunamiz va joriy etamiz. Ayni şu ğoya özak tomirlarimizdan oziqlanib kelgan ona tilimizga dunyo bilan erkin muloqot qiliş, zamonaviy bilimlarni özlaştiriş, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirişda yangi kuç-quvvat beradi”.

Inson özligini anglagani sari öz qadrini, millat esa özligini anglagani sari öz tili, tarixi va ma’naviy ildizlarining ahamiyatini çuqurroq his qilib boradi. Özlikni anglaş şunçaki ötmişni yodga oliş emas, balki bugungi taraqqiyot yölini belgilaş, milliy qadriyatlarga tayangan holda kelajakni barpo etiş demakdir. Şu ma’noda “Öz” tuşunçasi zamirida milliy özlikni asraş, öz imkoniyatlarimizni kaşf etiş, mustaqil fikrlaş va taraqqiyot sari dadil intiliş kabi ezgu maqsadlar mujassam.

Aynan uşbu ğoyaning amaliy ifodasi sifatida lotin yozuviga asoslangan özbek alifbosini takomillaştirişga qaratilgan qonunni imzoladi. Unda amaldagi 26 ta harf va 3 ta harf birikmasi örniga 28 ta harf va bitta tutuq belgisidan iborat alifboni nazarda tutuvçi özgartirişlar közda tutilgan. Taklifga muvofiq, O‘ o‘ harflari Ö ö, G‘ g‘ harflari Ğ ğ, Sh sh birikmasi Ş ş, Ch ch birikmasi esa Ç ç şaklida ifodalanişi belgilandi. Bu orqali alifbomizdagi çalkaşliklar öz yeçimini topdi. Harflar xalqaro tan olingan “Bir tovuş – bir harf” tamoyiliga moslaştirildi.

Alifbomizdagi har bir belgi tilning öziga xos tovuş tizimini ifodalaş bilan birga fikrni aniq bayon etiş, yozma nutqda izçillikni ta’minlaş va milliy tilning imkoniyatlarini töla namoyon etişga xizmat qiladi.

“Öz” ğoyasining mohiyati ham aynan şu nuqtada namoyon böladi. Öz tilimizning tabiiy xususiyatlarini asraş, uni zamon talablariga mos ravişda rivojlantiriş va xalqaro muloqot maydonidagi imkoniyatlarini kengaytiriş milliy özligimizni mustahkamlaşning muhim şartlaridan biridir. Biroq bu tuşunçani faqat milliy merosni asraş doirasida talqin etiş uning mazmunini toraytirib qöyadi. Çunki özlikni anglaşning haqiqiy qiymati uni bugungi hayotga tatbiq etişda, milliy imkoniyatlarni taraqqiyot manbaiga aylantirişda namoyon böladi.

ÖZ IMKONIYATLARIMIZGA TAYANIŞ

Har qanday taraqqiyotning mustahkam poydevori insonning öz imkoniyatlarini anglaşi va ulardan samarali foydalanişidadir. Millat miqyosida esa bu jarayon milliy salohiyatni kaşf etiş, mavjud bilim va tajribani rivojlantiriş hamda zamonaviy talablar asosida yangi imkoniyatlar yaratişda namoyon böladi.

Til masalasida ham xuddi şunday. Özbek tilining luğat boyligi, ifoda imkoniyatlari va asrlar davomida şakllangan grammatik tizimi zamonaviy tuşunçalarni ifodalaş uçun katta asos bölib xizmat qiladi. Bu imkoniyatlardan töğri foydalaniş, yangi atamalarni işlab çiqiş, ilmiy uslubni takomillaştiriş va turli sohalardagi bilimlarni ona tilimizda bayon etiş orqali tilimizning qudratini yanada oşiradi.

Bunda “Öz” ğoyasi öz imkoniyatlarimizni anglaş va ularni rivojlantirişga undaydi. Boşqa tillardagi ilmiy yutuqlarni özlaştiriş bilan birga ularni özbek tilida tuşuntiriş, tahlil qiliş va yangi ğoyalar yaratiş ham muhimdir. Bu jarayonda milliy tilimiz bilim olişga tösiq emas, aksinça, bilimni çuqur anglaş va keng ommaga yetkaziş vositasiga aylanadi. Şu bois özbek tilidagi sifatli darsliklar, ilmiy adabiyotlar, elektron luğatlar, zamonaviy öquv qöllanmalarini köpaytiriş va yangi alifboga moslaştiriş oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Çunki tilning imkoniyatlari unda yaratilgan bilimlar orqali ham kengayadi.

“Öz” degani boşqalardan ajralib qoliş emas. U öz tayançiga ega böliş, öz imkoniyatlarini anglaş va şu asosda dunyo bilan teng muloqotga kirişişdir.

ZAMON BILAN HAMNAFAS TIL

Bugun dunyo şiddat bilan özgarmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, axborot almaşinuvi va yangi ilmiy kaşfiyotlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bunday şaroitda har qanday tilning istiqboli uning zamonaviy taraqqiyot jarayonlaridagi iştiroki bilan ham belgilanadi.

Özbek tili ham bu jarayondan çetda qolmasligi kerak. Aksinça, u raqamli makonda, elektron ta’lim tizimlarida, ilmiy platformalar va sun’iy intellekt vositalarida keng qöllanilişi zarur. Buning uçun sifatli elektron ma’lumotlar bazasini yaratiş, imlo tekşiruvçi dasturlarni takomillaştiriş, nutqni taniş va sintez qiliş texnologiyalarini rivojlantiriş muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bu yerda ham “Öz” ğoyasining mazmuni yaqqol namoyon böladi. Agar biz öz tilimizning raqamli imkoniyatlarini rivojlantirsak, kelajak texnologiyalarida ham uning munosib örnini ta’minlaymiz. Agar zamonaviy bilimlarni özbek tilida ifodalaş uçun zarur şaroit yaratsak, yoşlarimizning ilm-fanga qiziqişi va bilimlarni özlaştiriş imkoniyatlari ham kengayadi.

Şu bilan birga, tilimizning raqamli taraqqiyoti nafaqat dasturçilarning vazifasi, balki tilşunoslar, olimlar, pedagoglar, jurnalistlar va sohaviy mutaxassislarning ham vazifasidir. Çunki texnologiyalar tilimizdagi mazmunni qançalik töğri anglasa, uning imkoniyatlaridan foydalaniş samarasi ham şunçalik ortadi.

Demak, “Öz” milliy tilni zamonaviy taraqqiyotdan ajratiş emas, balki uni taraqqiyotning faol iştirokçisiga aylantiriş ğoyasidir.

DUNYOGA ÖZ SÖZIMIZ BILAN ÇIQIŞ

Milliy özlikni anglaşning muhim jihatlaridan biri öz qaraşlarimizni dunyoga yetkaza olişdir. Buning uçun, albatta, xorijiy tillarni örganiş, xalqaro tajribalarni özlaştiriş va turli xalqlar bilan hamkorlikni rivojlantiriş zarur. Bu jarayonda esa ona tilimizning örnini ham unutmasligimiz kerak.

Xorijiy tillarni biliş dunyoga oçiladigan eşik bölsa, ona tilimiz şu dunyoda özligimizni namoyon etadigan muhim vositadir. Biz boşqa tillarda bilim olişimiz, xalqaro tajribalarni örganişimiz mumkin. Biroq özlaştirgan bilimlarimizni ona tilimizda tahlil qilib, ularni jamiyatimizga moslaştiriş va xalqimizga yetkaziş asosiy maqsadimizdan biri bölişi kerak.

Şu ma’noda özbek tilidagi ilmiy va badiiy asarlarni xorijiy tillarga tarjima qiliş, milliy adabiyotimizni xalqaro maydonda tarğib etiş, özbek tilini örganişni istagan xorijliklar uçun sifatli resurslar yaratişimiz lozim.

> ***“Tilning xalqaro nufuzi nafaqat uning qança odam tomonidan sözlaşilişi bilan, balki şu tilda yaratilgan asarlar va ğoyalarning dunyoga qançalik ta’sir körsatişi bilan ham belgilanadi.”***

“Öz” ğoyasi aynan şu nuqtada yanada teran ma’no kasb etadi: dunyoga oçiq böliş, yangiliklarni özlaştiriş va şu bilan birga, özligingni yöqotmaslik. Bu milliylik va zamonaviylikni birlaştiradigan taraqqiyot yölidir.

ÖZLIGIMIZNI ANGLAB, YORQIN KELAJAK QURAMIZ

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan “Öz” ğoyasi ona tilimizga munosabatni yangi mazmun bilan boyitadi. Bu ğoya bizdan nafaqat milliy merosni asraşni, balki uning negizida zamonaviy taraqqiyotni ta’minlaşni ham talab etadi. Özligimizni anglaş, öz tilimizda fikrlaş, öz salohiyatimizga tayaniş va jahon bilan teng muloqot qiliş bir-birini töldiradigan yagona jarayondir.

Şu nuqtayi nazardan, özbek tilining kelajagi faqat qabul qilinayotgan qarorlar yoki amalga oşirilayotgan islohotlarga emas, balki har birimizning munosabatimizga ham boğliq. Tilni kundalik hayotda töğri qöllaş, uning ilmiy va raqamli imkoniyatlarini kengaytiriş, zamonaviy bilimlarni ona tilimizda ifodalaş va milliy adabiyotimizni dunyoga tanitiş orqali bu ezgu ğoyani hayotga tatbiq etamiz.

Zero “Öz” nafaqat özimiznikini asraş, balki özimizdagi imkoniyatlarni kaşf etiş hamdir. Bu ildizlarimizdan kuç olib, kelajakka dadil qadam taşlaş, milliy özligimizni anglagan holda dunyo bilan hamnafas yaşaş demakdir.

Öz tilimizda fikrlaylik, öz salohiyatimizga tayanaylik, öz bilimimiz bilan taraqqiyotga hissa qöşaylik. Zero özligini anglagan millat öz kelajagini ham anglaydi. Ona tilini taraqqiyot vositasiga aylantirgan millat esa dunyoda öz sözi, öz örni va öz nufuziga ega böladi.

Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”

KUBRO JASORATI:

UYDIRMA, TARIXIY HAQIQAT VA BADIIY TALQIN

Odatda bayroq qabul qilingan kun munosabati bilan katta-kiçik davralardagi ma'ruzalarda, OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi çiqişlarda buyuk bobomiz Najmiddin Kubro jasorati eslanadi. Afsuski, köp hollarda bu jasorat butunlay talqin etiladi. Ya'ni şunday buyuk qahramonlik haqida YOLĞON aytiladi. Nima emiş, Kubro hazratlari Vatan bayroğini baland kötarganmişlar-u, möğul bosqinçilari ölganlaridan söng ham uning qöllaridan bayroqni tortib ololmasdan, barmoqlarni çopib taşlagan ekan... Tarixiy haqiqat esa butunlay boşqaça aslida...

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvif donişmandlardan biri, uluğ şayx, kubroviylik tariqatining asosçisi, Najmiddin Kubro taxallusi bilan tanilgan zotning töliq ismi manbalarda Ahmad ibn Muhammad Xivaqiy Xorazmiy deb tilga olinadi va yana Abu-l-Jannob, ya'ni dunyoviy ikir-çikirlardan uzoq turuvçi va Tomatu-l Kubro – balo-qazolarning oldini oluvçi, xaloskor laqablari bilan ham e'zozlanadi.

Ali Akbar Dehxudoning "Luğatnoma" kitobidagi ma'lumotga köra, "uning Kubro deb atalişiga sabab şuki, behad ziyrakligi va zakovati tufayli har qanday muşkul muammoni ham hal etib beriş qudratiga ega bölgan va har qanday kişi bilan munozara qilsa, albatta, ğolib çiqar ekan".

HAQQA YETIŞ YÖLIDA...

Barça manbalarda uning 1145-yilda Xorazmning Xiva şahrida tavallud topgani aniq qayd etilgan. Ilm istab Misrga borgani va u yerda Ruzbehon Vazzon Misriy degan olimga şogird tuşib, uning mehrini qozongani ham ma'lum. Misriy undagi iqtidorni körib, juda suyungan va hatto öz qizini unga nikohlab berib, kuyov sifatida e'zozlagan.

Haqqa yetiş yöllarini izlagan Najmiddin Kubro köp ötmay Tabrizga borib, donişmand Imom Abu Mansur Hafdadan islomiy ilmlarni örgandi, söngra Bobo Farj, Ammor Yasir kabi yirik donişmandlardan tasavvufga oid zohiriy, botiniy ilmlarni ham egalladi. Şayx Ismoil Kasriy qölida tasavvufiy xirqapöş darajasiga yetib, hazratning oq fotihasini oldi. Keyinçalik, qaynotasining maslahati bilan öz Vataniga qaytib kelib, xonaqoh qurdi va şogirdlar tarbiyasiga e'tibor qaratdi hamda "Kubraviya" va "Zahobiya" tariqatlariga asos soldi. Bu tariqat ta'limoti hadis va şariatga asoslangan bölib, Xuroson, Hindiston va qator musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaldi.

"ÖLIMIMIZ BOŞQALARGA IBRAT BÖLSIN!"

Lekin hazratning Xorazmdagi sönggi hayoti öta oğir va murakkab şaroitlarda keçdi. U zotning bosqinçilar qölida şahid bölgani haqidagi ma'lumot Raşididdin Fazlillohning "Jameatu-t-tavorix" *("Tarixlar töplami")* hamda boşqa asarlarda yozilgan. Möğullar hukmdori Çingizxon Najmiddin Kubroning maşhur şayxlardan biri ekanini eşitgaç, öz çopari Imom Mujtahiddin orqali: "Men Xorazmni qatliom qilmoqçiman, Sizdek uluğvor inson u yerni tark etib, huzurimga kelişingizni sörayman", deya xabar yuboradi. Lekin Imom Mujtahiddin har qança urinmasin, hazratni gapga köndirolmaydi.

Taniqli adib Xurşid Davron "Şahidlar şohi" asarida bu voqeani töliq ifoda etgan. "Men öz yurtimni, öz xalqimni kulfatda taşlab ketmayman, – deydi Şayx Çingizxon elçisiga. – Men umr böyi ahli kufr-u zalolat bölmiş zolimlar dargohidan, ularning nopok majlislaridan qoçdim. Men umr mohiyatini sa'yi harakatda kördim, dunyo qulligidan ozod bölmoqqa intildim. Bildimki, eng noyob ne'mat – qahramonlik, Olloh yölida qilingan fidoyi jasorat ekan. Öz qavmi, öz kulbasi, öz farzandini kufforlardan himoya qiliş esa uluğ saodatdur".

Şayx yurt himoyaçilariga qarata şunday deydi: "Ölim haq, heç kim undan qoçib qutulolmaydi, ammo Vatan uçun jon bermoqdan özga şaraf yöqdur. Xudoyim elçisi öz hadislarida: "Vatan sarhadini bir kun himoya etmoq oltmiş yillik nafl ibodatidan afzalroqdir", demişlar. Illo, ölimimiz boşqalarga ibrat bölsin!"

ŞAYX ZARBASI

Mana bu Erkin Samandarning "Ğayb quşlari" hikoyasidan parça: "...hazrat öz diliga tugib qöygan niyatini amalga oşirişga kirişdi. Içkari kirib, sarosimada öltirgan ayollar holidan xabar oldi, möltirab turgan bolalarning boşlarini siladi. Vodariğ, hademay bu fariştalarning-da boşlarida yanğoq çaqurlar, qay birlarini qatl aylab, qay birlarining qöl-oyoqlariga qullik zanjirlarini boğlamoq bölurlar. Ammo yoğiy anglamaski, olarning qariyalaridin tortib norasidasigaça boş egib yaşamoqlikdin tik turib ölmoqlikni afzal bilurlar!"

Manbalarda aytilişiça, Najmiddin Kubro oğir yarador holida bosqinçilar bayroğini ğanim yalovbardori qölidan yulqib oladi. Bu aslida duşman uçun oğir zarba edi. Bir muddat möğullar dovdirab qoladi, çunki bayroqning tuşirilişi mağlubiyatdan darak edi. Yoğiylar şayxning ustiga taşlanib, bayroqni uning qölidan tortib olmoqqa intiladi, ammo bu iş oson keçmagani afsonaga aylanib ketganki, hozirda ham şu gaplar oğizdan oğizga köçib yuradi.

Şayx qölida nayza, bir möğul askaridan tortib olgan qiliç bilan ikki-uç nafar duşmanni yer tişlatadi. Xurşid Davron afsonaga aylangan bu tarixiy lahzalarni şunday tasvirlaydi: "Söng uç qadamça narida közlari dahşatdan çaqnab yonayotgan, qölida alvon bayroqni uşlab olgan möğul navkariga tuşdi. U xavf-xatarni pisand qilmay, bayroqni balandroq kötarişga urinar, bu bilan safdoşlarini yana şiddat bilan olğa bosişga undamoqçi bölardi. Şayxning közida unga xos bölmagan nafrat va adovat uçqunlari çaqnadi. U birdan oldinga taşlandi-yu, qiliçini möğul kökragiga sançdi. Tuğbardor qulab tuşar-tuşmas, kokiliga çang soldi. Ammo tuğbardorning ölimini körgan orqadagi möğullar Şayxni kamondan öqqa tutdi. Novaklarning biri Şayx köksini teşib ötdi. Şayx: "Oh!" dedi-yu, yerga quladi. U tuğbardor kokilini qöyib yubormasdan çap qöli bilan köksidagi novakni suğurib oldi, söng butun kuçini yiğib duşman bayroğiga çang soldi... Möğullarning biri jon berayotgan Şayxning qölidan bayroqni tortib olişga urindi, ammo kuçi yetmadi. Bayroqqa ikkinçi möğul yopişdi. Ammo Şayx Kubroning barmoqlari duşman bayroğini şunday kuç bilan qisib turardiki, duşmanlar bu kuç oldida ojiz qoldi..."



URUŞ QOIDASI NEGA BUZILDI?

Ötmişda uruşning ham öz qoidalari, ta'bir joiz bölsa, "madaniyat"i bölgan. Navröz va hayit kunlari uruşlar töxtatilgan. Bayram qilayotgan qöşin ustiga ğaflat ustida hujum qilişdan laşkarboşilar or qilgan, buni qörqoqlik va pastkaşlik deb hisoblagan. Xuddi şu kabi yalovni qöldan berişdan ham nomus qilgan. Qaysidir tomonning tuği yiqilsa, öşa tomon mardlik va tantilik bilan mağlubligini tan olgan. Şu bois ham Şayx hazratlari jon tikib, möğullar bayroğiga yopişgan edi. Ammo...

"Azaldan uruş qoidasida har ikki tomon bahodirlaridan biri yengilsa yoki biror muxolif tomon bayroği sarnigun etilsa, ya'ni yerga yotqizilsa, şu tomon yengilgan hisoblanadi, – deb yozgan edi taniqli olim Naim Norqulov. – Lekin sahroyi möğullar uruşida bobolar udumiga rioya qilinarmidi?.. Alovuddin Muhammad Xorazmşoh şarmandalarça qoçgan bir paytda Şayx Kubro tariximizda özining piri murşidligini, haqiqiy vatanparvarlar şohi ekanini isbot etdi. Çingizxonning yalovini yiqitdi!"

ŞAHIDLAR ŞOHI

Bu buyuk jasorat tarix solnomalariga zarhal harflar bilan bitildi. Mavlono Jaloliddin Rumiy umrining oxirlarida Şayxga bağişlab, hayajonli satrlarni bitadi:

Mazmuni:

Biz şunday uluğlardanmizki, gavhar tutamiz,
Oriq eçki tutgan pastkaş – muflis emasmiz,
Bir qölimiz bilan iymon qadahidan may içsak,
Ikkinçi qölimiz bilan kofir yalovini tutamiz.

Oradan ikki asrdan ziyod vaqt ötgaç, buyuk donişmand podşoh Mirzo Uluğbek "Tarixi arba'yi ulus" kitobida Şayxning alamli tarixiga bir neça varaq ajratib, Şayx vafotiga bağişlangan tarixni qayd etadi: "Murşidi a'zam Şayx Najmiddin Kubro Xudo amri bilan Xorazm uçun boşini tikdi. Boşini topşirişda qotil yaloviga yopişdi. Dini Haq iqlimining podşohi, ul pir sarpanjasidan ön zabardast yigit yalovini körib hayratda, qolgan oqillar bu holni şarhladilar: "Yalov uçini şayx tutib, ta'rix aytdiki, vafotim sanasi "Şohi şuhado" *("Şahidlar şohi")*dir".

PODŞOLAR BU OSTONANI SUPURIŞNI ORZU QILGAN

Najmiddin Kubro özining "Favoih al-jamol va favotih al-jalol" *("Jamol xuşböyliklari va jalolning kaşfi")*, "Al-usul al-aşara" *("Önta usul")*, "Risola at-turuq" *("Tariqatlar risolasi")*, "Risolat al-xoif al-hoim min lavm al-loim" *("Malomatçining malomatidan hazar qiluvçi haqida risola")* va boşqa asarlari orqali haqiqat asroriga yetiş yöllarini izladi va şu yölda öz tasavvuf maktabini yaratdi. Uning aqidasiga köra, inson öz mohiyati e'tibori bilan "mikrokosm", ya'ni kiçik olam bölib, özida koinotning barça unsurlarini mujassamlaştiradi. Ammo haqiqat yölini qidiruvçilar kamolotga erişişlari uçun ma'lum riyozatli yöllardan ötişlari zarur. Bu yöllar önta usuldan iborat bölib, ular Tavba, Zuhd fi-dunyo, Tavakkal, Qanoat, Uzlat, Mulozamat az-zikr, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Rizodir. Bu yöllardan natija şuki, ölmaydigan şaxsning yodi uning nafsini mağlubiyatga uçratgan sifatlarda yaşaydi.

Najmiddin Kubroning yana boşqalarga öxşamagan qirralaridan biri şuki, u zot valitaroş, ya'ni valiylarni parvarişlab tayyorlovçi, deya e'tirof etiladi va çindan ham, umrlari davomida ön ikki kişini muridlikka qabul qilib, barçalarini şayxlik darajasiga yetkazgan. Ularning safida Farididdin Attorning padari buzrukvori Majididdin Bağdodiy, Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad, Najmiddin Doya Roziy, Sa'diddin Hamaviy, Sayfiddin Baxorziy va boşqalarni uçratişimiz mumkin va aytiş kerakki, ularning har biri öz davrining yetuk insonlari sifatida e'tirof etilgan.

Temuriylar sulolasining sönggi qudratli vakillaridan biri va buyuk şoir bölmiş Husayn Boyqaro bir kuni turkiy şe'riyat sultoni hazrat mir Alişer Navoiyga qarata aytadi: "Agar men podşohlik işlari ila şuğullanişdan qöl tortişga jazm etsam, Şayx Najmiddin Kubro mozori ostonasining jörubkaşi *(supuruvçisi)* bölaman".

Umuman olganda, keksa şayx va donişmand inson – Najmiddin Kubroning ilmiy faoliyati, kamolot darajasi, qahramonligi va jasorati avlodlarga munosib ibrat namunasidir.

Nuriddin EGAMOV

Yaxşi ODAMLARNING yaxshi bolasi



Ba’zan suhbatlarda, köça-köyda yurganingda keksalarning yoşlar haqidagi goho xuşnud, goho andak ginali gap-sözlarini eşitib qolamiz. Şunda beixtiyor keçagi va bugungi avlod, ularning turmuş tarzi, his-tuyğulari, yutuq-kamçiliklari haqida öylab qolasan, kişi. Yoş avlod, biz xohlaymizmi-yöqmi, doimo zamondan bir qadam oldinda yurişidan köz yummasligimiz lozim. Bu, albatta, davr bilan, taraqqiyot bilan boğliq. Har bir davrning öz farzandlari, öz muammolari, öz qahramonlari böladi. Bugun oldin ota-ona izmidan çiqmaydigan, yetagida yuradigan yetti yoşli boladan tortib yetmiş yoşli qariyalargaça öz muammolari girdobidan çiqib ketişga yöl izlaydi. Öz dunyoqaraşi, fikr, tuşunçasi doirasida yaşaşga intiladi. Ba’zan qondoş, jondoş bölib ham, bir xonadonda yaşab ham tuşunçalar, dunyoqaraşlar, his-tuyğular kelişmovçiligi bölib turadi. Oilamizdagi yoşlardan farqli ölaroq özim televideniye körsatuvlaridan “Otalar sözi – aqlning közi”, “Zakovat” körsatuvlarini, mumtoz kuy-qöşiqlarni, insoniy his-tuyğularni lirik, vazmin holatda tarannum etuvçi oliyjanob tuyğular taronasi bölmiş yapon, koreys, eron kinofilmlarini, “Tafakkur öyinlari”, “Titanik”, “Şeryurak”, “Yovvoyi oqquşlar”, “Alvon yelkanlar”, “Tabib” yönalişidagi filmlarni rohat qilib, miriqib, qayta-qayta körişni istayman. Har gal körganimda ajib bir gözal qöşiq eşitganday bölaman.

L. Tolstoy, R. Tagor, Jek London, G. Markes, Ç. Aytmatov, Nodar Dumbadze, M. Lermontov, S. Yesenin, Xolid Husayniy asarlarini, şe’rlarini qayta-qayta öqiyman. Özimga yoqqan biror asarni öqigim kelganda topilmasa, özimni qöyarga joy topolmayman. Öqiganda şu asar lazzatidan boşqalarning ham bahramand bölişini, gözalligini his etişini istayman. Kimlarningdir fikrini bilgim, bahslaşgim keladi. Şunda özingga öxşagan “kitobvandlar” davrasiga intilasan, kişi. Ular qayerda? Qişloqda, şaharda, toğda, sahroda. Balki, senga qondoş emas, tengdoş emas. Lekin birlaştiruvçi bir narsa bor. Bu sening, uning dilidan, ongining tub-tubidan joy olgan ma’naviy yaqinlik. Bu yaqinlik yoş, jins tanlamaydi. Bahslaşasan, fikrlaşasan, yengil tortasan. Ilgarilari mumtoz asarlar, kinofilmlar, yangi çiqqan asarlar yuzasidan katta-katta anjumanlar, konferensiyalar, munozaralar tez-tez ötkazib turilar *(ayniqsa, maktablar, oliy öquv dargohlarida)*, keksa-yu yoş birday jalb etilar edi. Hatto talabaligimizda paxta terimiga çiqqanimizda ham oddiygina şiyponda keçqurun terimdan horib-tolib qaytgan talabalar biror şov-şuv bölgan asar yuzasidan qizğin bahsga kirişar edi. Har bir yangi naşr etilgan asarni juda köp kitobxonlar öqir edi. Kitoblar ming-minglab nusxada naşr etilar, lekin şunda ham kitob dökonlaridan topolmay, navbat bilan öqir edik. Keyingi paytlarda bunday ommaviy öqişlar va bahslar susayib ketdi şekilli. Töğri, ayrim yangi naşr etilgan badiiy asarlar taqdimoti odat tusiga kirib qoldi. Lekin taqdimot munozara, bahs, tahlil emas, faqat taqdimot. Reklamaga yaqinroq. Ehtimol, bunga sabab iqtisodiy munosabatlardagi özgarişlardir. Töğri, moddiy boylik juda-juda kerak, buni heç kim inkor eta olmaydi. Bu hayot, davr talabi. Moddiy boylik insonni mutelikdan, qaramlikdan, ehtiyojmandlikdan foriğ etadi. Özingni va közingni töq tutadi. “Beruvçi qöl oluvçi qöldan balandroq”, degan bobolar. Bu örinda mumtoz şoira Nodirabegimning quyidagi maşhur satrlari esga tuşadi:

Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj.

Davlat ham, har bir inson ham iqtisodiy erkin bölişga intiladi. Iqtisodiy qaramlilik hamişa tengsizlik, kamsitiliş, mutelikni keltirib çiqaradi. Çorak asrdan oşdiki, davr, hayot tinimsizlik, işbilarmonlik, tadbirkorlikni talab etadi.

Oldingi bolalar otasining qöliga qarab turgan bölsa, endigi bolalar özining şaxsiy mulki, puli bölişga intilyapti. Ular yangi davr farzandi. Ularning fikrlaşi, dunyoqaraşi yangi davrga moslaşgan. Lekin bu degani ma’naviyatni yuksaltirib, boyitib boriş uçun vaqt, imkoniyat yöq degani emas. Aslida iqtisodiy yetuklik ma’naviy yetuklik uçun imkoniyat boisidir.

Goh mundoq qarasang, badiiy barkamol, yuksak saviyali mumtoz asarlar örniga yengil-yelpi, oldi-qoçdi, öldir-kuydir mazmundagi sayoz “asar”lar-u televizor, internet videolaridagi köpçiligi ma’nisiz, hatto ba’zan uyatsiz filmlar; agar satrlariga e’tibor bersangiz, ayrim ayol xonandalar “yuzim undoq, közim mundoq, qoşim şundoq”, deya husnini köz-köz qilib ta’riflayotgan, qiliçday-qiliçday yigit xonandalar “sanga ölay”, “qoşingga ölay”, “sandan aylanay”, deya sakrayotgan tomoşalarga soatlab vaqt ajratayotgan va şuni ongiga, tuşunçasiga, umuman, ma’naviyatiga “yuksak san’at asari” sifatida muhrlayotgan ba’zi yoşlarimizga goh açinib ham ketasan. Ba’zilari bilan suhbatlaşsang, mumtoz qöşiqçilarni, hatto Botir Zokirovni, Muslim Magomayevni bilmasligidan jiğibiyron bölib, asabiylaşib ketasan. Lekin özingga taskin berasan: “Hali yoş-da, yoşlik – olovlik. Ularga şu tarzdagi asarlar, qöşiqlar yoqadi. Vaqti kelsin, aqli, ongi quyilib, ruhi sokinlikni, vazminlikni qömsab qoladi”.

Yana, eng muhimi, kitob kötarib, ustozma-ustoz yugurib, turli xorijiy tillarni, aniq fanlarni, yangi texnikaviy bilimlarni örganayotgan, biz, keksa avlodning ayrimlari tuşunmagan, tuşunmayotgan kompyuterlar qarşisida yuksak imkoniyatlar, muvaffaqiyatlarga erişayotgan, ilm salohiyati, aql-u zakovati bilan hatto çet ellik olimlarni ham hayratga solayotgan yoşlarni körganingda ğururdan boşing osmonlarga yetguday böladi. Yoki televizor qarşisida, mumtoz qöşiqlar kuylanayotgan konsert zallarida közda yoş bilan Fuzuliy, A. Navoiy, Nodirabegim, Hofiz, Muqimiy, Furqatlar qalamiga mansub qöşiqlarni sel bölib tinglayotgan yigit-qizlarni körganingda, endigina badiiy adabiyot maydoniga kirib kelayotgan yoşlarning teran muşohada-yu barkamollikka mansub asarlarini öqiganingda ham faxrlanib, ğururlanib ketasan, kişi.

Ha, bu yangi avlod, kamçiligi, yutuği bilan tom ma’nodagi yangi avlod. Öylab qolaman. Ular uçun biz mas’ulmizmi yo ular biz uçun mas’ulmi? Yon-atrofimga qarasam, biz, ya’ni iqtisodda nönoqroq keksa avlod moddiy ta’minotini yangi avlod zimmasiga olganga öxşaydi. Lekin faqat moddiy ta’minotdamikin?



Töğri e’tirof etilsa, hamişa yoş, yangi avlod faolroq bölmaganmi?

Uluğ şoir M. Lermontovning maşhur “Borodino” şe’rida keksa jangçi yoş avlodga qarab:

Ha, bizning zamonda mardlar bor edi,
Sizga öxşamasdi, şiddatkor edi.

“Sizlar botir emassiz”, deya gina qiladi.

Lekin öşa davr yoşlaridan biri M. Lermontovning yoniq qalbi yaratgan asarlar çinakam mardona ijod timsoli emasmidi? Axir uning atigi 16-17 yoşida yozgan “Tilançi”, “Iltijo”, “Karomat” va boşqa asarlarini hanuz butun dunyo kitobxonlari hayajon bilan öqiydi.

Yoşlar muammosi qaysi tarixiy davrni olmaylik, oddiy fuqaro va ziyolilar diqqatida bölgan. XXI asrda ham şu muammo. Lekin tarixni özgartiradigan ham, yangi ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy munosabatlarni yuzaga keltiradiganlar ham yoşlar ekanini goh biroz unutib qöyamiz. Ular biroz erka, şöx, zamonaviy urflarga öçroq bölişi mumkin. Ammo şu yoşlar dunyoni özgartiradi. Yangi fikr, yangi ğoya, orzu-intiliş, kuç-ğayrat bilan maydonga çiqadi. XX asrning 60–70-yillaridagi yoşlar ham şunday edi. Lekin ular biroz romantik, xayolparast, özgalar manfaati uçun fidoyiroq bölgan. Bugungi yoşlar esa öz manfaatini unutmaydi. Bu ham bir jihatdan oqilona yöl bölsa kerak. Öz qadrini bilgan özganing ham qadrini biladi. Ularning kiyinişi, goh bizga ğayrioddiy tuyulgan orzu-havasi, qiziqişi biroz ğaşimizga tegişi mumkin. Lekin mana şu ğaşlik pardasi ortida çinakam havas, ökinç yöqmasmikan? Biz ham şivirlab: “Eh, sening yoşliging menda bölsaydi”, demaymizmi? Ayrim yoşlar biz, keksalarga, eski urf-odatlarga biroz kibr bilan mensimay qaraşi mumkin. Axir ular yangi avlod, yangi davr farzandi-da! Agar masalaga töğri köz bilan qarab, oçiq tan oladigan bölsak, özimiz ham yoşligimizda şunday emasmidik? Onamiz qölimizga tugunça berib, biror joyga yetkazişni söraganda, latta tugun kötarişdan uyalganmiz. Çiroyliroq sumka yoki jomadonga solib yurişni istaganmiz. Zamonaviyroq bölişni istaganmiz. Tugun yoki dasturxon kötarib yonma-yon yurgan onamizdan dugonalarimiz körib qolişidan uyalib, bir-ikki qadam orqaroqda yurişga intilganmiz. Bugun biz yayrab dasturxon kötaramiz, ilgarilari qizimiz, hozir nevaralarimiz özini tortibroq yursa, oğrinamiz.

Albatta, zamonaviy, axloq-odob doirasida kiyingan yoşlar hammaga barobar yoqadi. Közingga olovday körinadi. Öta “modniy” kiyinib, yarimyalanğoç holda qöğirçoqday böyangan, odob-u andişani unutib, közingga beibo boqadiganlardan Xudoning özi asrasin. Ular kattalargagina emas, yoşlarning öziga ham begona. Buni tuşunadigan, his etadigan yoşlarimiz köpligining özi bizning baxtimiz, ma’naviy boyligimiz emasmi?

Yuqorida ta’kidlaganimdek, bundan 20–30 yillar oldin 20 yoşga kirsa-da, ota-onasiga boqimanda bölib ötiradigan, “nima ta’minotim bölsa, ota-onam qilib berişi şart”, deydigan yoşlar nisbatan köproq edi. Çunki davr, zamon şuni talab etardi, balki. Faylasuflar ta’birida: “Ijtimoiy şaroit ijtimoiy ongni belgilaydi”. Öşa paytlar, balki, ota-onalarning yaşaş şaroitlari yaxşi bölgandir. Köpçilik oliy öquv yurtlarida öqiydigan farzandlarini imkoni boriça moddiy jihatdan ta’minlaşga intilgan. Bir tomon davlat stipendiyasi, bir tomon öqiş tekin. Yetişmovçilik bölsa, birgina xat yoki telefon: “Ota, salom, pul tamom”. Bobolarimiz “Ilm oliş – igna bilan quduq qaziş”, deb bejiz aytmagan. 3-4 para ma’ruza tinglab, matn yozib, fikrlaşib, bahslaşib, jismonan çarçab qolgan talabalar horib-tolib darsdan keliboq biroz uxlar, dam olar edi. Keyin kitob öqiş, seminar yoziş, hatto kino-teatr, muzeylarga borişga imkon bor edi. Dunyoqaraş kengayib, ma’naviy-ma’rifiy olamning boyişiga, yoş avlodning ham jisman, ham aqlan – har tomonlama kamolotga erişuviga yöl bor edi har holda. Töğri, ularning paxta tergan, ta’tilda talabalarning mehnat lagerida işlagan paytlari ham bölgan.

Hozir-çi? Yoşlarimiz “Talabalik – oltin davrim”, deya faxrlana olarmikan? Iqtisodiy baquvvat oilalarning farzandlariga şaroit bordir, ehtimol. Lekin köpçilik, juda köpçilik talabalar tirikçilik, otning kallasiday şartnoma pulini tölaş, şu bilan birga, iqtisodiy noçor oilasiga imkon boriça yordam beriş harakatida yuradi. Körib turibman, nevaralarim, döstlari, taniş-bilişlarning farzandlari misolida. Ertalab uyquga töymay, hatto nonuştaga ulgurmay, darsga yuguradi. Dars tugagaç, til örganiş kurslariga *(ular ham pulli)* çopadi – axir orzulari olamjahon – oldinda bilim oliş, til örganiş orqali kutilayotgan porloq kelajak bor. Keçqurun esa keçasi soat 12, hatto 3-4 gaça xususiy korxonalarda işlab, tongda burnidan ip tortsa yiqilguday holatda yotoqqa yoki ijara uyga kelişadi. Xöş, biz ulardan yana qanday yuksak ğoyalarni talab qilamiz? Kitob öqişnimi? Ma’naviy barkamolliknimi?

Ne-ne maşaqqatlar bilan öqişni tamomlagan oliy ma’lumotli mutaxassislar esa bitta-yarim baxti çopgani işga joylaşadi, qolgani esa diplomni sandiqqa solib, çet elga mardikorlikka ketişga majbur. Çunki tirikçilik degan yuho bor. Xöş, yana nega biz yoşlarni unday-bunday deb ayblaşimiz kerak? Bolalik zavqini, yoşlik sururini totmagan bölsa. Ham jismoniy, ham moddiy va ma’naviy jihatdan behad toliqqan yoşlarga yuraging açib ketadi, öylasang, yuraging oğriydi.

Şunday bölsa ham, bugungi yoşlar faol. Xudoyim kuç-quvvat, uzoq umr bersin. Özini, oilasini, ota-onasini ta’minlab qöymoqda, oğir mehnat qilsa-da.

Hozirgi yoşlar haqida söz ketganda, şuni aytiş joizki, şolining orasida kurmak bölganidek, adaşgan, hayotni faqat özining kiçik qariçi bilan ölçaydigan, jon koyitmay boyişga intiladigan, aldam-qaldam, tantiq, erkatoylari ham bor. Lekin ma’naviy barkamol, ma’rifatli, axloq-odobi çiroyli yoşlarni körganda faxrlanamiz, ğururlanamiz. Xalqaro miqyosda olganda ham Yevropa, Amerika, Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Xitoy va boşqa köpgina davlatlarning eng nufuzli oliygohlarida öqiyotgan, işlayotgan, sportda, ilm-fanda yutuqqa erişayotgan yoşlarimiz nafaqat ota-onasining, balki butun Özbekistonimizning faxridir.

Ayniqsa, yoşlarimizning keksalarga e’tibori maqtovga loyiq. Kezi kelganda, eslab ötgim keldi. Har gal Toşkent şahriga borganimda *(bu hol faqat Toşkentgagina emas, barça şahar-qişloqlarimizga ham taalluqli)* köçada, metroda, avtobusda yurganimda yoşlarimizning ğamxörligini his qilaman. Metro va avtobusda darhol joy böşatişadi. Köçada manzilga yöl topolmay qolsam, yöl körsatib, hatto manzilgaça olib borib qöyişadi. Bir gal adaşganimda şunday böldiki, universitetga, öqişga şoşib ketayotgan talaba yigit öz yumuşini qöyib, meni ança uzoqdagi metrogaça birga olib borib, hatto vagonga çiqarib qöyib, söng öz yöliga ketdi. Meni, bir qişloqi kampirni. Men bu holatdan ta’sirlanib, şe’r ham yozgan edim. Şe’rdan parça:

Bu qanday gözal xulq, tavoze, ikrom,
Qay baxtli onaning jigarporasi.
Bilimli, odobli, tanti, xuşkalom,
Yaxşi odamlarning yaxşi bolasi.

Beminnat, betama, kibrdan yiroq,
Munavvar yuzlarda mehr şu’lasi.
“Boringizga şukur!” – qalbimda titroq,
Yaxşi odamlarning yaxşi bolasi.

Ha, yoşlarimiz milliy qadriyatlarga sodiq, ma’naviy quvvati baquvvat bölişiga kuçli zamin, ildiz bölişi lozim. Ular bu sodiqlik, bu quvvatni kattalardan oladi albatta. Quş uyasida körganini qilarkan. Biz, kattalar sabr, çidam bilan öşa milliy, insoniy qadriyatlarimizni yoşlarga singdiryapmizmi özi? Biz, kattalarning qölidan tuşmagan kitobni körganida, davralarda ğiybat, miş-miş, qöpol muomala *(hozir xalqaro jamoat muloqot joyi bölgan internet tarmoqlarida ham “ayolman”, “erkakman” demay, ba’zilar şu qadar qöpol, uyat sözlarni işlatyaptiki, bunday xunuk sözlarni aytiş tugul, öylaşga ham qörqadi odam)*, faqat mablağ muammosi emas, badiiy adabiyot, sevimli kasb, ilm-fan, mumtoz qöşiqlar-u kinofilmlar haqidagi bahs-u munozaralarni tinglaganda ular qalbida biz, katta avlodga nisbatan havas uyğonmasmikan? Axir har bir yangi avlod öz ajdodi ildizidan oziqlanadi, kamolga yetadi. Biz, katta avlod ma’naviy mas’ullik bizning zimmamizda ekanini, qilmişimiz, xulq-atvorimiz, muomalamiz, hayot yölimiz bilan hamişa farzandlarimiz uçun ibrat ekanimizni unutmasligimiz lozim.

Sözimni yana özimning “Notaniş talabaga” şe’rimning quyidagi satrlari bilan tugatgim keldi:

Ma’naviy barkamol, jisman barkamol,
“Köz tegmasin!” – köngil istiholasi.
Siz bilan kelajak, porloq istiqbol,
Yaxşi odamlarning yaxşi bolasi.

Olim bölasizmi yoinki arbob,
Siz elning umidi, közin qorasi.
Asli zuvalangiz ziyo-yu gulob,
Yaxşi odamlarning yaxşi bolasi.

Momoxol ELMURODOVA,
Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan xalq maorifi xodimi





DAZIMON JANGI: TURON ÖĞLONLARINING MAHORATI

(838-yilda Rum imperatori qöşinini yenggan sarkarda va otliqlar haqida)

Turkiy xalqlarning janglarda körsatgan jasorati haqida tarix sahifalarida misollar juda köp. Ulardan yorqin birini 838-yilning yozida Kiçik Osiyoda bölib ötgan Dazimon jangi beradi. Bu jangda Rum *(Vizantiya)* imperatori Teofilning qöşini Turondan va unga qöşni turkiy yurtlardan kelgan otliq kamonçilar zarbasiga doş berolmadi. Imperatorning özi esa asirlikdan zörğa qutulib qoldi. Qöşinni ustruşonalik sarkarda Afşin boşqargan edi.

Bu yuriş xalifa Mu’tasimning Rumga qarşi uruşi doirasida bölgan. Qöşinining saralangan qismi Suğd, Farğona, Ustruşona va Şoş jangçilaridan tuzilgan edi.

Afşinning asl ismi Haydar ibn Kovus bölgan. “Afşin” esa Ustruşona hukmdorlarining unvoni edi. Ustruşona Samarqand bilan Farğona oraliğida, Zarafşon va Sirdaryo örtasida joylaşgan qadimiy hudud bölib, bugungi Jizzax va Öratepa atroflarini öz içiga olgan. Haydar şu hududning hukmdorlar sulolasidan çiqqan.

Manbalarda Turon jangçilari haqida gap ketar ekan, xalifalarning amir va qömondonlari orasida birinçilardan bölib ustruşonalik Afşin tilga olinadi. Jizzaxdan ikki farsah, taxminan 12–14 kilometr narida Xudaysar degan maşhur ribot, ya’ni qörğonça bölgan. Uni Afşin qurdirgan va unga yer-mulk ajratib bergan. Bu ribot duşman yurtiga eng yaqin turgan çegara istehkomlaridan biri edi.

Afşin Dazimonga tasodifan kelmagan edi. Undan bir yil oldin u Ozarbayjon toğlarida yigirma yilça davom etgan qözğolonni bostirgan. Bu uruşda uning sarkardalik uslubi yaqqol köringan. Toğ çöqqilarini maxsus kuzatuvçilar egallab, pastdagi qöşinga bayroqlar orqali işora berib turgan. Ta’minot yöli böylab qörğonlarga qöriqçi qöyilib, oziq-ovqat karvonlari kuzatuv bilan yuborilgan. Hal qiluvçi hujumdan oldin Afşin yaradorlar uçun zambil yuklangan xaçirlar va tabiblar tayyorlatgan. Şoşqaloqlik bilan hujumga intilgan qismlarni esa u qat’iy töxtatgan, çunki orqadan pistirmaga tuşib qolişdan ehtiyot bölgan. Tadqiqotçilar bu uruş tavsifida jasoratdan köra puxta rejalaştiriş, ehtiyotkorlik va tartib köproq maqtalganini qayd etadi.

838-yilning yozida Mu’tasim Rum içkarisiga ikki tomondan kirişga qaror qildi. Asosiy qöşinni xalifaning özi janubdan, Tarsus darasi orqali boşlab bordi. Bu Toros toğlaridagi Kilikiya darvozasi deb atalgan dovon bölib, bugun Turkiyaning Mersin viloyatida, Tarsus kentidan şimolda joylaşgan. U qadimdan Örta Yer dengizi sohilidan Kiçik Osiyoning içkarisiga olib boradigan asosiy yöl bölgan.

Xalifa qöşinining old qismini turkiy sarkarda Abu Ja’far Aşnos boşqargan. U Mu’tasimning eng işonçli sarkardalaridan biri edi. Aşnos 830–831-yillarda Rumning bir qal’asini egallagan, keyinroq Misr noibi bölgan.

Ikkinçi qöşin Afşin qömondonligida şarqdan, Malatya tomondan yölga çiqdi. Unga arman knyazlarining qöşini va Malatya amiri ham qöşildi. Turkiy otliqlar bu qöşinning salmoqli qismini taşkil etgan. Ikki qöşin Anqarada uçraşişi kerak edi.

Afşin qöşinining soni manbalarda har xil, 10 mingdan 30 minggaça deb körsatiladi. Uning tezligi haqida esa aniqroq ma’lumot bor. Xalifa Rum imperatori Afşinga qarşi yölga çiqqanini eşitib, unga joyida turib buyruq kutişni tayinlagan maktub yubordi. Maktubni yetkazgan kişiga 10 ming dirham va’da qilindi. Ammo çoparlarning birortasi ham Afşinni topa olmadi. U allaqaçon duşman yurtining çuqur içkarisiga kirib ketgan edi.

Asosiy qöşin yölida ham Turon jangçilari ajralib turdi. Imperator qayerda ekanini biliş uçun Aşnos Amr Farğoniyni 200 otliq bilan razvedkaga yubordi. Nisbasidan körinib turibdiki, Amr Farğonadan edi. Farğonaliklar xalifalik xizmatidagi Turon jangçilarining eng köp sonli qismlaridan biri bölgan.

Amrning otliqlari keçasi Rumning Qurra qal’asi atrofiga yöl oldi. Qal’a boşliği buni oldindan bilib, butun otliqlari bilan toğda pistirma qöydi. Amr pistirmadan xabar topib, yönalişni özgartirdi. Tongda u otliqlarini uç guruhga bölib, har biriga ikkitadan yölboşçi berdi va har tarafga qidiruvga jönatdi. Köp ötmay bir qança rumlik askar va mahalliy aholi qölga olindi. Ulardan biri imperator qöşini daryo ortida, tört farsah narida turganini va şu keça xalifa qöşiniga yana pistirma tayyorlanayotganini aytdi. Amr boşqa guruhlar ham tuzoqqa tuşmasligi uçun ularning ortidan yölboşçilarni yubordi va hammasini qaytarib oldi. Birlaşgan qism köplab asirlar va qimmatli ma’lumot bilan Aşnos huzuriga qaytib keldi.

Asirlardan ma’lum böldiki, imperator Teofil asosiy qöşinini Galis, ya’ni Qizilirmoq daryosi böyida qarindoşiga topşirib, özi saralangan qismlar bilan Afşinga qarşi şimoli-şarqqa yöl olgan edi.

Ikki qöşin 838-yilning yozida töqnaşdi. Jang bölgan joy Rum manbalarida Dazimon tekisligi, aniqroği, undagi Anzen tepaligi deb ataladi. Arab manbalari bu joyni nomlamaydi, voqeani asirlarning sözlari orqali hikoya qiladi. Dazimon tekisligi Yaşilirmoq daryosi böyida, bugungi Turkiyaning Tokat şahri yaqinida joylaşgan.

Jang arafasida Rum imperatori saroyida maslahat böldi. Ba’zi sarkardalar duşmanga tunda hujum qilişni taklif qildi, ammo kunduzgi jang tarafdorlari ustun keldi. Rum mualliflarining yozişiça, imperator qöşini son jihatdan ustun edi.

Jang erta tongda boşlandi va dastlab rumliklar foydasiga keçdi. Afşin qöşinining piyodalari katta talafot bilan çekindi, rumliklar ularni ta’qib qila boşladi. Tuşga yaqin vaziyat keskin özgardi. Turkiy otliqlar qaytib kelib hujumga ötdi va raqib saflarini yorib kirdi. Vizantiya tarixçilari bu burilişni oçiq tan oladi. Ularning yozişiça, çekinayotgan qöşinga turkiy kamonçilar dalda berdi va jang taqdirini ular hal qildi. Rum askarlari tartibsiz qoça boşladi.

Turklarning harb işidagi mahorati öşa davr manbalarida aniq ta’riflangan. Turk çopib ketayotgan ot ustidan istalgan tomonga öq uza oladi. Arab çavandozi bitta öq otgunça u önta öq otadi. Har bir çavandoz özi bilan ikki-uçta kamon va zaxira kamon iplari olib yuradi. Ularning soxta çekinişi zahardek xavfli, çunki turk orqaga qarab ham oldinga qarab otgandek aniq öq uzadi. Dazimonda ham rumlik otliqlar çekinayotgan duşmanni ta’qib qilib, aynan şunday öqlar yomğiriga duç kelgan.

Keçga yaqin imperator bir guruh sarkarda va xizmatkorlari bilan tepalikda qamalda qoldi. Rum mualliflari uning qutulib qolişini ikki sababga boğlaydi: birinçisi, qoronği tuşib atrof köriş uçun qiyin bölib qolgani; ikkinçisi, kuçli yomğir yoğib, turkiy kamonlarning iplari namlanib, sifatga ta’sir qilgani. Şundan keyingina sarkarda Manuil kiçik bir guruh bilan qurşovni yorib, imperatorni olib çiqib ketdi. Tadqiqotçilar fikriça, yomğir bölmaganida, Teofil asir tuşişi ehtimoldan yiroq emas edi. Daryo böyida qoldirilgan asosiy Rum qöşini esa imperator yöqligida intizomni yöqotib, tarqalib ketgan edi.

Bu orada xalifaning asosiy qöşini oğir ahvolga tuşgan edi. Suv va yegulik yetişmas, Afşindan esa heç qanday xabar yöq edi. Bu muammoni ham Turon sarkardasi hal qildi. Aşnos suğdlik Malik ibn Kaydarga hali kuçi bor 500 nafar askarni berib, Anqaradan qoçgan aholi yaşiringan joyni topişni topşirdi.

Asirlardan biri ularni toğlar orasidan boşlab bordi. Tunda qidiruv töxtatildi. Yölboşçining aytişiça, qoronğida toğdan çiqilsa, otlarning toşga urilayotgan tuyoq tovuşini eşitib, odamlar qoçib ketişi mumkin edi. Malik tong otişini kutdi. Ertalab qöşin tuz konlariga yaşiringan aholini topdi va qisqa jangdan söng köplab qöy, eçki va qoramolni qölga kiritdi. Qöşinning ta’minot muammosi yengillaşdi. Asirlar orqali Afşinning Dazimondagi ğalabasi haqida birinçi xabar ham şu yerda ma’lum böldi.

Mağlubiyatdan keyin Anqara aholisi şaharni taşlab ketdi. Uç qöşin Anqarada birlaşib, Amoriyga yöl oldi. Amoriy Rumning Anatolik hududi markazi edi. Imperator Teofilning sulolasi ham şu kent nomi bilan Amoriylar sulolasi deb atalgan, çunki uning otasi Mixail ikkinçi şu yerdan çiqqan. Şahar xarobalari bugun Turkiyaning Afyonqorahisor viloyatidagi Amirtoğ tumanida joylaşgan.

Amoriy ön ikki kunlik qamaldan keyin, 838-yilning avgustida olindi. Zamonaviy tadqiqotçilar uning qulaşini bevosita Dazimondagi mağlubiyat bilan boğlaydi. Mağlubiyat va undan keyingi tartibsizliklar tufayli imperator şaharga yordam bera olmagan.

Tadqiqotçilar Dazimon jangini Rum qöşini bilan Turon jangçilari örtasidagi eng maşhur dastlabki töqnaşuvlardan biri deb hisoblaydi. Öşa paytda Rum askari asosan qiliç, nayza, qalqon va dubulğa bilan qurollangan, kamonçilik esa uning qöşinida ança zaiflaşgan edi. Murakkab tuzilişli kuçli kamonga va ot ustidan öq uziş mahoratiga u qarşi tura olmadi.

Dazimon jangi va 838-yilgi yuriş Turon jangçilarining bir neça fazilatini yaqqol körsatadi. Amr Farğoniyning otryadi pistirmani aylanib ötib, kerakli ma’lumotni olib keldi. Bu razvedka mahoratidir. Afşin qöşini duşman yurtiga xalifaning çoparlari yetib ololmaydigan darajada tez kirib bordi. Bu tezkorlikdir. Otliq kamonçilar mağlubiyat yoqasida turgan jangni ğalabaga aylantirdi. Bu jangovar mahoratdir. Malik ibn Kaydar butun qöşinni oçlikdan qutqardi. Bu ta’minotni taşkil etiş mahoratidir.

Manbalarda 10-yuzyillikda Turon jangçilari haqida şunday yozilgan edi. Ularning qöşinlari barça xalqlar orasida qat’iyati, jur’ati, şijoati va matonati bilan ajralib turadi. Dazimon jangi bu sözlarning börttirilmaganini körsatadi.

Uluğbek OLIMOV,
FA Tarix instituti
katta ilmiy xodimi, tarix fanlari
böyiça falsafa doktori *(PhD)*

MUBORAK YÖL...
ŞON-U ŞARAFLARGA TÖLIQ YÖL



Xurşid Davronning buyuk vatanparvar şayx Najmiddin Kubro haqidagi "Şahidlar şohi" nomli tarixiy-ma'rifiy qissasini har safar varaqlaganimda ilk bor öqib çiqqandek hayajonim ortadi. ***Undan maqolalarimda köp bora foydalanganman. Hozir ham uni çetlab öta olmadim. Qordek soqoli köksini qoplagan uluğ şayx Gurganj qal'asi mudofaasiga qölda nayza, qöyniga qayroqtoşlar solib qurollangan holda maydonda töplangan xaloyiqqa şunday sözlarni dedi: "Ölim yöli muborak yöldur. Vatan uçun ölim topmoq esa muqaddas odatdur. Xudoyim elçisi öz hadislarida: "Vatan sarhadini bir kun himoya qilmoq oltmiş yillik nafl ibodatidan ortiqroqdur", demişlar. Illo, ölimimiz boşqalarga ibrat bölsin".***

Qölida nayza, qöyniga qayroqtoşlar töldirib olgan soç-soqoli oppoq qariya... U jangçi emas edi! U ta'rifi yetti iqlimga maşhur, islom olamining uluğ allomalariga ustozlik qilgan "Şayxi valitaroş" – "Avliyolar yaratuvçi şayx" degan muborak nom egasi edi. Qahramonlikni eng noyob ne'mat bilgan, öz qavmi, öz kulbasi, farzandlarini, yurtni himoya qilişni uluğ saodat bilgan uluğ inson edi.

YONIMIZDAGI ODAMLAR

Ofitserlar Alişer Salimov, Ismatillo Xodjayev, Kamoliddin Toşpulatov, katta serjantlar Ma'rufjon Rajabov, Uluğbek Barnoyev, Elomon Otajonov, serjantlar Otabek Muhammadiyev, Doniyorbek Tojiboyev va yana bir qator ona Vatan uçun jonini fido qilgan aziz öğlonlar nomi yurtdoşlarimizga yaxşi taniş.

Aziz öquvçi, ular hayotligida birortasi bilan ham yuzma-yuz uçraşgan emasman. Ammo bu aziz insonlarning yaqinlari bilan uçraşib, suhbatlaşiş şarafiga muyassar bölganman. Va har biridan insonni uyğoqlikka da'vat etib turguvçi xotiralar bor.

E'tibor berganmisiz, farzandi haqida gapirayotgan ayolning yuz-közlarida ta'rifsiz mehr balqib turadi. Vatan himoyasi yölida jonini bergan qahramon yigitlarning onalari... ular ham şunday mehr bilan söylaydi. Biroq şu mehr barobarida neçoğli berkitişga harakat qilmasinlar, farzand doğining söngsiz azoblari qalb tubidan otilib, kipriklarga qalqib çiqadi. Şunday lahzalarda onalar oldida özimni ayblidek his qilaman, uning kuyuk diliga ozor berdim degan andişa bezovta qiladi. Söz köp... Qani endi, şunday paytda ayolning, onaning yuragiga malham böla oladigan, tasalli böla oladigan SÖZ.

Bir neça yil muqaddam Elomon Otajonovning ota-onasi huzurida böldik. Qahramonning onasi öğlini yod olib, közlarimga tikilganiça kaftini çap köksiga bosib aytgan sözlari hamon quloqlarim ostida jaranglab turadi: "Uni hamma unutsa ham, men heç qaçon unutmayman, uni unutib bölmaydi..."

Ha, uni unutib bölmaydi, ona Özbekiston himoyasini uluğ saodat deb bilgan öğlon unut bölişi mumkinmi?!

Qahramonlar haqidagi xotiralarni tinglar ekanman, rasmlardan tasavvurimga köça boşlaydilar: har biri alpkelbat, qalbi uyğoq va musaffo, hayotsevar, nurga çölğanib borayotgan nurli yigitlar. Beixtiyor Şarqning buyuk allomasi Husayn Voiz Koşifiyning "Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asaridan quyidagilar yodimga keladi: "Futuvvatning uç martabasi bor: avval – saho, ya'ni bir narsasini heç kimdan qizğanmaslik. Ikkinçisi – safo, ya'ni qalbni kibr-u havo, gina-kudurat, qasd-ğazabdan pok tutiş. Uçinçisi – vafo, ya'ni hamma vaqt xalq xizmatida böliş". Ha, bularning barçasi muborak yölning mukarram yölçilarida mujassam edi.

Alişerning onasi... Yurtga Alişerdek alpni, javonmard farzandni tarbiyalab bergan qalbi daryo inson. "Öğlimiz köproq onasiga tortgan edi", degandi otasi.

– Hayotga taşna edi, juda taşna edi, – degan edi Alişer Salimov haqida onasi. – Yaşaşga şoşardi. Futbol jon-u dili edi. Musiqa maktabiga qatnardi, toğlarni sevardi... samimiy, dilkaş edi. Şu sababli ham atrofidan odam arimasdi. Sevgan qizi bor edi. Afsus... Qolgani armon endi...

Doniyorbekning onasi...

– Oradan ança yil ötdi, – deya farzandini xotirlagandi ona. – Vaqt hamma narsaning davosi deydilar. Biroq farzand doğining davosi yöq ekan. Heç narsadan kamçiligim yöq. Faqat... Doniyor degan joyda tökilaman... U mening tönğiçim edi... Heç kimga öxşamagan, benihoya mehribon, ğayratli, tadbirli edi. Men hayotdan, qiyinçiliklardan heç qaçon noligan emasman. Doniyor... bolam... tönğiçim... mittigina gödagim menga dunyolarni va'da qilardi, umidim, suyangan toğim edi. Öğlim bekorga halok bölmadi. U yurt himoyasi uçun yoş jonini qurbon qildi. Uning qisqa umri ibratga aylangan... Onaman-da, baribir armon örtayveradi, göşanga körmadi öğlim...

Uluğbekning onasi... Ma'rifatçi ayol. Farzandi bilan boğliq nurli xotiralari şu qadar köpki... "Bolamning safdoşlarini intiqlik bilan kutaman, göyoki ularning orasida u ham bordek, qöşilib kirib keladigandek. Ona, desalar, yuragim qalqib ketadi..."

"Bolam safdoşlari bilan bir qöşiqni sevib kuylar ekan, – deb yozgan edi Uluğbekning otasi. – Bu qahramon şoir Abdulla Oripovning "Men neçun sevaman Özbekistonni" degan şe'ri ekanini aytib berişdi. Öşanda ham topşiriqni bajariş oldidan boşlarini boşlariga qöygança şu qöşiqni kuylaşibdi... sönggi marta..."

Otaning maktubidan söng men bu şe'rni qaytadan öqib çiqdim. Qahramon şoirimizning har bir satrida qahramon öğlonlarning nurli qalbi, nurli qiyofasini his qildim. Va şu kundan boşlab bu şe'r men uçun yanada qimmatliroq, yanada sevimliroq bölib qolgani rost. Aziz öquvçi, uni siz ham yana bir bor öqing-a.

Ismatillo Xodjayevning onasi... U olamdan ötganiga qadar ham öğlining halok bölganini tan olgisi kelmadi. Şu sababli ham Vatan uçun jonini fido qilgan qahramonning onasi deb yöqlaşlarini istamadi. Buning sabablari köp edi. Eng katta sabab Ismatilloning rafiqasi Mahbuba bölgan deb taxmin qilaman.

Mahbuba. Naqadar gözal ism. Şunday emasmi? Ular sevib-sevilib turmuş qurdilar. Töy taşvişlari bilan ta'til şunday tez ötdiki. Tartib qançalar qat'iy bölişiga qaramasdan ta'tilga yana bir kunni qöşdilar. Şunday lahzalarda vaqt degani uçib ötadi-yey. Kelinçakni çimildiqda qoldirdi. Keyinroq kelib, olib ketaman, deb edi... Keyin kelmadi... olib keldilar sönggi manziliga izzat-ikrom bilan kuzatmoq uçun.

Mahbuba. Aytilişi-da biram nafis. Kelinçak şundan keyin yetti yil qaynonasining yonida böldi. Yaqinlari majburan olib ketmaganlarida yana qança qolardi, noma'lum. Yetti yil-a! Bu yetti kun emas-ku. Kimni kutdi, bilardi-ku... öz közi bilan körib ham...

Aziz zamondoşim, ming yillarki, çimildiq bilan eng gözal insoniy orzu-havaslarimiz boğliq. Öğil yoki qiz ekanidan qat'i nazar, farzandlarimizga nurli, musaffo göşangalar nasib etişini har birimiz orzu qilamiz. Bolalarimizga saodatli kunlarni tilab, mehr bilan göşangalar tayyorlaymiz. Ana şunday saodatli lahzalarda ona Vatan uçun jon fido qilgan qahramon bir öğlonning kelinçagi çimildiqda qolganini, alp yigit yurt himoyasi yölida qurbon bölganini, baxtli lahzalar uçun uning yorqin xotirasi oldida burçli ekanimizni unutmaylik!

Xizmat safari bilan Kitob tumanida bölganimizda Otabek Muhammadiyevning rafiqasi Şahnoza Törayeva bilan uçraşgan edik. Kelganimizni eşitib, işxonasidan ota uyigaça yugurib kelibdi.

– Siz meni yöqlab keldingizmi? – dedi-yu, közlaridan duvullab yoş quyildi. Şoşib qoldim. Ayollarga xos savqi-tabiiy bilan u meni Otabekdan bir xuşxabar keltirgan inson sifatida qabul qilganini his qildim. Ohh, qani endi, şunday bölsa!

– Turmuş qurganimizga bir yildan oşgan bölsa-da, birga yaşagan kunlarimiz uç oydan oşmas ekan, – degandi öşanda armon bilan Şahnoza. – Uni qançalar sevganimni bilsangiz edi...

Buni "Meni yöqlab keldingizmi?" degan söroqdayoq yurakdan his qilganman. U şunday musaffo sevgiga munosib yigit edi. Baxtga sen ham haqlisan, qahramonning tul qolgan kelinçagi...

Azizlar, yonimizda çöng qayğularini qalb qatiga berkitgan şunday insonlar yaşaydi. Vatan uçun jonidan keçgan mardlarimizning onasi, otasi, ayoli, farzandi ular. Çimdimgina mehrimizni ularga ham ulaşaylik, şunda qahramonlarimiz ruhi ham şod bölsa, şoyad.

Sözim oxirida yana uluğ şayx Najmiddin Kubro – "Şahidlar şohi"dan iqtibos keltirişni lozim topdim: "... xonaqoh tun zulmatiga çökkan, faqat eşikdan taşqariga nur saçrab turar – u zulmat qöynidagi olis bir yulduz kabi edi. Ertaga bu eşikdan nur oqmaydi, ertaga bu yulduz porlamaydi..."

Yöq, adaşgan ekanlar, öşa nur, öşa yulduz asrlar qa'ridan qalbimiz, ong-u şuurimizni yoritib hamon porlab keladi. Alişerimiz, Elomonimiz, Uluğbegimiz... bölib nur soçyapti. Millatimizning şoni, şarafi bölib porlayapti.

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

“MENGA ESA HAVO YETMAYDI XOLOS...”



Yarim keçasi uyğonib ketib, ön birinçi qavatdagi uyim derazasidan taşqariga köz solsam, şahar quyuq tuman içra ğarq bölgan ekan. Öşa zahoti miyamda xalqimizning hassos şoiri Muhammad Yusufning mana bu misralari portladi:

“
Kimga qasr yetmas,
Kimga mol-dunyo,
Menga esa havo
Yetmaydi xolos...
”

Sönggi kunlarda atmosfera havosining ifloslanişi kun mavzusiga aylanib qoldi. Atmosferaning ifloslanişi ortidan kelib çiqadigan muammolar va havoning ifloslanişiga sabab bölayotgan omillar haqida yozmagan, gapirmagan odam qolmadi hisob. Ammo muammoning oldini olişga kelganda “takliflar”dan nariga ötilmayapti. Jabrini esa ona tabiat, odamlar va ertangi kunimiz bölgan bolalar tortmoqda.

28-oktabr kuni Toşkent şahrida havo sifati yana özgardi. Poytaxt havosining iflosligi böyiça köplab megapolislarni ortda qoldirib, dunyoda eng iflos şaharlar röyxatidan, binafşarang *(havo ifloslanişining maksimal darajasi)* bilan 3-öringa çiqdi.

Mutaxassislar poytaxtdagi uşbu holat kamida yana 10 kun davom etişini ma’lum qilib, aholining sezgir qatlamidan, xususan bolalar, keksalar, homilador va emizikli ayollar, yurak-qontomir va nafas yöli kasalliklariga çalinganlarga keçqurun va tunda imkon qadar taşqariga çiqmaslik, taşqariga çiqqanda himoya niqobidan foydalaniş va oçiq havoda uzoq qolmaslik, keçqurun va tunda derazalarni oçmaslik tavsiya qilindi.

Sönggi yillarda yurtimizda ayniqsa kuz-qiş mavsumida havoning ifloslaniş darajasi oşib ketayotgani bois holatning oldini oliş böyiça bir qança çoralar körildi. Issiqxonalarda reydlar ötkazilib, kömir, mazut va avtomobil ballonlarini yoqayotgan “parnik”çilar faoliyati töxtatildi. Havoga zararli gaz çiqarayotgan turli zavod va işlab çiqariş fabrikalari nazoratdan ötkazilib, qoidalarni buzganlarga çoralar körildi. Havo sifatiga salbiy ta’sir körsatayotgan quriliş obyektlari faoliyati nazoratga olindi.

Mutasaddilarning havo sifatini yaxşilaş böyiça amaliy harakatlari natijasida joriy yilda poytaxt havosining ifloslaniş darajasi deyarli kuzatilmadi. Kuzatilişi deyarli odatiy holga aylanib qolgan çang böronlari ham joriy yilda köriniş bermadi. Ammo nega yana Özbekiston poytaxti dunyoda havosi eng iflos şaharlar röyxatidan, binafşarang bilan 3-öringa çiqdi? Yana nega eski holatlar takrorlanmoqda?

– Havo sifati yomonlaşişiga haroratning pasayişi, juda kuçsiz şamol hamda mahalliy va qöşni hududlarda şakllangan havo massalarining şahar atrofida töplanişi sabab böldi, – deydi iqlimşunos olim Erkin Abdulahatov. – Uşbu şaroitlar ifloslantiruvçi moddalar tarqalişini çeklab, mahalliy atmosfera taşlanmalarining yer yuzasiga yaqin qatlamda saqlanib qolişiga olib keldi.

Şuningdek, 2026-yil oktabr oyining sönggi ön kunligida Markaziy Osiyoda antitsiklon ta’siri, şamolning susayişi, yoğingarçilikning yöqligi va harorat inversiyasi kuzatildi. Bunday şaroitda yer yuzasiga yaqin havo yuqoriga kötarilib, erkin almaşina olmaydi. Natijada transport, sanoat, energetika va boşqa manbalardan çiqadigan ifloslantiruvçi moddalar, şuningdek tabiiy çang atmosferaning quyi qatlamlarida töplanib qoladi.

Tahlillarga köra, havo ifloslanişi keçasi kuçayib, sönggi 30 kun davomida örtaça AQI soat 23:00 da 119 ga yetgan, soat 17:00 da esa 82 ni taşkil qilgan. Bu farq havo almaşinuvi va atmosferaning turğunligi ifloslaniş darajasiga jiddiy ta’sir körsatişini anglatadi.

93 FOIZ BOLALAR IFLOSLANGAN HAVODAN NAFAS OLADI

Havo ifloslanişidan eng köp jabr çekuvçilar bolalar hisoblanadi. Özbekistondagi oxirgi havo ifloslanişi hodisalari sabab bolalarning allergik kasalliklarga çaliniş holatlari ançayin köpaygan. Havoda zararli moddalar miqdori oşib ketgan kunlari bolalar uyda qamalib ötirişga majbur. Afsuski, havo ifloslanişidan kattalarga qaraganda köproq bolalar jabr köradi. Doimiy ifloslangan havodan nafas oliş ularning soğliğida qisqa va uzoq muddatda turli xavflarni keltirib çiqarişi mumkin. Bolalar ösuvçan organizm bölgani uçun ularning hali rivojlaniş jarayonida bölgan miya va öpkalari zararli havoga nisbatan ta’sirçan böladi. Bolalarning immun tizimi ham kattalarnikiga nisbatan kuçsizroq, bu esa ularning turli virus, bakteriya va mikroblarga nisbatan ta’sirçan bölişini anglatadi. Qolaversa, bolalar kattalarga qaraganda köproq nafas oladi *(köp hollarda oğzi bilan ham)*. Bu holat ularning zaharli moddalarni köproq yutişlariga sabab böladi. Yana bir tarafi – bolalarning böylari hali uzun bölmasligida. Ular yerga nisbatan yaqinroq yuradi. Havodagi zararli moddalarning konsentratsiyasi ham yerning pastki qismida yuqoriroq darajada böladi.



– Bugungi kunda kuzatilayotgan holat barçaga birdek *(zararli)* ta’sir körsatmoqda, – deydi tibbiyot fanlari böyiça falsafa doktori *(PhD)* Şerzod Muxtorov. – Ayniqsa, nafas yöllari kasalliklari, surunkali bronxit, rinit va bronxial astma bilan oğrigan, şuningdek turli allergik kasalliklarga moyilligi bölgan bemorlar bu holatdan köproq aziyat çekmoqda.

Sönggi yillarga nisbatan allergik kasalliklar bilan murojaat qilayotgan bemorlar soni sezilarli darajada ortgan. Ayni kunlarda ham bolalar va organizmi taşqi ta’sirlarga sezgir bölgan aholi vakillari orasida allergik kasalliklar bilan boğliq murojaatlar köpaymoqda.

Bundan taşqari, nafaqat allergik, balki infeksion-allergik holatlar, ya’ni xalq tili bilan aytganda, şamollaş va allergiya bir vaqtning özida keçayotgan bemorlar soni ham ortib bormoqda. Kasallikning uşbu aralaş körinişi asosan bolalar va kattalarda subfebril harorat, ya’ni tana haroratining 37,1-38,1 darajagaça kötarilişi bilan namoyon bölmoqda. Şuningdek, bemorlarda tomoq qizarişi va qiçişişi, yötal, nafas siqişi, oq balğam ajralişi, burun bitişi yoki oqişi, köz yoşlanişi kabi belgilar kuzatilmoqda. Ayrim hollarda nafas yetişmovçiligi hamda kökrak qafasida sezilar-sezilmas qisuvçi oğriqlar ham qayd etilmoqda.

Bugungi kunda poytaxtimizda kuzatilayotgan havoning ifloslanişi oqibatida yuqorida keltirilgan kasalliklarning belgilarini sezgan hamyurtlarimiz şifokorlarga murojaat qilib, kerakli tavsiyalarni olişlari va öz soğliğiga e’tiborliroq bölişlari lozim. Sababi oddiy şamollaş deb öylaganimiz gibrid, ya’ni infeksion allergiya bölib çiqmoqda. Bu esa şunday kasallik bilan oğrigan bemorlar, ayniqsa yoş bolalarning soğliğiga jiddiy ta’sir körsatadi.

JSSTning ma’lumotiga köra, dunyodagi 15 yoşgaça bölgan bolalarning 93 foizi ifloslangan havodan nafas oladi. Sönggi paytlarda kuzatilayotgan havo ifloslanişi bolalarning soğliğida qanday aks etayotgani haqida biliş uçun onalarning fikrlari bilan qiziqdik:

– 2021-yilning noyabrida Toşkentda kuçli çang böroni bölgandan buyon qizimda allergiya paydo böldi. Şamollamagan bölsa ham, burni qiçişadi, bitadi. Kuzatganman, allergiyasi ovqat bilan emas, havo bilan boğliq. Kiçik farzandim esa ob-havoning ifloslik darajasi oşganda uxlaşi qiyinlaşadi, uyqusida köp bezovta böladi. Bolalarim şu yoşigaça dori-darmon nimaligini bilmasdi. Havoning sifati buzilişi bilan dorilarini tayyorlab turaman. Kiçkina farzandimni esa tunda uxlatolmayman. Özimning ham boşim köp oğriydigan bölib qolgan, – deydi qaşqadaryolik Surayyo ismli ayol.

– Poytaxtga kelganimizga 2 oy böldi. Allergiyam qözğadi. Özim ham, 10 oylik bolam ham havo sabab qiynalyapmiz. Iflos havo hammaga birday ta’sir qilyapti. Respirator kasalliklar ham şuning uçun köpayyapti deb öylayman. Katta farzandimda ham allergiya kuzatilyapti, har kuni burni bitgan holda uyğonadi. Çarçoq, uyquga töymaslik, allergik yötal bezovta qilyapti. Turmuş örtoğimning ham qattiq çarçoq va boş oğriğidan şikoyati köpaygan, – deydi Sumbula ismli ayol.

Onalarning aytişiça, ular bolalarini maşinalar qatnaydigan yöllardan uzoqroqda sayr qildirişga harakat qilyapti. Havo iflosligi darajasi yuqori bölgan kunlarda esa köçaga çiqişning ham imkoni bölmayapti. Ba’zilar havo sifatini tozalab beruvçi texnikalar xarid qilgan. Ammo bularning qançalik foydasi tegayotgani noma’lum. Bolalarimiz esa tobora ifloslanib borayotgan havodan nafas olib, ulğaymoqda. Biz esa ularni qiynayotgan turli yangiça kasalliklardan himoya qilişga harakat qilmoqdamiz. Ha, faqat özimiz. Qolganlar-çi? Qolganlar nima qilmoqda?

“MUM” TIŞLAGAN TIZIM

Qiziği, poytaxt havosi bir neça kundan buyon yuqori uçlikdan tuşmayotgan, yoş bolalar bronxial astma allergik kasalliklar bilan qiynalayotgan bir vaqtda Soğliqni saqlaş taşkiloti “mum” tişlab ötirgandek.

Havo ifloslanişi inson salomatligi uçun xavfli darajaga yetganda nima qiliş kerakligi haqida na bir videorolik, na bir tavsiya beriş bilan band. Töğri, havo ifloslanayotgani bot-bot aytilyapti, salomatlikka salbiy ta’siri borligi haqida maqolalar turli OAVlarda e’lon qilinyapti. Biroq vazifasi jamoat soğliğini saqlaş, aholining tibbiy savodxonligini oşiriş, umr sifati va uzoq davom etişini oşiriş bölgan butun boşli vazirlikning rasmiy saytida havo ifloslanişidan himoyalaniş böyiça bironta ham tavsiya yöq. Telegram kanalida esa poytaxtimizda havo sifati yomonlaşgandan buyon bir marotaba 30-oktabr sanasida çangli havodan qanday himoyalaniş böyiça tavsiya berilgan. E’tibor bering, holat boşlangandan buyon bir marotaba. Aslida esa bunday tavsiyalar har kuni nafaqat vazirlik saytida, balki boşqa kanallarda ham tinimsiz berib borilişi kerak. Buni esa vazirlikning taşabbusi bilan amalga oşiriş kerak. Vazirlikning Telegram kanalda berilgan tavsiyasi nazarimda xuddiki yöqdan köra bor qabilida qilingan işdek.

Ifloslangan havoning salomatlikka zarari, bunday vaziyatlarda nima qiliş kerakligi haqida gapiriş göyo mas’ullarga taqiqlangandek. Yoki Soğliqni saqlaş vazirligining bu “mayda işlar”ga vaqti yöqmikan?! Havoning ifloslaniş darajasi ortib ketgan vaqtlarda bolalarni qay tarzda maksimal asraşimiz mumkinligi haqida mutaxassislar çiqişlari, tavsiyaviy materiallar, videoroliklar e’lon qilinişi kerak emasmi? Umid qilamizki, köpçilikni öylantirayotgan muammolar tegişli taşkilot va idoralarga yetib boradi. Ular ham “uyqudan uyğonib”, zimmasidagi vazifalarni bajarişga kirişadi.

NIMA QILIŞ KERAK?

Havo ifloslanişining oldini oliş uçun örmonzorlarni, yaşillikni köpaytiriş kerak. Töğri, har yili kuz va bahor mavsumida hududlar böylab daraxtlar ekilmoqda deyişingiz mumkin. Ammo ekilayotgan köçatlarning hammasi ham amal olib ketmayapti. Ötgan kuz va qiş mavsumida ekilgan daraxt köçatlarining köp joylarda qurib qolganining guvohi böldim. Ularning amal olişiga, bir tomondan, iqlim özgarişi, issiq havo tösqinlik qilayotgan bölsa, bir tomondan, mas’ullarning e’tiborsizligi sabab bölmoqda.

Ma’lumotlarga köra, yurtimizda har daqiqada 9 kvadrat metr yer maydoni çöllanişiga va çang böronlari yuzaga kelişiga, atmosfera havosining zararlanişiga olib kelmoqda. Tasavvur qilyapsizmi, har daqiqada! Bu esa, öz navbatida, yaşil hududlarni köpaytiriş va borlarini asraş har doimgidan ham dolzarb ekanining isbotidir.

Şaharda daraxtlarni, yaşillikni köpaytiriş zaharli gazlarni, havodagi çang miqdorini kamaytirişga va şovqinni yutişga, öziga xos mikroiqlim yaratişga xizmat qiladi. Bundan taşqari, yaşil hududlar şahar aholisining ruhiyatiga ta’sir qiladi. Odamlar yaşillik bilan qoplangan hududlarda sayr qilib stresslardan xoli böladi, buning natijasida ular estetik zavq oladi, kayfiyati kötariladi. Şuningdek, şaharda yaşil hududlarning köpayişi mikroiqlimni yaxşilaydi, tuproqni, binolarning sirtini, yöl sirtini haddan taşqari qizib ketişdan himoya qiladi. Yozda yaşillik bilan öralgan yerlarda havo harorati past va havoning musaffoligi yuqori böladi.

Misol uçun, şahardan qişloqqa borsangiz, havosi odamga özgaça kayfiyat bağişlaydi. Çarçab kelib, ikki soat dam olsangiz ham, çarçoqlaringiz çiqib ketadi. Qisqa vaqt içida uyquga töyasiz. Çunki qişloqda havo musaffo, kislorod köp.

Şaharda esa 9 soatlab uxlasangiz ham, baribir çarçoq va lanjlik tarqamaydi. Çunki uyquda ham ana şu zaharli havodan nafas olamiz.

Xulosa qilib aytganda, toza havo uçun hammamiz, jamiyatning har bir a’zosi, qolaversa, har bir oila kuraşişi şart. Zero ekologik muammolarga qarşi turiş nafaqat salomatligimiz, balki farzandlarimiz kelajagi uçun ham daxldor bölgan dolzarb masaladir.

Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”



QAÇON



TAHDIDNI ANGLAY SIZ MIZ?

Harbiy qismda kun odatdagidek boşlanadi: saf, buyruq, maşğulot, xizmat vazifalari. Taşqaridan qaraganda bu yerda tartib ham, intizom ham, nazorat ham yetarli. Göyo yot ğoya yoki destruktiv ta’sir uçun heç qanday böşliq yöqdek.

Ammo zamonaviy tahdidlarning murakkabligi şundaki, ular har doim ham oçiq körinişda kelmaydi.

Tasavvur qiling: yoş harbiy xizmatçi xizmatdan böş vaqtida telefonini qöliga oldi. Ijtimoiy tarmoq algoritmi unga avval bir keskin videoni, keyin şunga öxşaş yana bir neçtasini tavsiya qildi. Bir qaraşda, oddiy “fikr” bölib köringan materiallar vaqt ötişi bilan “hamma aybdor”, “faqat biz haqmiz”, “buni faqat kuç bilan özgartiriş mumkin” degan ğoyalarni takrorlay boşladi.

Agar ayni paytda bu harbiy xizmatçining oilaviy muammosi, jamoada tuşunilmaslik hissi yoki içki noroziligi ham bölsa-çi? Ana şunda oddiy axborot insonning ruhiy holatidagi zaif nuqta bilan tutaşişi mumkin.

Radikallaşuvning eng xavfli jihati ham şunda: u köpinça birdaniga boşlanmaydi. Ba’zan u bir video, bir suhbat, bir alam yoki javobsiz qolgan bir savoldan boşlanadi.

Şu sababli bugun davlat va harbiy xavfsizlik haqida gapirganda faqat qurol-yaroğ, texnika va çegaralarni emas, inson ongini ham himoya qiliş haqida öylaşimiz kerak.

RADIKAL ĞOYA BILAN EKSTREMIZMNI ADAŞTIRMASLIK KERAK

Masalaning ilmiy jihatdan töğri qöyilişi, avvalo, tuşunçalarning çegarasini aniq belgilaşni talab qiladi.

Radikal ğoya – avvalo, dunyoqaraş darajasidagi holat. Inson jamiyatdagi muayyan tartib yoki jarayonni keskin tanqid qilişi, tub özgariş tarafdori bölişi mumkin. Bunday qaraşning özi hali zöravonlik yoki jinoyat degani emas.

Ekstremizm esa boşqa bosqiçdir. Özbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarşi kuraşiş töğrisida”gi qonunida ekstremizm ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlaştiriş, konstitutsiyaviy tuzumni zörlik bilan özgartiriş, hokimiyatni zörlik bilan egallaş yoki milliy, irqiy, etnik va diniy adovat qözğatişga qaratilgan aşaddiy harakatlar bilan boğlangan.

Demak, har qanday keskin fikrni ekstremizm deb baholaş ham ilmiy, ham huquqiy jihatdan notöğri. Asosiy xavf fikrning mavjudligida emas, zöravonlikni oqlaş, qonuniy tartibni inkor etiş, boşqalarni duşman sifatida köriş va destruktiv harakatni “yeçim” deb qabul qilişda boşlanadi.

Dastlabki ilmiy materialda ham radikal ğoya, ekstremizm va terrorizm ğoya – harakat – zöravonlik darajalari sifatida farqlanadi. Bu farq profilaktika uçun nihoyatda muhim. Çunki vazifa fikrni ta’qib qiliş emas, zöravonlikka yetaklaydigan jarayonning oldini olişdir.

TAHDID FAQAT TAŞQARIDAN KELMAYDI

Zamonaviy xavfsizlikşunoslikda “insider threat” – “tizim içidagi xavf” tuşunçasi mavjud. Uning mohiyati oddiy: taşkilotga tahdid faqat taşqaridan emas, balki tizim içidagi şaxsning noqonuniy, destruktiv yoki zöravon xatti-harakati orqali ham yuzaga kelişi mumkin.

Xorijiy harbiy tizimlarda bu masala alohida örganilmoqda. AQŞ Mudofaa vazirligi doirasidagi tajribada ekstremistik faoliyatni aniqlaş, kadrlarni saralaş, ta’lim trening hamda “insider threat” dasturlarini takomillaştiriş alohida yönalişlar sifatida körilgan.

RAND tadqiqotçilari ham harbiy muhitdagi ekstremizmni örganişda “insider threat” dasturlari, kadrlarni xizmatga qabul qiliş bosqiçidagi tekşiruv va xizmat davomida xavfli xatti-harakatlarni erta aniqlaş mexanizmlariga e’tibor qaratiş zarurligini qayd etadi. Şu bilan birga, tadqiqotçilar harbiy muhitdagi ekstremizm haqida mavjud ilmiy bilimlar hali çeklanganini ham alohida ta’kidlaydi.

Bu xulosalarning Özbekiston şaroitidagi ahamiyati şundaki, biz xorijiy modelni köçirishimiz emas, erta profilaktika tamoyilining özini hisobga olişimiz kerak. Ya’ni savol “Muammo sodir bölgaç nima qilamiz?” emas, “Muammo sodir bölişidan oldin nimani köra olişimiz kerak?” bölişi lozim.

RADIKALLAŞUV – BIR KUNLIK JARAYON EMAS

Xalqaro tadqiqotlarda ham radikallaşuvga bir xil sabab bilan tuşuntiriladigan hodisa sifatida qaralmaydi.

University of Maryland huzuridagi START markazining harbiy tajribaga ega şaxslar örtasidagi radikallaşuvni örgangan tadqiqoti individual xavf omillarini, ijtimoiy aloqalarni va harbiy xizmat bilan boğliq ayrim omillarni kompleks örganiş zarurligini körsatadi. Tadqiqot mualliflari profilaktikada faqat jazolovçi emas, oldini oluvçi yondaşuvlarga ham e’tibor qaratadi.

Bu yerda juda muhim bir jihat bor: radikallaşuvning yagona “portreti” mavjud emas. Odamovi bölib qolgan har bir inson radikallaşmagan. Keskin fikr bildirgan har bir xizmatçi ekstremist emas. Dinga qiziqqan yoki siyosiy voqealar haqida fikr bildirgan inson ham avtomatik ravişda xavf guruhiga kirmaydi.

Aks holda, profilaktika gumon va yorliq yopiştirişga aylanadi. Professional yondaşuv esa alohida belgiga emas, xatti-harakatdagi özgarişlar majmuasiga va ularning kontekstiga qaraydi.

Masalan, insonning jamoadan keskin uzoqlaşişi, zöravonlikni muntazam ravişda oqlay boşlaşi, atrofdagilarni faqat “biz” va “ular”ga bölişi, muayyan destruktiv guruhlarning harakatlarini qöllab-quvvatlaşga ötişi boşqa omillar bilan birga kuzatilsa, bu e’tibor talab qilişi mumkin. Lekin bunday holatda ham birinçi qadam – hukm çiqariş emas. Birinçi qadam – inson bilan işlaş.

BIR SUHBAT BA’ZAN ÖNLAB MA’RUZADAN KUÇLI

Harbiy jamoada komandir faqat buyruq beruvçi emas. U odamlar bilan işlovçi rahbar hamdir.

Ba’zan xizmatçi avvalgidek emasligini birinçi bölib uning yonidagi safdoşi sezadi. Oldin jamoaga qöşilib yurgan odam birdan çetlaşadi. Oldin vazmin bölgan xizmatçi doimiy asabiylaşadi. Yoki unda hayot, jamiyat, xizmatga nisbatan keskin va mutlaq inkor kayfiyati kuçayadi.

Bunday paytda “özidan ötib ketadi” deb qaraş eng oson yöl. Ammo eng foydali yöl – suhbat.

“Nima böldi?”, “Qanday muammo bor?”, “Yordam kerakmi?” degan uçta oddiy savol ayrim hollarda juda katta ahamiyat kasb etişi mumkin.

Çunki insonni destruktiv ğoya tomon itarayotgan omil ba’zan mafkura emas, balki yolğizlik, ranjiş, adolatsizlik hissi yoki yordam söray olmaslik bölişi mumkin.

Erta aniqlaş → individual muloqot → professional baholaş → zarur yordam → axborot savodxonligi → jamoaga reintegratsiya → kuzatuv va qöllab-quvvatlaş.

Bu yondaşuvning markazida “gumondor” emas – inson turadi.

TELEFON – ÇÖNTAKDAGI AXBOROT MAYDONI

Bugun radikal tarğibot uçun odamni qayerdadir yaşirin yiğilişga çaqiriş şart emas. Uning telefoni yetarli.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvçi qaysi materialni uzoqroq körganini, nimaga munosabat bildirganini, qaysi mavzuga qiziqişini hisobga olib, unga şunga öxşaş kontentni tobora köproq tavsiya qilişi mumkin. Natijada inson asta-sekin faqat bitta qaraş aks etadigan axborot pufagi içida qolişi ehtimoli tuğiladi.

Şu bois bugungi harbiy xizmatçi uçun media savodxonlik qöşimça bilim emas. Uning kasbiy va mafkuraviy barqarorligining bir qismidir.

KIM AYTYAPTI? NEGA AYTYAPTI? DALILI QAYERDA?

Yana bir savolni ham qöşiş mumkin: “Menda aynan qaysi hissiyotni

uyğotişga harakat qilişyapti?” Qörquvmi? Ğazabmi? Nafratmi? Adolatsizlik hissimi?

Çunki manipulyatsiya köpinça insonning mantiqidan oldin uning hissiyotiga murojaat qiladi. Şu sababli kognitiv xavfsizlik, raqamli gigiyena va tanqidiy fikrlaş profilaktikaning muhim qismlaridan biridir.

“MA’RUZA ÖQILDI” – “MUAMMO HAL BÖLDI” DEGANI EMAS

Ma’naviy-ma’rifiy işlarning sonini köpaytirişning özi ularning samaradorligini kafolatlamaydi. Bir soat ma’ruzaçi gapirib, auditoriya tingladi. Rejada tadbir bajarildi. Ammo savol: harbiy xizmatçining tafakkurida nima özgardi?

Agar javob bölmasa, metodni qayta körib çiqiş kerak. Bugungi harbiy auditoriyaga faqat tayyor xulosa beriş emas, uni xulosa çiqarişga örgatiş muhim.

Masalan, maşğulotda manipulyativ axborot namunasi olinadi. Harbiy xizmatçilarga: “Bu material nimaga undayapti?”, “Qaysi jumla hissiyotga ta’sir qilyapti?”, “Unda fakt bilan fikr ajratilganmi?”, “Boşqa manbalarda bu voqea qanday yoritilgan?” degan savollar beriladi.

Ana şunda odamga “Bunga işonma!” deyilmaydi. Çunki u nega işonmaslik kerakligini özi anglaydi. Tanqidiy tafakkurning kuçi ham şunda.

MILLIY TAJRIBANING MUHIM TAYANÇI – VATANPARVARLIK

Özbekistonda uşbu masalaning muhim institutsional tayançlaridan biri – 2023–2027-yillarda yoşlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalaş konsepsiyasi.

Unda globallaşuv, qurolli mojarolar, yangi tahdid va xatarlar şaroitida yoşlarni vatanparvarlik va yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalaş dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Konsepsiyada harbiy-vatanparvarlik işlari “Vatan – uluğ, burç – muqaddas!” ğoyasi asosida taşkil etilişi, yoşlarda qat’iy fikr va e’tiqodni şakllantiriş vazifasi qöyilgan.

Bu yerda “qat’iy fikr” deganda yopiq yoki murosasiz dunyoqaraş emas, aksinça Vatan, qonun, tinçlik, burç va mas’uliyatga tayangan e’tiqod nazarda tutiladi. Çunki haqiqiy vatanparvarlik insonni boşqa fikrdan qörqişga emas, öz qadriyatlariga ongli ravişda tayanişga örgatadi.

Harbiy xizmatçi uçun Vatanga sadoqat har kuni davom etadi: xizmat vazifasini halol bajarişda, safdoşi şa’nini hurmat qilişda, davlat sirini saqlaşda, qonunga rioya qilişda, xalq manfaatini şaxsiy manfaatdan ustun qöyişda.

Harbiy qasamyodning haqiqiy kuçi ham uning matnida emas, harbiy xizmatçining kundalik xulqida namoyon böladi.

IJTIMOIY ADOLAT – MAFKURAVIY BARQARORLIK OMILI

Harbiy xizmatçining uy-joyi, oilasi, xizmat şaroiti yoki rahbariyat bilan munosabati ekstremizmga qarşi profilaktikaga nima aloqasi bor, degan savol tuğilişi mumkin. Aloqasi bor.

Çunki insonning tizimga bölgan işonçi uning kundalik tajribasida şakllanadi. Unga adolatli munosabatda bölinayotganini his qilsa – işonç mustahkamlanadi. Muammosi tinglansa – daxldorlik ortadi. Oilasi himoyalanganini körsa – kelajakka işonç paydo böladi.

Aksinça, uzoq davom etadigan begonalaşuv yoki umidsizlik ayrim şaroitlarda turli manipulyatorlarga insonning noroziligidan foydalaniş imkonini berişi mumkin.

Şuning uçun ijtimoiy himoya faqat maişiy yoki iqtisodiy masala emas. U xavfsizlik va institutsional işonç masalasi hamdir.

PROFILAKTIKANING YETTI TAYANÇI

• Birinçidan, kadrlarni professional va psixologik jihatdan puxta saralaş.

• Ikkinçidan, harbiy jamoada soğlom ma’naviy-ruhiy muhit va adolat tamoyilini mustahkamlaş.

• Uçinçidan, harbiy xizmatçilar bilan individual işlaş va muammolarni erta aniqlaş.

• Törtinçidan, media savodxonlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantiriş.

• Beşinçidan, psixologik yordamning işonçli va qulay mexanizmlarini şakllantiriş.

• Oltinçidan, harbiy xizmatçi va uning oilasining ijtimoiy himoyasini mustahkamlaş.

• Yettinçidan, vatanparvarlik, harbiy qasamyod va Vatan oldidagi burçni insonning içki e’tiqodiga aylantiradigan ma’naviy-ma’rifiy muhit yaratiş.

Bu tizimning biror böğini işlamasa, profilaktikaning samarasi ham pasayadi.

ENG MUHIM ÇEGARA – INSON ONGI

Zamonaviy xavfsizlik bizga bir haqiqatni tobora ravşan körsatmoqda: tahdid har doim ham çegaradan qurol bilan ötmaydi. Ba’zan u ekran orqali kiradi. Ba’zan yolğon axborot körinişida. Ba’zan esa insonning içidagi alam va norozilikdan foydalanadi.

Şuning uçun radikallaşuvning oldini oliş faqat taqiq, nazorat yoki jazo çoralariga tayanmasligi kerak. Nazorat zarur. Qonun zarur. Intizom zarur. Ammo insonning işonçi, bilimi va içki e’tiqodi bölmasa, ularning özi yetarli emas.

Harbiy xavfsizlikning eng muhim tayançlaridan biri kimningdir aytganiga kör-körona ergaşmaydigan, axborotni tekşiradigan, savol beradigan, dalil izlaydigan, öz Vataniga ongli ravişda sodiq bölgan harbiy xizmatçidir.

Şuning uçun radikallaşuvga qarşi eng samarali profilaktika formulasi oddiy: insonni vaqtida köriş, vaqtida eşitiş va vaqtida qöllab-quvvatlaş.

Zero qal’ani devor himoya qilsa, Vatan xavfsizligini uni anglab, sevib va ongli ravişda himoya qiladigan inson mustahkamlaydi.

Maftuna NAMOZOVA,
f.f.f.d. *(PhD)*

TARIXIY YUKSALIŞ



QILIÇDAN TÖPGAÇA: AMIR NASRULLOXONNING HARBIY ISLOHOTLARI

Jasur va dovyurak kişi bölgani bois “Bahodir, Botir” unvonlarini olgan, biroq şavqatsizligi uçun xalq orasida “qassob” laqabini olgan Amir Haydarning uçinçi öğli Nasrulloxon 1806-yil 1-iyunda tuğilgan.

Amir Haydar öğli Nasrullohni 15 yoşidan davlat boşqaruviga jalb qilgan. U 1821-yildan otasi hamda birodarlari Amir Husayn *(1826-yil)* va Amir Umar *(1826–1827-yillar)* hukmronligi davrida Qarshi viloyatida hokimlik qilgan. Amir Nasrulloh nihoyatda qat’iyatli shaxs bölgani bois otasi uni barcha urushlarga özi bilan olib borgan. Ba’zi hollarda uning özini yuborgan. Amir Nasrulloxon yoshligidanoq otasining harbiy va davlat boshqaruviga oid sirlaridan xabardor bölgan. Amir Haydar boshqa öğillariga nisbatan hamisha uni özига yaqin tutgan.

19-yuzyillikning 30-yillarida Buxoro amirligida 20 ming atrofida askar bölgan. Ma’lumotlarga qaraganda, harbiy zaruratga köra, Buxoro viloyatidan 12 000, Samarqanddan 2500, Qarşidan 2500, Maymanadan 1 000, Qoraköldan 1 000 nafar askar yetkazib berilgan. Qöşinning asosiy qismi nayza va qiliçlar bilan qurollangan bölsa, aksar qismidagina pilta miltiq bölgan.

Amir Nasrulloxon hukmronligi davri *(1826–1860-yillar)*da mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va ma’muriy sohalarda qator islohotlar amalga oşirilgan.

Xorijdan jalb etilgan harbiy mutaxassislar zamonaviy qurol-yaroğlar tayyorlaş va foydalaniş sirlarini örgatgan. Birgina misol, 1834-yili Erondan kelgan Abdusamad Tabriziy askarlarga yevropaça uslubdagi harbiy tartibni örgatgan va 1837-yili maxsus töpçilar qöşinini tuzgan. Şuningdek, keyinçalik Buxoroda töp va zambaraklar quyiş uçun alohida töpxona ham qurilgan. Ikki yuz kişidan iborat ingliz harbiy andozasidagi maxsus askariy guruh tuzilgan. Amir Nasrullohning özига xos maxsus gvardiyasi vazifasini ötagan uşbu guruhga eroniy qullar ham kiritilgan va unga Abdusamad Tabriziy boşçilik qilgan. Abdusamad Tabriziy hattoki Amir Nasrullohning harbiy maslahatçisi va noibi lavozimida faoliyat yuritgan.

Amir Nasrulloxon 1837-yilda harbiy sohada islohotlar ötkazib, har biri 800 kişidan iborat 50 ta sarboz buluklari va 250 kişilik töpçi guruhini taşkil qilgan. Muntazam piyoda qöşini sonini 40 ming kişiga yetkazgan. 2 000 ga yaqin otryad nayzali miltiq, qiliç, töpponça bilan qurollangan. Qöşin tarkibidagi sarbozlarni asosan, dehqonlar, hunarmandlar va asirlar orasidan tanlab olişgan. Amirlik harbiy qöşinida qizil kurtka, oq şalvar va qalpoqdan iborat maxsus harbiy kiyim joriy etilgan. Mazkur islohotlardan söng Buxoro amirligi qöşinining jangovar holati, qöşin tarkibi va uning sifati yaxşilanadi. Mustamlakaçi imperiyaning amirlikka bosqini davrida ham qöşin Amir Nasrulloxon tomonidan olib kelingan qurollar bilan jangga kirganini körişimiz mumkin. Ta’kidlaş joizki, amir Nasrulloh manğit amirlari içida birinçi bor piyoda sarbozlar tarkibidan töpçilardan iborat doimiy harbiy bölinmaga asos solgan. Amirlikda töplar bundan oldin ham bölişiga qaramasdan, ulardan alohida guruh tuzilib, Öğlon va Talipoç darvozalari oldida töpçilarning kazarmalari barpo etilgani ta’kidlanadi. Şu tariqa, Buxoro atrofida “Sarbozxona“ nomi ostida maşhur bölgan, 800 uydan iborat harbiylarning muntazam yaşaş manzillari şakllangan. Amir Nasrulloh taşkil etgan töpçilar tarkibida 14 noğoraçi, 14 nayçidan iborat musiqaçilar guruhi mavjud bölib, har bir yuzlikda ikkita turk namunasidagi barabançi, 4 ta surnayçi, 6 ta trubaçi faoliyat körsatgan. Bundan taşqari, rus harbiy asirlaridan tatar Ismoil va rus Trofim murabbiyligida piyoda sarbozlardan taşkil etilgan harbiy musiqaçilar guruhi bolobomçilar ham bölgan. Xorijdan harbiy mutaxassislar jalb etilib, ulardan zamonaviy qurol-yaroğlarni tayyorlaş va foydalaniş sirlari örganilgan. Masalan, 1834-yili Erondan kelgan Abdusamad Tabriziy yevropaça usuldagi nizomiy askarlarga tartib bergan va 1837-yili maxsus töpçilar qöşinini tuzgan. Buxoroda töp va zambaraklar quyiş uçun alohida töpxona qurilgan.

Amir Nasrulloxon uçun eng qiyin va davomli bölgan yuriş Şahrisabzni egallaş yölidagi janglar bölgan. Uning boşçiligidagi qöşin 20 yil davomida olib borilgan 32 ta harbiy yurişdan söng 1856-yilda Şahrisabzni uzil-kesil egallagan. Şahrisabz markaziy hokimiyatga böysungaç, u sulh ramzi sifatida mahalliy hukmdor – Iskandar Vallomaning singlisi Kenagasxonimga uylangan.

Xulosa örnida, Amir Nasrulloxon davrida amalga oşirilgan harbiy islohotlargina amirlik harbiy salohiyatini oşirdi deb ayta olamiz. Eron, Rossiya imperiyasi va Turkiya armiyalaridan andoza oliş tizimini yölga qöygan va bu yölda xorijlik mutaxassislarni jalb qilgan Amir Nasrulloxon öz davridagi eng muqobil armiyani yarata oldi. Afsuski, Amir Nasrulloxondan keyingi hukmdorlar harbiy sohaga deyarli e’tibor bermaydi. Mustamlakaçilarga qarşi janglardagi mağlubiyatlar va köplab xatoliklarning asosi aslida Amir Nasrulloxondan keyin hukmdorlar davrida armiyaning modernizatsiya qilinmaganida edi.

Zavqibek MAHMUDOV,
Abdulla Avloniy nomidagi
Pedagogik mahorat milliy instituti
dotsenti v.b.



“BIZGA AVTOBUS BERING!”

yoxud bekatdagi faryod

Keçki tiğiz payt. Işdan, öqişdan horib, bir burda non va rözğor taşvişi bilan uyiga şoşayotgan önlab odamlar bekatda töplanib turibdi. Uzoq kutilgan avtobus körinadi, biroq unga çiqişning imkoni yöq – eşiklarigaça yoş bolalar-u keksalar siqilib, oynaga yopişgan köyi zörğa nafas olib kelmoqda. Ikkinçi, uçinçi avtobus ham, hatto yönalişli taksilar *(marşrutkalar)* ham şu ahvolda bekatdagi 10-15 nafar umidvor yölovçini çang va umidsizlik içida qoldirib ötib ketadi. Kun böyi mehnat qilib toliqqan odamlarning barça rejalari çippakka çiqadi. Bu ahvolda ular öz uyiga, oilasi bağriga soat neçada yetib boradi?!

Kuni keça ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan ana şunday videolavha har qanday vijdonli insonning qalbini larzaga soladi. Bekatda qolib ketgan, kutaverib jonidan ötib ketgan bir ayol telefon kamerasini yoqib, mas’ullarga qarata jon holatda faryod çekmoqda: *“Bizga avtobus qilib beringlar! Neça marta Transport vazirligiga ariza olib çiqdim, odam örnida körmadinglar! Oxiri internetga olib çiqişga majbur böldim!..”*

Bu ayolning sözlariga diqqat qiling. U mamlakatda iş haqi va pensiyalar 7 foizga oşgani holda jamoat transporti – avtobus va metro narxlari birdaniga 47 foizga osmonga sakraganini peş qilmayapti. U adolat talab qilib köçaga çiqmayapti, şohona şaroit söramayapti. U şunçaki öz puliga, odamga öxşab manziliga yetib oliş uçun avtobus sörayapti xolos! Fuqaroning oddiygina murojaati vazirlikning muhtaşam kabinetlarida eşitilmagani, inson qadri qoğozbozlik ortida qolib, oxir-oqibat oddiy ayolning öz dardini ijtimoiy tarmoq orqali butun dunyoga doston qilişga majbur bölayotgani – tizimdagi mas’ullar uçun uyat emasmi?!

IKKI YARIM MILLION YÖLOVÇI VA SAYYOHLARNING HAYRAT TÖLA NIGOHI

Masalaning kölamini anglaş uçun raqamlarga yuzlanaylik. Bugun Toşkent şahrining doimiy aholisi 3 milliondan oşdi. Ammo masalaning ikkinçi tomoni bor: viloyatlardan kelib işlayotganlar, yarim millionga yaqin talabalar va har kuni Toşkent viloyatidan poytaxtga qatnaydigan fuqarolar hisobiga şahardagi kunduzgi faol aholi soni 4-4,5 million kişiga yetmoqda. Sönggi statistik ma’lumotlarga köra, bugun poytaxt avtobuslari kuniga örtaça 1,4-1,5 million, metropoliten esa tiğiz kunlarda 900 mingdan 1 milliondan ziyodgaça yölovçi taşimoqda. Bu har kuni 2,5 millionga yaqin insonning taqdiri, vaqti va asabi jamoat transportiga bevosita boğliq deganidir!

Kamina ham ana şu ikki yarim millionning biri sifatida har kuni işga metroda qatnayman. Soat 09:00 da iş joyimda bölişim şart. Ammo bekatga tuşganingizda, poyezd sizdan oldingi tört-beşta bekatning aholisini yiğib, eşiklari yopilmaydigan darajada tölib keladi. Vagon içida odamlar bir-birining ustiga çiqib ketay deydi. Transport ostonasidan hatlaşga joy yöq! Ba’zan tört-beşta poyezdni ötkazib yuborib, navbatdagisining eşigiga arang ilinib olişga töğri keladi.

Mayli, biz-ku, bunga tişni tişga qöyib çidab kelyapmiz. Lekin tiğiz paytda Toşkent metrosiga tuşib qolgan xorijlik sayyohlarning ahvolini körib, uyatdan yuzimiz qizaradi. Olomon uyiga yoki işiga yetib oliş uçun hayot-mamot jangiga kirgandek vagonlarga yopirilgan paytda, atrofdagi mehmonni heç kimning közi körmaydi. Bunday talatöp va tiqilinç orasida burçakka qisilib qolgan çet ellik mehmonlar közlari katta-katta oçilib, qörquv va hayrat bilan termilib turişadi. Ularning içidan nima ötayotgani özlariga ayon. Bugun Özbekistonni dunyoga turizm markazi sifatida tanitayotgan bir paytimizda, poytaxtimizning transport madaniyati va infratuzilmasi mehmonlarda şunday taassurot qoldirişi bizga yaraşadimi? Nahotki, zamonaviy megapolis deb maqtanayotgan poytaxtimizning transport madaniyati va infratuzilmasi şu bölsa?!

NARXNI OŞIRIŞ – OJIZLIK BELGISI YOXUD KILOMETRLIK TÖLOV TUZOĞI

Eng aççiq va kulgili tomoni şundaki, bugun xalq “tepadagi” mutasaddilardan tirbandlik muammosiga yeçim sörab, ijtimoiy tarmoqqa olib çiqişga ham qörqib qoldi: **“Işqilib, yeçim deb yana bong ursak, yölkira narxini oşirib qöymasin-da!”** deb çöçib turibdi.

Çunki bu xavotir bejiz emas. Jamoat transporti narxlarini birdaniga 47 foizga oşiriş orqali tirbandlikni kamaytirmoqçi bölgan “aqlli boşlar” xalqning real hayotidan naqadar uzoq ekanini körsatib qöyişdi. Ular yölkirani qimmat qilsak, odamlar avtobus va metroga çiqmay, “Yandex” yoki “Uklon” kabi taksi xizmatlariga ötib ketadi, deb öylaşdi şekilli.

Janob mutasaddilar! Avtobus va metroda ezilib yurgan qatlam – vazirliklarda yoki yuqori idoralarda ötirib, davlatning xizmat maşinasida yuradigan xodimlar emas. Bular – oyligini keyingi oyga zörğa yetkazayotgan öqituvçilar, şifokorlar, talabalar, öquvçilar, bozordagi sotuvçilar va oilasini maşaqqat bilan tebratayotgan oddiy işçilardir. Ularning topayotgan mablağı har kuni taksida yuriş darajasiga hali-beri yetgani yöq! Jamoat transporti narxini oşiriş – muammoga yeçim emas, balki noçor qatlamning çöntagiga qöl solişdir. Xöp, moliyaviy zararni qoplaş, xizmat sifatini yaxşilaş bahonasida narxni oşirdingiz ham deylik, qani öşa va’da qilingan sifat? Qani qöşimça vagonlar, qani qisqargan intervallar? Qani tirbandlik muammosiga yeçim?!

Buning ustiga, yangi yildan boşlab metroda masofaga – kilometriga qarab pul tölaş tizimini joriy etiş rejasi oddiy xalqning dardi ustiga çipqon bölmoqda. Masalaga ijtimoiy adolat tarozisi bilan qaraylik: Toşkentda özida töq, badavlat qatlam asosan şahar markazida yaşaydi. Kam ta’minlangan oilalar, arzonroq uy izlaganlar, ijarada turadigan talabalar va oddiy işçilar esa şaharning eng çekka hududlarida – Sergeli, Yangihayot, Bektemir, Qöyliq yoki Yunusobodning oxirida istiqomat qiladi. Agar metroda kilometriga qarab pul olinadigan bölsa, markazda yaşaydigan boy odam kam pul tölaydi, şaharning narigi çekkasidan tiqilinçda ezilib işga keladigan eng kambağal fuqaro esa eng köp pul tölaşga majbur böladi! Xöş, bu qanaqasiga ijtimoiy adolat bölsin?! Islohot degani noçor qatlamning çöntagini qoqiş hisobiga amalga oşiriladimi?

Şu örinda yana bir oğriqli savol tuğiladi. Ma’lumotlarga köra, yölkira narxlarining oşirilişi xalq deputatlari Kengaşi yiğilişi orqali tasdiqlangan. Qiziq paradoks! Aslida deputat degani oddiy xalqning ovozi, uning tarafdori, manfaatlari himoyaçisi bölişi kerak emasmidi? Nega öşa deputatlar transport mutasaddilariga qarata: *“Avval bekatlarda soatlab qolib ketayotgan xalqqa yetarli avtobus va vagon çiqarib bering, tiqilinçni bartaraf eting, sifatni oşiring, ana undan keyin narx haqida gaplaşamiz!”* deb qat’iy şart qöya olmadi? Qaçon bizning mas’ullar va deputatlar ma’lum bir taşkilotga emas, balki jamiyatga xizmat qilişni örganadi?

DUNYO MEGAPOLISLARI BU INQIROZDAN QANDAY ÇIQQAN?

Xöş, kuniga ikki milliondan ortiq odam harakatlanadigan bu ulkan oqimni qanday tartibga soliş mumkin? Buning uçun velosipedni qaytadan kaşf qiliş yoki xalqni narx bilan qörqitiş şart emas. Aholisi Toşkentdan bir neça barobar köp bölgan rivojlangan xorij şaharlarining sinalgan tajribasini tatbiq etiş kifoya:

Birinçidan, “Soat 09:00 sindromi”dan voz keçiş kerak *(Seul, Tokio va London tajribasi).* Toşkentdagi eng katta xato şundaki, deyarli barça vazirliklar, banklar, maktablar va universitetlarda iş hamda öqiş bir vaqtda – soat 08:30 yoki 09:00 da boşlanadi. Oqibatda millionlab odam ertalab bir soatlik tor vaqt oraliğida köçaga va metroga yopiriladi. Dunyoning heç bir transporti bunday bir vaqtdagi bosimni kötara olmaydi. Ilğor megapolislarda bu oqim sun’iy ravişda soatlarga bölib yuborilgan: boğça va maktablar 08:00 da, korxonalar 08:30 da, davlat idoralari va oliy öquv yurtlari esa 09:30 yoki 10:00 da boşlanadi. Poytaxtdagi yarim million talabaning öqiş vaqtini atigi bir soatga surib qöyişning öziyoq ertalabki tiqilinçni bir tiyin sarflamasdan 30 foizga kamaytiradi!

Ikkinçidan, asfaltga çizilgan “A” harfi emas, töliq tösilgan “Metrobus” tizimi zarur *(Istanbul va Bogota tajribasi).* Hukumat mingta avtobus olib kelgani bilan, öşa avtobus yengil maşinalar bilan birga tirbandlikda qotib tursa, undan nima foyda? Bekatda avtobus yöqligining sababi – ularning yölda qamalib qolganidadir. Bizdagi “A” tasmalari faqat böyoq bilan çizilgani uçun taksi va şaxsiy maşinalar unga kirib olib, avtobus yölini böğib qöymoqda. 20 million aholisi bor Istanbul buni **“Metrobus” *(BRT)*** orqali hal qilgan: yölning örtasida maxsus panjara yoki beton bordyur bilan butunlay ajratilgan yölak qilinadi, u yerga jismonan heç qanday yengil maşina kira olmaydi. Natijada katta siğimli avtobuslar xuddi yerusti metrosidek har 30 soniyada tösiqsiz harakatlanadi.

Uçinçidan, şahar atrofi tezyurar elektriçkalarini metroga ulaş lozim *(Berlin va Moskva tajribasi).* Nega metroda poyezdlar dastlabki bekatlardayoq tölib qolyapti? Çunki har kuni ertalab Zangiota, Qibray, Keles, Yangiyöl, Çirçiq kabi hududlardan yuz minglab odamlar poytaxtga kirib keladi va metroning eng oxirgi bekatlaridayoq vagonlarni töldirib qöyadi. Berlin va Moskva bu muammoni şahar atrofi zamonaviy elektriçkalarini xuddi metrodek har 10 daqiqada qatnaydigan qilib, şahar markaziga ulaş orqali yeçgan. Şuningdek, şaharga kiriş postlarida ulkan bepul avtoturargohlar qurilişi kerakki, viloyatdan kelgan haydovçi maşinasini öşa yerda qoldirib, tezyurar jamoat transportiga ötib ketsin.

Törtinçidan, “Yotoqxona tumanlar” qurişni töxtatiş şart *(Parij va Singapur tajribasi).* Sergeli yoki Yangihayotda ön minglab xonadonli köp qavatli uylar qurilyapti-yu, lekin u yerda yetarli iş örinlari, yirik biznes markazlari yoki universitetlar taşkil etilmayapti. Natijada butun boşli tuman aholisi ertalab şahar markaziga oqadi, keçqurun esa orqaga qaytadi. Zamonaviy şaharsozlikda vazirliklar, universitetlar va yirik kompaniyalar şahar markazidan çekka tumanlarga köçiriladi. Odamlar uyining yaqinida işlab, öqisagina transportdagi bosim yöqoladi.

Beşinçidan, jazolovçi emas, rağbatlantiruvçi tarif siyosati kerak *(Vena va Germaniya tajribasi).* Yevropa davlatlarida hukumat odamlarni taksiga ötkaziş uçun emas, aksinça, şaxsiy maşinasini uyda qoldirib, avtobus va metroga çiqişi uçun kuraşadi. Masalan, Venada yillik transport abonementi kuniga atigi 1 yevroga tuşadi. Lyuksemburgni-ku, aytmasa ham böladi – aholisi bir tiyin tölamay faqat jamoat transportlarida qatnaydi. Şunday ekan, jamoat transporti tijorat korxonasi emas, u – davlatning xalq oldidagi ijtimoiy majburiyatidir.

Toşkentning transport muammosini konditsionerli xonalarda ötirib, narxlarni oşiriş va jarimalar yoziş bilan hal qilib bölmaydi. Buning uçun Transport vazirligi va tegişli idoralar rahbarlari hamda öşa qarorga qöl kötargan deputatlar bir haftagina özlarining qoraytirilgan oynali xizmat maşinalaridan tuşib, ertalab soat 08:00 da va keçqurun 18:00 da oddiy xalq bilan birga avtobus va metroda yurib körişlari kerak. Ehtimol, şundagina eşikka qisilib nafasi böğilayotgan gödakning, bekatda sovuqda qolgan qariyaning va internetda faryod çekayotgan öşa onaning dardi ularning yuragiga yetib borar.

Azim AXTAMOV

TADBIRLI şifokor

Şohröz bir oydirki kökrak qismida keçayotgan oğriqdan aziyat çekadi. Sim-sim boşlangan oğriq asta-sekin kuçayib borsa bordiki, pasaymadi. "Döxtirga bormasam bölmaydi çoği", xayolidan ötkazdi yigit.



– Öt qopingiz bezovta qilayotganga öxşaydi, – Şohrözni obdan tekşirib, dardini tinglagan şifokor fikr bildirdi. – Öt qopi şamollasa yoki toş yiğilsa şunday oğriq beradi.

– Toş yiğilsa! – rangi özgardi yigitning. – Şunday bölişi mumkinmi?!

– Bezovta bölişga hojat yöq, – uni tinçlantirdi şifokor. – Hozir UZI tekşiruviga yöllanma yozib beraman. Yölak oxiridagi xonada tekşiruv amalga oşiriladi. Uning xulosasini menga olib kelasiz. Oğriq sababi öşanda aniq böladi. Söng muolaja olsangiz böladi.

Şohröz UZI tekşiruvidan ötiş uçun navbatda turar ekan, dilidan bir hadik nari ketmasdi. "Öt qopimda toş bölsa nima qilaman?! Agar oldirsam... – yuragi uvuşdi, – hamqişloğim Hasan akaga öxşab yarimjon bölib qolaman-ku!" Köz oldida öt qopini oldirgan Hasan aka gavdalandi. Ötgan yili qişloğiga töyga borganida uning zabun holini körib, hayratda qotib qolgandi: "Nahotki, şu tinib-tinçimaydigan, ğayratli Hasan aka bölsa?!" Öşanda atrofdagilar darhol uning qöltiğiga kirib, dasturxon yoniga ötirğizib qöygandi. "Öt qopini oldirgaç, şunday bölib qoldi, beçora" deya açiniş ila mehr körsatgandi. Endi özi ham şu ahvolga tuşiş arafasida turibdi.

Navbati kelgan yigit köngilsiz xabar qarşi olayotgandek, UZI xonasiga kayfiyatsiz boş suqdi. Yuragi dukullagan köyi tekşiruv stoliga yotdi. Mutaxassis öz vazifasiga kirişdi. U yigitning öt qopini qayta-qayta tekşirar, boşini sarak-sarak qilgan köyi oldidagi qoğozga nimalarnidir qayd etardi. Şu asnoda Şohrözni savolga tuta boşladi:

– Öt qopingiz qaçondan buyon bezovta qiladi?

– Bir oydan oşib qoldi.

– Pristup berdimi, ya'ni kuçli oğriq kuzatildimi?

– Asabga tegadigan oğriq tobora kuçayib bordi. Nima, döxtir, öt qopimda toş bormikan? – ovozi qaltiragan köyi UZIçiga ayançli termildi Şohröz.

– Namunça, vahimaga berilasiz, özingizni qölga oling, salomatligingiz yomon emas. Qolgan masalani şifokoringiz bilan maslahat qilasiz, – uning qöliga tekşiruv javobini tutqazdi, u.

Şohröz böşaşgan köyi şifokor xonasi tomon yurar ekan, UZI javobini öqişga harakat qildi. "Döxtirlarning xatiga tuşunib bölmaydi-da, allambalo narsalarni yozib taşlabdi", xunobi oşdi.

– Taxmin qilganimdek, öt qopingiz toş bilan töla. Jarrohlik orqali tezda undan qutuliş kerak. – Şohrözga tuşuntirdi şifokor.

– Aslida öt qopingiz köpdan buyon bezovta qilib yurgan. Siz kuçli oğriq qözğalmagunça bunga ahamiyat bermagansiz. Vaqtida davolanganingizda ahvolingiz jarrohlik stoligaça yetib kelmagan bölardi. Endi operatsiyaga majbursiz.

– Axir... axir öt qopini oldirsam, yarimjon bölib qolaman-ku, – birzumda rangi özgardi yigitning.

– Bu nima deganingiz, notöğri ovqatlaniş, kundalik rejimga amal qilmaslik, ekologiya özgarişi kabi bir qator sabablar, kasalliklar köpayişiga olib kelyapti. Xuddi sizdek köplab bemorlar jarrohlik yöli bilan muammodan xalos bölmoqda.

– Bilasizmi, döxtir, mening bir hamqişloğim öt qopini oldirganidan keyin... – yigit şifokorga Hasan akaning zabun holini ta'riflay ketdi. – Men yoş böla turib, öşanday kömakka zor bölişni istamayman. Iltimos, yordam bering, operatsiyadan taşqari hamma muolajaga tayyorman.

– Özingizni qölga oling, bunday bölişi mumkin emas, – Şohrözga tuşuntirdi şifokor. – Öşa tanişingizda boşqa yondoş kasallik bordir. Vahima qilişning keragi yöq, siz kabi bemorlar jarrohlikdan keyin soğlom hayotga qaytib, işlab yuribdi. Hozir bir qator dorilar yozib beraman, oğriqlar vaqtinça bezovta qilmaydi. Ammo vaqtni ötkazmay jarrohga uçraşing. Bölmasa, öt qopingizdagi toşlar yomon oqibatga olib kelişi mumkin...

Şohröz şifokor oldidan tuşkun kayfiyatda qaytdi. Biroq uning kuyinib aytgan gaplaridan ta'sirlandi, öt qopini oldiriş borasida özida bir qadar kuç topdi. Ammo dorilarni içib, oğriqlari çekingan yigit jarrohlik amaliyotini unutdi.

Har doimgidek, iş, oila, hayot taşvişlari bilan andarmon yigit boşqa viloyatga xizmat safariga bordi. Kutilmaganda, öt qopi sabab vujudida kuçli oğriq qözğaldi. Şoşilinç tibbiy yordam maşinasi uni şifoxonaga yetkazdi. Bemorni tekşirib körgan şifokorlar zudlik ila operatsiyaga tayyorlaşga kirişdi.

– Qandaysiz, yigit, xizmat safari bahonasida viloyat şifoxonasida davolanay debsiz-da, – muomalasidan hazilkaş köringan jarroh Şohrözni savolga tuta boşladi. – Ukoldan keyin oğriqlar bir oz pasaydimi?

– Ha, oğriq ança yengillaşdi.

– Yaxşi, endi operatsiya qilamiz. Bu haqda yaqinlaringizga xabar berib qöyişingiz mumkin. Ammo ular yetib kelguniça kutişga fursat yöq. Uzoği bilan bir soat içida jarrohlik amaliyotini boşlaymiz. Öt qopingizni olib taşlamasak bölmaydi. Siz bunga rozilik berişingiz kerak

– Nahotki... Nahotki, tibbiyot şunday rivojlangan davrda öt qopini emas, undagi toşlarni olib taşlaşning iloji yöq? – rangi özgarib, bilinar-bilinmas titray boşladi Şohröz.

– Vahimaga berilişning hojati yöq. Hammasi yaxşi böladi, – uni tinçlantirişga kirişdi jarroh.

– Bilasizmi, bir taniş akam öt qopini oldirganidan keyin yarimjon bölib qolgan. Bukçaygança bazör yuradi, özini eplay olmaydi. Men yoş böla turib öşaning holiga tuşişni, kimningdir yordami bilan harakat qilişni istamayman. Doktor, iltimos, öt qopini emas, toşlarini olib taşlang.

Şifokor qarasaki, bemorning ruhiy holati yaxşi emas. Unga vaziyatni tuşuntirib, fikrini özgartiriş uçun vaqt kerak. Fursat esa kam, uning hayotini asrab qoliş zarur. Lekin yigitning bu ruhiy ahvolida jarrohlik amaliyotini boşlaş xavfli.

– Siz aytgança böla qolsin, Şohrözbek, – yigitning kayfiyatini kötarişga harakat qildi jarroh, – öt qopini emas, toşlarini olib taşlaymiz. Ammo yana qaytib toş yiğilmasligi uçun uzoq payt parhez qilib, ma'lum muddat muolaja olib, yilda ikki bor şifokor körigidan ötib yurişingizga töğri keladi. Rozimisiz?

– Roziman!

– Unda kayfiyatni kötaramiz. Jarrohlikdan söng közingizni oçganingizda yangi hayotga qadam qöyasiz...

Operatsiyadan çiqqan Şohröz dastlab bir oz qiynaldi, keyin şifokor aytganidek, oğriqlarni unutib, işini davom ettirdi. Oradan beş yillar çamasi vaqt ötdi. Kökrak qismida yana noxuşlik seza boşlagan yigit, huşyor tortdi. "Öt qopimda toş yiğilgan bölsaya. Parhezga u qadar amal qilganim yöq. Şifokorga bormaganimga ham yillar böldi. Yaxşisi, UZI apparatiga tuşib, uning javobi bilan döxtirga uçraşaman. Işqilib, öt qopim yaxşi bölsin-da".

– Öt qopingizni qaçon tekşirtirgandingiz?

– Çamasi, beş yil avval.

– Negadir öt qopingizni körib bölmayapti, – taajjub bilan Şohrözga yuzlandi UZI mutaxassisi. – Ertaga ertalab oç qoringa keling, qayta tekşiramiz.

Ertasiga Şohröz yana UZI apparatiga tuşdi. Mutaxassis astoydil öz vazifasiga kirişdi.

– Tuşunmadim, nega öt qopingiz körinmayapti. Oxirgi marta qayerda tekşirtirgandingiz?

– Xizmat safari bilan viloyatga borganimda, kutilmaganda, kuçli oğriq sabab şifoxonaga yotganman. Öşanda jarroh öt qopimdagi toşlarni olib taşlagan.

– Nima?! Özingizni ham, meni ham ovora qilganingizni qarang. Bundan çiqdi öt qopingizdagi holat sönggi bosqiçga yetib kelgani uçun jarroh uni olib taşlagan.

– Unday bölişi mumkin emas, jarroh operatsiyadan keyin menga bir hovuç toş körsatgandi. Öt qopingni asrab qoldim, degandi. Çunki men unga qattiq iltimos qilgandim... – öşanda bölgan voqeani gapirib berdi Şohröz.

– Tuşunarli, jarroh tadbirli şifokor ekan, – uning gaplarini tinglab, jilmaydi mutaxassis. – Ruhiy holatingiz öşanda yaxşi bölmagan. Sizni tuşkunlikdan asrab, soğliğingiz tez tiklanişiga zamin yaratgan. Qoyil, hamma şifokor ham bunday yöl tutmaydi.

– Yöğe?! – hayratdan dong qotdi Şohröz.

– Keling, yaxşisi boşqa organlaringizni tekşirib köraman. Işiga kirişib ketdi UZIçi. – Soğlomsiz, yigit, faqat öşa jarroh aytganidek, har yili ikki marotaba şifokor tekşiruvidan ötişni unutmang!

Şohröz bölib ötgan işdan hayratlangan bölsa-da, kayfiyati tuşmadi. Özini soğlom his qilgan holda işga kirişib ketdi.

Ha, aytgandek, qişloğiga borganida Hasan akani kördi. U avvalgidek ğayratli, kayfiyati kötarinki edi...

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"



“BIR UMRNING ZAVOLI”

Stefan Sveyg *(1881–1942)* sevimli adibim. Uning asarlari qaçondan özbek adabiy tiliga çevirildi, aniq aytolmayman. Bugun yozuvçining bir qator asarlarini ona tilimizda ham öqiş mumkin. Adib, dramaturg, jurnalist Stefan Sveygga novellalari jahoniy şuhrat olib keldi.

Inson hayotida yoşlik degan gözal ne’mat bor. Tez keçadi. Şunday bölsa-da, uzoq yillar uning toza havolari, toza tuyğulari kişi hayotiga rang berib turadi. Yillar ötib, öşa olis yoşlikda çanqoqlik bilan öqigan kitoblaringni qölga olganingda musaffo tuyğular seni takror qamrab oladi. Aziz öquvçi, bu holat sizga ham tanişmi?

Stefan Sveyg asarlari şunday totli tuyğularni xotirlatişi bilan qadrli. “Betoqat qalb” romani... Yurakni larzaga soluvçi maktublar, javobsiz muhabbat. “Hayot mazmuni kimgadir kerakli ekanligingdadir”. Romandan şu gapni yozib qöygan ekanman. Bu asar şu qadar kuçli taassurot qoldirgan-da! Yoki “Notaniş ayol maktublari” novellasi. Közyoşiga ğarq bölib öqigan edim va bu holat faqat mendagina keçgan emas. Qalbing parçalansa ham inson sevgi istaydi. Eng köp öqiladigan asarlar sevgi qissalari, sevgi hikoyalaridir. Gödaklar ham sevgini his qiladi, umr şomida ham könglingga yoruğlik sevgi bilan inadi.

Odamlar kitobdan yiroqlaşyapti, degan gaplarga işonmayman. Kitob öqiş hayotiy ehtiyoj aslida. Bolangizga aytgan allalar, ertaklar *(agar ertak aytişni bilsangiz)* kitobga, adabiyotga yöl oçadi. Kitoblar eng gözal tuyğular sayqalçisi. Köngillarga olib boradigan yöl, köngillarni anglatadigan, köngillarni zabt etadigan vosita.

Öquvçilarimizning katta qismi yoşlardan iborat bölgani uçun Stefan Sveygning asarlarini tavsiya qilamiz. Uning tarixiy novellalari ham öquvçilarda katta qiziqiş uyğotadi. Yigirmançi asrning birinçi yarmida yaşab ijod etgan yozuvçi asarlari bugun ham eng köp öqiladi, ekranga ham yuksak badiiy mahorat bilan köçgan.

Bugun adibning Nizom Komil özbek adabiy tiliga ögirgan “Bir umrning zavoli” hikoyasi haqida töxtalamiz. Yöq-yöq, töxtalamiz degani, tahlil qilamiz degani emas, öqişga tavsiya qilamiz, degani. Bu asar allaqaçonlar adabiyot sinçilari tomonidan tahlil qilib bölingan. Aslida uning asarlari alohida tarğibotga muhtoj emas. Biz şunçaki öquvçilarimizga asl asarlar qatorida eslatib qöymoqçimiz.

Öqiymiz: *“Yurakni tilka-pora qilmoq uçun taqdiri azal dabdurustdan kökrakka nayza sançmaydi. U payt poylaydi. Bunga u ustasi farang. Biz taqdiri azalning hukmini “bahonayi sabab” deb qöya qolamiz, söng... Bu betayin iboramizni hukmning beşafqat oqibatiga taajjub bilan qiyoslaşga tuşamiz, aslida dard oşkor bölmasidan ança ilgari boşlanadi. Inson taqdiri ham şunaqa. U uzoq vaqt vujudimiz qa’rida, yetmiş ikki tomirimizda yaşirinib yotadi, sirtga çiqqanida”.*

Bu parça hikoyaning boşidan olindi. Birinçi gapdanoq huşyor tortasiz. Çunki sizning ham yuragingiz bus-butun emas, uning ham boşqalarga körsatib yoki anglatib bölmaydigan yaralari bölişi mumkin.

“Bir umrning zavoli” Lev Tolstoyning “Ivan Iliçning ölimi” hikoyasiga qaysidir jihatlari bilan öxşab ketadi. Tabiiy. Çunki tuyğular, öylar, dard-u hasratlar insonga xos, millat tanlamaydi.

Yigirmançi asrning boşi, oxiri, yigirma birinçi asr... Odam öşa-öşa. Tirikçilik taşvişlari bilan umr ötganini sezmay qoladi. Yoningdagi odam qaçon begonalaşib ulgurdi? Qaçon bir-biridan uzoqlaşdi? Hikoya öz-özingga savollar berişga majbur qiladi, sizni ogohlantiradi. Töqlik, farovonlik huzur degani emasligini körsatadi.

Solomon bobo... ön ikki yoşidan tirikçilik taşvişlarini yelkalagan, keçani keça, kunduzni kunduz demay, işlagan bir odam. U ança-munça boylik töplab, halovatga erişdim degan kunlarining birida kutilmaganda, maş’um holatga guvoh böldi. Bu uning jism-u jonini yoqdi...

Öqiymiz: *“Yana yolğizman, – deb öyladi u, – har doim yolğizman. Eh, pul ölsin-a, pul ölsin! Ularni pul buzdi... Pul bizni bir-birimizdan ayirdi. Men ahmoq pulning ketidan quvib yuribman-a! Mana, oqibati – pul meni şipşiydam qildi, ularni esa yomon yölga yetaklab ketdi. Ellik yil hökizday işlab, hordiq nimaligini bilmay orttirganim şu böldimi? Mana, bir özim söppayib ötiribman”.*

“Bir umrning zavoli” hikoyasini öqib, bir voqea yodimga tuşdi. Yaxşigina lavozim egasi bölgan tanişim şunday degan edi: “Ertalab işga ketiş oldidan temiryöl ustidan ötgan köprik qarşisida töxtab, odamlarni kuzataman. Köprikning narigi tomonidagi yöl qişloqlarga olib boradi. Ertalab qişloqlardan odamlar şaharga qarab oqadi. Bolalarini yetaklab olgan ayollar, otalar, yoş-yalang... yayrab kulişib, çuğurlaşib oldimdan ötadi. Men şu lahzalarni tutişga harakat qilaman. Özimda yöq narsani. Oilamning heç narsadan kami yöq, ammo... begonalik bor-da... afsus”.

Ha, insonni anglaş muşkul. Biroq juda köp murakkab vaziyatlarda, inson yolğiz qolganida yeçim oddiygina, çimdimgina mehrga borib taqalişini bilasizmi? Mehr malhamdir.

Öqiymiz: *“Oyoqlari kalta, pak-pakana qariya boğ içida uzoq aylanib yurdi, tevarak-atrofni tomoşa qildi. Yoş pardasi qoraçiqlarini tösib turgan bölsa-da, gözal manzaradan bahramand bölişiga monelik qilolmadi: köl sathidagi kumuşrang tuman ortida köm-kök butalar bilan qoplangan örkaç-örkaç tepaliklar, ularning orqasida esa baland toğ, göyo u ham köl jamoliga mahliyo bölganday çuqur sukutga botgan. Yaşnab turgan tabiat bepoyon quçoğini oçib, hammaga baxt va şodlik ulaşayotganga öxşaydi”.*

Odamlar hudud talaşadilar, millatlarga bölinadilar, özlarini bir-birovidan ustunroq körişga intiladilar. Hatto ildizlari bir qavmlar ham özlarini boşqalardan qadimiyroq ekanlarini isbotlaş uçun yolğon tarixlar yaratmoqda. Özlik bilan, ötmiş bilan faxrlaniş yoqimli. Biroq inson hamma joyda inson. Tili boşqa, dini, udumlari boşqa-boşqa. Ammo hislar, tuyğular ham bor. Sevgi, ayriliq, quvonç, ğam – bularning tili yagona-da! Buni çegara bilmas adabiyot tasdiqlaydi.

“Bir umrning zavoli” qariya Solomonning fojiasi emas. Öylaysizki, siz va mening taqdirimda bunday oğir holatlar bölmaydi. Bölmasligi kerak. Yöq, buni hayot deydilar, aslida bizning ham yöqotişlarimiz bor, beparvolik yoki şafqatsizliklarimiz bor. Solomon boboning fojiasiga öxşamaydi, rost, qölingizda bölgan birgina tabassum yoki iliq sözni dariğ tutgan paytlaringiz ham bölgan-ku?! Nazarimda qalblarni parçalaydigan fojialar ana şunday mayda narsalardan boşlanadi.

Öqiymiz: *“Bilaman, içimni kemirayotgan oğriq, bu – ölim, qolgan ikki-uç yillik umr – umr emas, sekin-sekin jon taslim qiliş... Darvoqe, qaçon yaşaganman, qaçon özim uçun yaşaganman? Şu ham hayot böldimi? Nuqul pul dedim, pulning ketidan yugurdim, özim uçun emas, boşqalarni deb yugurdim, mana, endi öşa pullar korimga yaraydimi? Xotinim bor edi: bokiraligida uylanganman, sevganman, u menga farzand hadya etdi. Şunça yildan beri bir yostiqqa boş qöyib keldik, bir havodan nafas oldik. Pirovardida uni nima jin urdi? Yetti yot begonaga aylandi-qoldi. Men bilan işi yöq, mening tuyğularim, öylarim, iztiroblarim uni qiziqtirmaydi. Oldingi mehr-oqibat qayoqqa ketdi? Qizim-çi, qizim? Uni papalab katta qilgan edim...”*

Qanday oğriqli öylar. Bir inson kötarişi qiyin bölgan, hayotdan sovitadigan, umrning ma’nisi, zavqi-şavqi qolmaydigan öta oğir lahzalar. Aççiq haqiqat böy körsatgan, qoçib qutulib bölmaydigan, komiga tortib ketuvçi köngil azoblari.

Hayot heç qaçon silliq keçmaydi. Inson hamma narsaga çidaşi mumkin. Yolğizlikka bardoşi yetmaydi. Yolğizlik bölib ham sevganlaring orasida, joningni jabborga berib, ular uçun yaşagan odamlaring orasida.

Aziz öquvçi, bu bir ibrat qissasi. Öqing, ehtimol qayerdadir bilib-bilmay qilgan xatolaringizni anglab qolarsiz.

Stefan Sveyg asarlarini öqing, inson qalbining rassomi – u. Agar barça asarlarini töplasangiz, ular dunyo adabiyotining noyob durdonalari, bebaho kutubxona egasiga aylanasiz. Uni yoşlikda sevib öqiysiz, örta yoşlikda soğinç bilan varaqlaysiz, umr kuzida hikmatlariga tan berasiz.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

MAHORATNI SAYQALLAGAN MAYDON

Markaziy harbiy okrugning Sazagan dala-o‘quv maydonida “Eng ilg‘or moddiy-texnik ta’minot guruhi” ko‘rik-tanlovining Mudofaa vazirligi bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Unda ishtirokchilar texnik vositalardan samarali foydalanish, mavjud resurslarni oqilona taqsimlash, murakkab vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish hamda jismoniy va o‘q otish tayyorgarligi bo‘yicha o‘z mahoratlarini namoyon etdi.



Tanlov davomida ishtirokchilarning individual tayyorgarligi bilan bir qatorda, guruhlarning tashkiliy intizomi, belgilangan vazifalarni samarali bajarish qobiliyati ham baholab borildi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, Markaziy harbiy okrug jamoasi birinchi o‘rinni egalladi. Toshkent harbiy okrugi jamoasi ikkinchi, Sharqiy harbiy okrug jamoasi esa uchinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi.

G‘olib va sovrindorlar Mudofaa vazirligining esdalik sovg‘alari, diplom hamda kuboklar bilan taqdirlandi.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati

“BATTLE DRILL”: PUXTA TAYYORGARLIK VA UYĞUN HARAKATLAR



Toşkent harbiy okrugi tasarrufidagi Angren umumqöşin toğ poligonida “Battle Drill” standartlaştirilgan jangovar harakatlar algoritmini örganişga bağişlangan körgazmali maşğulot taşkil etildi.

Unda Toşkent harbiy okrugi boşqaruv apparatining katta ofitserlari, harbiy qismlar va muassasalar rahbarlari, şuningdek komandirlik lavozimlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatçilar iştirok etdi. Ular uçun maşğulot “Battle Drill” tizimining amaliy imkoniyatlarini bevosita kuzatiş, uning mazmun-mohiyatini çuqurroq anglaş va qöşinlar faoliyatiga tatbiq etiş masalalarini baholaş imkonini berdi.

Maşğulot davomida jangovar guruh şaxsiy tarkibi özining jismoniy çidamliligi, kasbiy mahorati va amaliy tayyorgarligini namoyon etdi. Xususan, jismoniy, öq otiş, muhandislik, tibbiy va taktik tayyorgarlik yönalişlari qamrab olinib, harbiy xizmatçilarning individual könikmalari hamda jamoaviy harakatlardagi uyğunligi körgazmali tarzda namoyiş etildi.

Jarayonlarda proaktiv yondaşuv, taşabbuskorlik va mas’uliyat muhim jihatlar sifatida namoyon böldi. Bu esa harbiy xizmatçining nafaqat öziga yuklatilgan vazifani bajarişi, balki umumiy maqsad yölida jamoa bilan hamjihatlikda harakatlana olişi qançalik muhim ekanini yana bir bor körsatdi.

Toşkent harbiy okrugi matbuot xizmati

JANGOVAR ŞAYLIK MEZONI



Janubi-ğarbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Janubiy operativ qömondonligi hamda Kakaydi garnizonida joylaşgan harbiy qism harbiy xizmatçilari iştirokida “Eng ilğor qömondonlik punkti” körik-tanlovi ötkazildi.

Tanlov doirasida Janubiy operativ qömondonligi şaxsiy tarkibi “Termiz” umumqöşin dala poligonida, Kakaydi garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatçilari esa Jarqörğon tumanida joylaşgan dala-öquv maydonida qömondonlik punktlarini joylaştirdi.

Belgilangan rejaga muvofiq, har ikki hududda şaxsiy tarkib qisqa vaqt içida yuqori jangovar şaylik holatiga keltirildi. Şundan söng zamonaviy talablar asosida statsionar va mobil qömondonlik punktlari joylaştirilib, ularning faoliyati uçun zarur bölgan aloqa vositalari, texnik jihozlar va himoya inşootlari işga tuşirildi.

Körik-tanlov davomida qömondonlik punktlarining faoliyati, tezkor axborot almaşinuvi, bölinmalar harakatini muvofiqlaştiriş hamda qöşinlarni samarali boşqariş imkoniyatlari amaliy maşğulotlar orqali sinovdan ötkazildi.

Harbiy xizmatçilarning tezkor qaror qabul qilişi, murakkab vaziyatlarda töğri harakatlanişi, berilgan vazifalarni öz vaqtida va sifatli bajarişi hamda zamonaviy boşqaruv vositalaridan foydalaniş mahoratiga ham alohida e’tibor qaratildi.

III darajali serjant Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni





ÖZBEKISTON PROKURATURASIGA 35 YIL

ISLOHOTLAR: KEÇA VA BUGUN





2026-yil 28–31-oktabr kunlari Özbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan tizimda xizmat qilib kelayotgan va xizmatga yangi qabul qilingan yoş xodimlar iştirokida “Özbekiston prokuraturasiga 35 yil: islohotlar keça va bugun” mavzusida tört kunlik öquv yiğini taşkil etildi.

Asosiy nazariy va amaliy öquv maşğulotlar Huquqni muhofaza qiliş akademiyasida bölib ötdi.

Unda ta’lim dargohining malakali va tajribali mutaxassislari tomonidan öttiz beş yil mobaynida, ayniqsa oxirgi ön yillikda sohaga doir amalga oşirilgan tub islohotlar, prokuratura “Inson qadri uçun” ezgu tamoyili asosida xalq uçun xizmat qiladigan tizimga aylangani, faoliyat yönalişlarining tadrijiy takomillaşuvi, mustabid tuzum davrida adolat yölida qatağon bölgan prokuratura fidoyilarining hayoti va faoliyati, bundan taşqari, “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasi ijrosi aniq misollar bilan oçib berildi.

Şuningdek, inson huquqlarini ta’minlaş, qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlaş, korrupsiyaga qarşi murosasiz kuraşiş, murojaatlar bilan işlaş, ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar, raqamli texnologiyalar va boşqa dolzarb mavzularda maşğulotlar olib borildi.

“Kriminalistika”, “Terrorizmga qarşi kuraşiş”, “Sud-tibbiyot” laboratoriyalari, “Tergov poligoni” va “Sud majlisi” hamda şu singari qator real vaziyatga yaqinlaştirilgan şaroitlarda amaliy maşğulot va mahorat darslari ötildi.

Yoş xodimlardan quroldan otiş va jismoniy tayyorgarlik, saf tayyorgarligi böyiça amaliy, şuningdek qonunlar, harbiy nizomlar va Boş prokurorning sohaviy buyruqlari doirasida nazariy sinovlar qabul qilindi.

Yiğin davomidagi madaniy tadbirlar ham qatnaşçilarning ma’naviy dunyosini yanada boyitiş yölida xizmat qildi.

Adliya podpolkovnigi Feruz XAMZAYEV, Özbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bölim boşliği

Bek toğam haqida HANGOMALAR

Toğam Bekmurod Faxriddinov Samarqand viloyati Paxtaçi tumanida tuğilgan. Örta maktabni tugatib, Toşkentdagi musiqa texnikumining doira yönalişini tamomlagan. U kişi tabiatan xuşçaqçaq, hazilkaş va hozirjavob edi. U inson kirgan davra darrov jonlanardi. Hatto muammoli vaziyatlardan ham yengil çiqib keta olardi.



Tuman madaniyat uyida 38 yil *(umrining sönggi kunigaça)* işladi. Yangamizga nafaqaga çiqqan kuni işdan böşaşini va'da bergan. Bek toğam 2024-yilning 18-fevral kuni vafot etdi. Afsuski, nafaqaga çiqişi uçun bor-yöği 10 kun qolgan edi...

Dilkaş toğamdan oqil farzandlar va hazillari esdalik bölib qoldi.

7601...

90-yillar boşi... jonli ijroda 8 soatdan ortiq davom etgan töy. Sozandalar ham, hofiz ham çarçagan. Ammo "egov"lar töyni töxtamasligini talab qilaverib, xonandani ham, sozandani ham hol-joniga qöymadi. Hatto kattaroq "egov" yaqinda qamoqdan çiqib kelganini, agar aytgani bölmasa, yana qayta "kirib" ketişdan ham qörqmasligini bot-bot takrorlardi. Ayniqsa, Jinoyat kodeksining turli moddalarini sanab, "Senlar bilasanmi?" deya hol-joniga qöymasdi. Şunda doira çalib turgan Bek toğaning toqati toq böldi. Şartta doirani çorpoyaga uloqtirar ekan, ötirib çiqqan egovga qarata "Özing 7601-moddani bilasanmi?" deya sörab qoldi. "Egov" esa sal ikkilangan böldi. Şunda toğa "7601 ni bilmas ekansan, sen qamalmagansan, mabodo qamalgan bölsang ham "dostoyniy" ötirmagansan" deya uning ovozini öçirib qöydi. Sozandalarga qarata "Apparaturani yiğiştiringlar, qaytamiz. 7601 ni bilmagan "egov" bilan paçakilaşib ötiribmiz". "Egov" gulduragança öyga çömib qoldi...

Qutulganiga şukr qilib, yölga tuşgan "sostav" Bek toğaning bilağonligi, hatto jinoyat kodeksining moddalarini jinoyatçilardan-da yaxşi bilişiga tasannolar aytib, köngli xotirjam böldi. Ammo 7601 ning qanaqa moddaligi ularga ham tinçlik bermasdi. Şunda akkordeonçi maşina rulini boşqarib ketayotgan Bek toğaning yelkasiga turtib, "Bek, 7601 qanaqa modda özi?" deya söradi. Şunda toğa yelka qisgança, "Bilmasam, uydagi mototsiklim nomeri şunaqa" deya javob beribdi.

Yaxşi inson...

Har qanday inson ham mikrofon oldida hayajonlanarkan. Kiçik davralarda bir-biriga gap bermasdan hazil qilib yurgan hamkasb ulfatlar töyda mehmon bölişdi. Töyni boşqarayotgan örtakaş tösatdan, töy egasining hamkasblarini tabrik uçun sahnaga taklif qildi. Bir-birining ortidan turtib sen çiq, sen çiq bilan olti kişining barçasi sahnada saf tortişdi. Birinçi bölib, Bek toğaga navbat berildi. Toğa könglida bor istaklarni töy egasiga tiladi. Kelajagi uçun yaxşi niyatlar bildirdi. Töy bolaga omad tiladi. Mikrofonni şerigiga uzatdi. Şerigi şerigiga...şu zaylda qolgan ulfatlar bir oğiz söz aytmasdan, yana mikrofon Bek toğaga yetib keldi. Şunda toğa yana mikrofonni uşlab, "Mendan oldin bir yaxşi inson barça yaxşi tilaklarni bildirdi. Öşa yaxşi insonning barça niyatlariga qöşilaman", deya töy mikrofonini davrakaşga beribdi.

Begona odam...

Qarindoşlarnikida kimningdir tuğilgan kuni. Ikki ora bir lagan oş tarqatildi. Bek toğa oşni yaxşi körar, ayniqsa şerik "xöranda" bölsa, yanada iştahasi oçilib ketar edi. Tösatdan toğaning telefoni jiringladi. Notaniş raqam. Gudokni kötarib, "allo" degança baland ovozga qöyib, oş tanovulidan töxtamadi. Şunda telefonning qarşi tomonidan "Assalomu alaykum, Abdurahmon aka", degan ovoz keldi. Toğa ham oğzidagi oşni yarmini yutgança hozirjavoblik bilan "Vaalaykum assalom, Murodjon", dedi. 10-15 soniya sukutdan söng telefondan yana ovoz keldi "Men Murodjon emasman..." "Men ham Abdurahmon emasman". Yana biroz sukut va telefonda tut... tut... tut...

Mehribon amma...

Katta öğil Bekzodjonning böyi yetdi. Qiz topilgan. Uçraşuv kuni aniq. jiyani uçraşuvga ketayotganidan amma xursand. Qiş kunlari edi, çamamda, havo ança sovuq. Ammaning mehribonligi tutib, "Hoy, Bekzod! Uçraşuvga ketyapsan, masofa olis, kun esa salqin. Şiming içida biror narsa bormi?" dedi. Bek toğa hayratomuz holatda bir öğliga, bir singilga qararkan, "Şimi içida biror narsa bordiray, men işonib uylantiryapman-ku" dedi. Tezlik bilan berilgan javobdan hamma kulib yubordi. Mehribon amma ham qizargança kulgidan özini tiya olmadi...

"Egov"...

Har bir mahalla va qişloqda bitta "egov" bölişi, tabiiy. U tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadi. Örtança öğil Bunyod bilan bekatda avtobus kutib turgan Bek toğaga mahallaning "egovi" sal naridan nimadir deya gap qotdi. Aksiga olib, tutqatorga boğlangan eşak ham şu mahal hangrab yubordi. Eşakning "nolasi" tugaşi bilan toğa egovga qarata "Bitta-bitta gapiringlar, barobar sözlasalaring tuşunmay qolyapman", dedi...

"Yayov"ni örgata olmagandi

Bek toğa san'at içida yurgani uçun şe'riyatni juda yaxşi körardi. Ayniqsa, Hamid Olimjonning "Özbekiston" şe'rini jiyanlariga yod oldirib, qayta-qayta eşitaverardi.
Ma'lum rağbat evaziga 5 yoşli Şalola ham şe'rni yodlaşni boşladi:

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda...

– Toğa, "yayov" nima degani?
– Piyoda, peşkom degani.
Şe'r yod olindi. Şalola baland ovoz va intonatsiya bilan ijroni boşlab qoldi:

Vodiylarni peşkom kezganda...

Yostiqni qöltiğiga siqib, yonboşlagança huzur bilan şe'rni eşitişni boşlagan toğa yarq etib jiyaniga qarabdi-da, "Töxta-töxta, boşidan qaytar!" debdi.
Vodiylarni peşkom kezganda

Bir kunlik qarindoş

Bek toğa öqişga kirgan singlisi Fazilatni Toşkentga kuzatiş uçun Paxtaçi tumani vokzaliga olib kelibdi. Şunda közlari pirpirab turgan singil:

– Aka, bir özim ketişga qörqaman, vagonda şunça begonalar bor-ku?

– Qörqma, vagonda begona yöq. Buxorodagi qarindoşlarga telefon qilganman, ular bilan birga ketasan... Poyezd kelib töxtaşi bilan toğa vagonga çiqib, ayol va erkak, yoş va qarining barçasi bilan quyuq körişibdi. Singlisiga köz-quloq bölişini tayinlabdi. Manzilga yetib borgan Fazilat toğaning işxonasiga telefon qilarkan, "Buxoroda şunça qarindoşimiz bor ekan, nega şu paytgaça tanimaganman", desa, toğa ham "Bilmasam, men ham ularni tanimayman", degan ekan.

"Dunyo"dan ötib...

Nurota tumanidagi tanişlar töyiga yöl olgan Bek toğa manzilni aniqlaştirib oliş maqsadida bir yölovçidan sörabdi:

– "Şodlik" töyxonasiga hali uzoqmi?

– Unçalik ham uzoqmas, "Dunyo"dan ötişingiz bilan "Şodlik" körinadi...

Bek toğa kulimsirab, "dunyodan ötganingdan keyin keladigan şodlik nimaga kerak?" degan ekan.

Besabr singilga "jazo"

Paxtaçi tumani pedkollejida Beybetov degan öqituvçi işlagan. Öquvçilardan tortib, öqituvçilargaça uni familiyasi bilan çaqirarkan. Şundan bölsa kerak, Beybetovning ismini aksar inson bilmas ekan.

Oilaviy yiğinlarning birida Bek toğa Şerzod ismli yigit bilan boğliq voqea haqida tölqinlanib gapiribdi. Gapning avzoyi kiçik singil Nigoraga hamkasbi Beybetovni eslataveribdi. Sabri çidamagan singil şoşgança akaning gapini bölib, "Beybetovning familiyasi Şerzodmi?" deya ikki karra söraydi. Sal asabiylaşgan Bek toğa gapida davom etarkan, "Aslida uning "çistiy" familiyasi Şerzod bölgan", deya özining voqeaviy gapida davom etavergan. Davrada ötirganlar hozirjavoblikning mağzini keyinroq tuşungança, piqillab kulib yuborgan ekan.

Bu bir havas-da...

Bek toğa Toşkentning "duxovka" somsasini xuş körar, qaçon poytaxtga yöli tuşsa, albatta özi yaxşi körgan öşa somsadan yemasdan ketmas ekan. Bir kuni tong saharda hidi dimoqni qitiqlagança qizarib pişgan somsalarni körgan toğa beixtiyor töxtabdi. Somsapaz ham taniş yigit Mömin edi. Eski tanişni nonuştaga çorlagan Mömin çoy olib keliş uçun içkariga kirib ketibdi. Toğa narxini ham söramasdan patnisdagi somsadan yeya boşlabdi. Vaziyat şu darajaga yetibdiki, bir patnis somsadan asar ham qolmabdi. Mömin ham bunaqasini heç kutmagan, körmagan ham ekan. Hayratini yaşirmagança:

– "Toğa, qoyilman! Yeganingizga ming marta roziman, bir tiyin pul kerakmas, hali faoliyatim davomida bunday holni körmagan edim", desa, toğa ham bir piyola qaynoq çoyni höplagança:

"Bu bir havas-da, Möminjon, "zavtrak"ni uyda bemalol qilamiz-da", degan ekan...



IKKILANIŞDAN çempionlikkaça

Xançjou–2022 Para Osiyo öyinlarida uzunlikka sakraş böyiça T47 *(qölning tirsakdan pastki qismida harakat yoki anatomik nuqsonlari bölgan sportçilar uçun belgilangan para yengil atletika tasnifi)* klassida 7,21 metr natija bilan oltin medalni qölga kiritgan sportçimiz Aiçi-Nagoya–2026 Para Osiyo öyinlarida ham muvaffaqiyatli iştirok etib, 6,99 metr natija bilan kumuş medalga sazovor böldi.

Uning sportga ilk qadami, dastlabki musobaqadagi uç medal, maşaqqatli tayyorgarlikdan kelgan ğalabalar haqida qahramonimiz hikoyasi.

FUTBOLDAN KATTA SPORT SARI

– Andijon viloyatining Izboskan tumanida tuğilib ösganman. Maktabning 9-sinfigaça Andijonda tahsil oldim. 2012-yilda Toşkent şahridagi kollejga öqişga kirdim. Öşa paytlarda futbolga juda qiziqardim. Kollejda ham futbol öynab yurardim. Bir kuni jismoniy tarbiya darsi vaqtida ustozim Abror aka mening yugurişimni körib qoldi. Yoniga çaqirib, musobaqa borligini, unda qatnaşib, özimni sinab körişim mumkinligini aytdi.

Qanday musobaqa ekanini söraganimda, Özbekiston çempionati ekanini, unda paralimpiyaçilar iştirok etişini tuşuntirdi. Avvaliga biroz ikkilandim. Çunki bu men uçun mutlaqo yangi yönaliş edi. Keyin "Borib köray-çi, nima bölar ekan", deb musobaqada qatnaşişga qaror qildim. Öşanda bu taklif hayotimda yangi sahifa oçişi, kelajakda meni xalqaro sport maydonlariga olib çiqişini xayolimga ham keltirmaganman.

ILK MUSOBAQADAN UÇTA MEDAL

– Birinçi musobaqam yopiq yengil atletika manejida ötkazilgandi. Unda 60 metrga yuguriş, uzunlikka sakraş va 400 metrga yuguriş yönalişlarida iştirok etdim. Natija yomon bölmadi: 60 metrga yugurişda ikkinçi, uzunlikka sakraşda ikkinçi, 400 metrga yugurişda esa uçinçi örinni egalladim. Birinçi musobaqamning özidayoq uçta medal qölga kiritganim menga katta ruhiy kuç bağişladi. Şu musobaqadan keyin sportga bölgan qiziqişim yanada ortdi. Özimga bölgan işonçim mustahkamlandi. Avvaliga şunçaki özimni sinab köriş uçun borgan bölsam, endi oldimga aniq maqsad qöya boşladim. Keyingi musobaqalarda birinçi örinni egallaşni, öz natijalarimni yaxşilaşni istardim.

MAŞAQQATLI MAŞĞULOTLAR

– Birinçi musobaqadan qaytganimdan keyin jiddiy tayyorgarlik körişga qaror qildim. Asosiy maqsadim – keyingi safar birinçi örinni egallaş edi. Buning uçun qariyb bir yil davomida muntazam şuğullandim. Öşa vaqtlarda kollejda öqirdim. Kun tartibim juda tiğiz. Ertalab soat oltilarda yugurişga çiqaman, sakkizda darsim boşlanardi. Darsdan keyin yana ikki soat maşğulot ötardim.

Hozirgi kundagidek şaroitlar, imkoniyatlar va tayyor maşğulot rejimi u paytlarda yöq edi. Köp narsa özimning harakatim, intizomim va sportga bölgan qiziqişimga boğliq edi. Lekin oldimga qöygan maqsadim bor edi. Şu maqsad meni har kuni maşğulotga undardi. Çarçagan paytlarim ham bölardi, ammo boşlagan işimni oxiriga yetkazişga harakat qilardim. Vaqt ötişi bilan sport hayotimning ajralmas qismiga aylandi.

KONYADAGI OLTIN

– Yillar davomidagi mehnat va tayyorgarlik öz samarasini bera boşladi. Turli xalqaro musobaqalarda iştirok etib, yurtimiz şarafini himoya qiliş imkoniyatiga ega böldim. 2021-yilda Turkiyaning Konya şahrida ötkazilgan Islom birdamligi öyinlarida balandlikka sakraş böyiça T47 klassida iştirok etdim. Musobaqani 1,91 metr natija bilan yakunlab, oltin medalni qölga kiritdim. Bu ğalaba men uçun alohida ahamiyatga ega. Çunki ilk musobaqamda özimni sinab köriş uçun iştirok etgan bölsam, endi xalqaro maydonda yurtimiz bayroğini baland kötariş baxtiga muyassar bölayotgandim.

Tunis mezbonligida ötkazilgan xalqaro Gran-pri musobaqalarida ham muvaffaqiyatli iştirok etdim. Uzunlikka va balandlikka sakraş bahslarida sovrinli örinlarni egallaş xalqaro maydondagi tajribamni yanada oşirdi. Har bir musobaqa men uçun yangi sinov, yangi tajriba va navbatdagi maqsad sari taşlangan qadam bölib borardi.

> **Ba'zan inson hayotidagi eng muhim özgarişlar kutilmagan bir taklifdan boşlanadi. Avvaliga ikkilaniş, keyin esa özini sinab körişga bölgan qiziqiş... Qurolli kuçlar xizmatçisi Omadbek Hasanovning katta sportga kirib keliş tarixi ham ana şunday boşlangan. Bugun esa u xalqaro arenalarda Özbekiston şarafini munosib himoya qilib, yurtimizga qator medallar keltirayotgan para yengil atletikaçilardan biri.**

ORZULARIM RÖYOBI

– 2022-yilda Xitoyning Xançjou şahrida ötkazilgan Para Osiyo öyinlari sport faoliyatimdagi eng unutilmas musobaqalardan biri böldi.



Uzunlikka sakraş böyiça T47 klassida iştirok etib, 7,21 metr natijani qayd etdim. Öşanda bu körsatkiç menga oltin medalni taqdim etdi.

Para Osiyo öyinlari kabi nufuzli musobaqada şohsupaning eng yuqori poğonasiga kötariliş, Özbekiston bayroği kötarilganini köriş – sportçi uçun katta baxt. Bu natijaga erişiş uçun bosib ötgan yölim, qilgan maşqlarim va sarflagan mehnatim köz oldimdan ötdi.

Albatta, bunday ğalaba keyingi musobaqalar uçun ham katta mas'uliyat yuklaydi. Çunki bir marta çempion bölişning özi yetarli emas. Eng muhimi, öz natijangni saqlab qoliş va yanada yaxşilaş uçun harakat qilişdir.

Xançjoudagi oltin medal men uçun nafaqat katta yutuq, balki kelgusi musobaqalarga bölgan işonç va kuçli rağbat ham böldi.

YANGI SINOV, YANGI TAJRIBA

– 2026-yilda Yaponiyaning Aiçi – Nagoya şaharlarida ötkazilgan V Para Osiyo öyinlari ham men uçun muhim sport sinovlaridan biri böldi.

Bu gal ham uzunlikka sakraş böyiça T47 klassida bahs olib bordim. Musobaqada 6,99 metr natija qayd etib, kumuş medalga sazovor böldim.

Albatta, har bir sportçining maqsadi – oltin medal oliş. Men ham ğalaba uçun kuraşdim. Ammo bu musobaqada qölga kiritilgan kumuş medal ham katta mehnat va tayyorgarlik samarasi. Xançjoudagi oltin medalimdan keyin yana bir bor Para Osiyo öyinlari şohsupasiga kötariliş men uçun muhim natija böldi.

Sportda har bir musobaqa yangi tajriba beradi. Erişilgan natijalar bilan çeklanmasdan, kamçiliklar ustida işlaş va yanada yuqori marralarni közlaş kerak.

ZABT ETILADIGAN MARRALAR BOR

– Sport menga, avvalo, özimga işonişni, qiyinçiliklardan qörqmaslikni va maqsad sari intilişni örgatdi. Birinçi musobaqamga borişga ikkilanganman. Ammo öşa kuni ustozimning taklifini qabul qilganim bugungi sport yölimning boşlanişi bölganini anglayman. Boşlagan işimda meni qöllab-quvvatlagan ustozlarimga, yaqinlarimga va har doim işonç bildirib kelayotgan insonlarga minnatdorlik bildiraman.

Hali oldinda köplab musobaqalar, yangi maqsadlar va zabt etilişi kerak bölgan marralar bor. Eng asosiysi, maşğulotlarni töxtatmaslik, öz ustida işlaş va Özbekiston şarafini xalqaro maydonlarda munosib himoya qiliş.

Men uçun har bir medal – bu faqat natija emas, balki yillar davomidagi mehnat, sabr va işonç ifodasi.

20–21-sahifalar muallifi Şerzod ŞARIPOV, "Vatanparvar"



IMKONIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANILMOQDA

Keyingi yillarda Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar“ taşkilotining Surxondaryo viloyati kengaşi tasarrufidagi Qiziriq tumani öquv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi tomonidan yoşlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalaş, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etiş hamda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlaş borasida salmoqli işlar amalga oşirilmoqda.

Çunonçi, bugungi kun talabi asosida haydovçilar tayyorlaşga muhim e’tibor qaratayotgan markaz jamoasining bu boradagi işlari e’tiborga molikdir. Jumladan, malakali haydovçilar tayyorlaş sifatini oşiriş, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalaniş borasida yaxşi natijalarga erişilmoqda. Belgilangan “B”, “BC” toifali haydovçilar tayyorlaş hamda “C”, “E” toifalarga qayta tayyorlaş borasidagi işlar öz samarasini bermoqda.

– Bundan taşqari, taşkilotimizda yoş avlod qalbida ona Vatanga sadoqat tuyğularini şakllantiriş, ularni har tomonlama yetuk şaxs sifatida kamol topişiga kömaklaşiş yuzasidan ham muayyan işlar amalga oşirilmoqda, – deydi markaz direktori Ne’matilla Alimov. – Yoşlar örtasida harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-axloqiy tarbiyani yuqori saviyada taşkil etiş hamda uni amalga oşiriş borasida tarğibot tadbirlari muntazam olib borilmoqda. Xususan, “Vatanparvar” taşkiloti taşkil etilganining 35 yilligiga bağişlab, ötkazilayotgan tadbirlar şular jumlasidan. Ayniqsa, tuman mudofaa işlari bölimi va harbiy qismlar bilan hamkorlikda ötkazilayotgan tadbirlar ham ana şu muhim sanaga bağişlanmoqda. Şuningdek, yoşlarning jismoniy faolligini oşiriş maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan şuğullanişlari uçun qulay imkoniyatlar yaratilgan. Şu kunlarda markazda faoliyat yuritayotgan “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon” kabi seksiyalarga öttiz nafarga yaqin iqtidorli yoş jalb etilgan.

Qiziriq tumani ÖSTM NTM jamoasi barça xohlovçilarni “B”, “BC”, “CE” toifali haydovçilik kurslariga öqişga hamda sportning texnik va amaliy turlari – “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon” kabi seksiya va tögaraklarda şuğullanişga taklif etadi. Maşğulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilişi kafolatlangan.

Manzil: Qiziriq tumani “Yangi turmuş” mahalla fuqarolar yiğini, “Vatanparvar” taşkiloti öquv binosi.

Telefonlar: 94 915-10-35; 91 906-79-28.



MUAYYAN IŞLAR NATIJA BERMOQDA

Şu kunlarda yoşlar ma’naviyatini yuksaltiriş hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalaş borasida Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkilotining Jizzax viloyati kengaşi tasarrufidagi Paxtakor tumani öquv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi tomonidan ham muayyan işlar bajarib kelinmoqda.



Bu boradagi tadbirlar, ayniqsa “Vatanparvar” taşkiloti taşkil etilganining 35 yilligi munosabati bilan yanada samarali bölmoqda. Muhim sanaga bağişlab, hamkor taşkilotlar kömagida “Vatanparvar” – taşkiloti mening tanlovim!” şiori ostida bir qança ma’naviy-ma’rifiy va sport tadbirlari taşkil etildi.

– Albatta, tadbirlar doirasida ötkazilgan uçraşuv hamda suhbatlarda ona Vatanga sadoqat va muhabbat, hayotda öz örnini topiş kabi qator mavzularda söz yuritildi, – deydi markaz direktori Mustafoqul Abulqosimov. – Bunday muloqotlar yoşlarimiz hayotida muhim qadam bölib xizmat qilişi, şubhasiz.

Ayni paytda yoşlar örtasida soğlom turmuş tarzini tarğib qiliş hamda markazda faoliyat körsatayotgan sport tögaraklariga ularni jalb etiş borasida yaxşi natijalarga erişilyapti. Markaz qoşida faoliyat körsatayotgan “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon” kabi seksiya va tögaraklarda 30 nafardan ziyod iqtidorli yoş şuğullanib kelmoqda.

Şuningdek, taşkilotda “B”, “BC” toifali haydovçilar tayyorlaş va qayta tayyorlaş işlari ham muvaffaqiyat bilan bajarib kelinmoqda.



Paxtakor tumani ÖSTM NTM jamoasi barça yoşlarni haydovçilikning “B”, “BC” toifalariga öqişga hamda “C” toifaga qayta tayyorlaş kurslariga taklif etadi. Nazariy va amaliy maşğulotlar malakali va tajribali mutaxassislar tomonidan olib borilişi kafolatlangan.

Şuningdek, sportning texnik va amaliy turlari bilan şuğullaniş imkoniyati ham mavjud.

Manzil: Paxtakor şaharçasi, “Dilorom” MFY Navröz köçasi, 106-uy.

Telefonlar: 97 325-16-74; 97 794-82-29.

“VATANPARVAR” – SIZGA KÖMAKÇI!

“Vatanparvar” taşkilotining Xorazm viloyati kengaşi tasarrufidagi Xiva şahri 1-sonli öquv sport- texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlaş hamda sportnig texnik va amaliy turlarini rivojlantiriş borasida yaxşi natijalarga erişilmoqda.



Belgilangan reja asosida haydovçilar tayyorlayotgan xivalik vatanparvarçilar joriy yilning ötgan oylari mobaynida bu borada faollik körsatdi. Ayni paytda markazda yoşlar uçun “B”, “BC”, “E” toifali haydovçilik kurslari hamda qayta tayyorlaş öquv kurslari faoliyat yuritmoqda. Albatta, buning uçun taşkilotda barça şart-şaroitlar yaratilgan.

– Bundan taşqari, öquv sport-texnika markazimizda yoşlarning jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk bölişlariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda, – deydi markaz direktori Allayor Tojiyev. Şu bois markaz qoşida “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon” kabi seksiyalar faoliyati yölga qöyilgan. Bu tögaraklarga öttiz nafarga yaqin iqtidorli yoş jalb etilgan.



Bugungi yoşlar nafaqat jismonan, balki ma’naviy jihatdan ham yetuk bölişlari lozim. Şu bois taşkilot jamoasi taşabbusi bilan ma’naviyat va harbiy-vatanparvarlik tarğiboti doirasida turli tadbirlar ötkaziş ham an’anaga aylangan. Çunonçi, “Vatanparvar” taşkiloti taşkil etilganining 35 yilligiga bağişlangan tadbirlar şular jumlasidan.

Albatta, bunday xayrli işlar salmoğini oşiriş yuzasidan köplab tajribali va malakali mutaxassislar kömagidan unumli foydalanilmoqda. Öz navbatida, Xiva şahri 1-sonli ÖSTM NTMda bunday faol va jonkuyar xodimlar köpçilikni taşkil etadi.

“Vatanparvar” taşkiloti Xiva şahri 1-sonli ÖSTM NTM jamoasi Xiva şahri va tumanida istiqomat qiluvçi barça yoşlarni haydovçilikning “B”, “BC” toifalariga hamda “B” dan “C” ga va “E” ga qayta tayyorlaş va malaka oşiriş kurslariga taklif qiladi.

Bundan taşqari, “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon” kabi seksiyalarda ham qatnaşişingiz mumkin. Agar öqimoqçi yoki sportning texnik va amaliy turlari bilan şuğullanmoqçi bölsangiz, bunda sizga albatta, “Vatanparvar” taşkiloti kömakçi bölişini unitmang!

Manzil: Xiva şahri Najmiddin Kubro köçasi, 36-uy.

Telefonlar: 90 737-02-02; 99 347-75-70.



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KASBGA TAYYORLAŞ

Bugun “Vatanparvar” taşkilotining kasbiy ta’lim tizimida xalqaro standartlar va ilğor amaliyotlarni joriy etiş va xalqaro tan olinadigan malaka tizimini takomillaştiriş böyiça navbatdagi qadam qöyildi. Taşkilot markaziy kengaşi raisi Husan Botirov “Toşkent xalqaro sertifikatsiyalaş akademiyasi” MÇJ direktori Abduqahhor Yusupovni qabul qildi. Suhbat çoğida tomonlar “Vataparvar” taşkiloti öquv muassasalarida gaz-elektr payvandçi, santexnik, yuk ortuvçi transport boşqaruvçisi kabi mutaxassislarga beriladigan sertifikatlarning xalqaro tan olinişini ta’minlaş va şu orqali ularga jahon mehnat bozorida heç bir tösiqlarsiz faoliyat yuritişlari uçun şaroit yaratib beriş masalalari körib çiqildi. Şuningdek, joriy yilning oxiriga qadar “Vatanparvar” taşkilotining rahbar va xodimlarini ISO 9001 va ISO 45001 standartlari asosida malakasini oşirişga kelişildi.

Ma’lumot uçun: ISO 9001 standarti bu – taşkilot yoki korxonada iş jarayonini töğri, sifatli va tartibli taşkil etiş böyiça dunyoda tan olingan qoidalar töplami. ISO 45001 standarti esa taşkilot yoki korxonada mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini töğri taşkil etiş böyiça butun dunyoda tan olingan qoidalar töplami hisoblanadi.

Eslatib ötamiz, joriy yilning 16-iyul kuni “Vatanparvar” taşkiloti markaziy va “Toşkent xalqaro sertifikatsiyalaş akademiyasi” MÇJ örtasida hamkorlik memorandumi imzolangan bölib, uşbu kelişuvda bitiruvçilarga berilayotgan kasbiy sertifikatlarning xalqaro miqyosda e’tirof etilişi hamda tizimdagi öquv jarayonlari samaradorligini sifat jihatidan tubdan yuksaltiriş masalalari közda tutilgan.

XALQARO SPORT MUSOBAQASIDA UÇINÇI ÖRIN

Belarus Respublikasi Minsk viloyatida sportning karting turi böyicha yoşlar örtasida MDH DOSAAF kubogi xalqaro musobaqasi ötkazildi.

Unda Rossiya Federatsiyasi hamda Belarus, Tojikiston va Özbekiston respublikalari milliy terma jamoalarining 100 ga yaqin a’zosi “Mikro” *(6-8 yoş)*, “Mini” *(9-11 yoş)* va “Junior” *(12-15 yoş)* sinflarida bellaşdi.

Quvonarlisi, xalqaro musobaqada Aleksandra Krilova, Rustam Xamrayev va Kirill Konyuxovdan iborat Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkilotining sportçilari uçinçi örinni egallab, mamlakatimiz şarafini munosib himoya qildi. Birinçi örin Belarus, ikkinçi örin esa Rossiya jamoalariga nasib etdi.





ENG YAXŞI AVIAMODEL SPORTÇILARI ANIQLANDI

Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkilotining 35 yilligi munosabati bilan Namangan viloyatida kord aviamodellari böyiça Özbekiston kubogi musobaqasining final bosqiçi ötkazildi.

Namangan şahri mezbonlik qilgan musobaqada Toşkent şahri va viloyatlardan taşrif buyurgan 60 ga yaqin sportçi özlari tomonidan yasalgan kord aviamodellari bilan iştirok etdi.

Murosasiz va qizğin keçgan çempionat quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

“F-2-A” sinfida:

1-örin: Elbek Eşnazarov *(Toşkent v.)*;
2-örin: Şuhrat Eşbötayev *(Toşkent v.)*;
3-örin: Alyor Yölbarsov *(Namangan v.)*.

“F-2-B” sinfida:

1-örin: Vadim Vasilyev *(Toşkent ş.)*;
2-örin: Ravşan Ibodullayev *(Toşkent ş.)*;
3-örin: Sergey Nikolayeviç Momotov *(Toşkent v.)*.

“F-2-C” sinfida:

1-örin: Valeriy Stepanyans, Vadim Vasilyev *(Toşkent ş.)*;
2-örin: Sergey Nikolayeviç Momotov, Sergey Sergeyeviç Momotov *(Toşkent v.)*;
3-örin: Vladimir Borisov, Yevgeniy Ufimsev *(Samarqand v.)*.

“F-2-D” *(Havo jangi)* sinfida:

1-örin: Sergey Sergeyeviç Momotov, Sergey Nikolayeviç Momotov *(Toşkent v.)*;
2-örin: Vladimir Borisov, Yevgeniy Ufimsev *(Samarqand v.)*;
3-örin: Albert Islamov, Bronislav Kim *(Toşkent ş.)*.

“F-4-B” sinfida:

1-örin: Dilyaver Ibragimov *(Namangan v.)*;
2-örin: Akmaljon Abidov *(Andijon v.)*;
3-örin: Sergey Nikolayeviç Momotov *(Toşkent v.)*.

Jamoa hisobida:

1-örin: Toşkent viloyati;
2-örin: Toşkent şahri;
3-örin: Farğona viloyati jamoalari.

Musobaqa ğoliblariga “Vatanparvar” taşkilotining diplom, medal va esdalik sovğalari topşirildi.

Eslatib ötamiz, “Vatanparvar” taşkiloti bir qator xalqaro sport taşkilotlari, jumladan Xalqaro aeronavtika federatsiyasi *(FAI)*ning a’zosi hisoblanadi.

Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkiloti matbuot xizmati

KÖNGIL FASLI

Kuz ohanrabosi

Yoz nafasi pasayib, jazirama kunlar ortga çekindi. Tabiat osudalik bağriga çömdi. Aziz yurtdoş, bir daqiqa töxtang, atrofga nazar soling. Ölkamizda fasllar javohiri bölmiş kuz fasli hukmronlik qilmoqda. Toğ-u adirlar, dala-yu boğlar, xiyobonlardagi dov-daraxtlar rango-rang tusda tovlanib, öziga xos gözallik kaşf etmoqda.

Kuz faslini beixtiyor nuroniy bobo-momolarga qiyoslagingiz kelaveradi. Uning sehrli şiviriga quloq tutib, sokin bağriga singib borganingiz sari, umr ötkinçi ekanini anglaysiz.

Kuzni donişmand fasl deya tariflaşadi. Keçagina közlarni quvontirgan köm-kök yaproq xazonga aylanib, şamolda pirpirab vido qöşiğini aytmoqda. Poyingizga tökilayotgan zafaron barglar hayot ğanimat, uning har lahzasi omonat va qadrli ekanidan sözlaydi. Hassos tabiatning bu holati inson umriga örnakdir.

Bilaman, ilkingizdagi hayot yuki, turmuş taşvişlari, oila yumuşlari behisob. Donolarimiz hayotning har lahzasi kuraşdan iborat deganlaridek, yaşaş uçun intilasiz, kuraşasiz, tinmaysiz. Biroq yöl-yölakay bölsa-da, tabiat bağrida biroz tin oling, kuzning sehrli bağriga boş qöying. Negaki hassos tabiatning bu çiroyi – mö’jizasi ham aynan Siz uçun.

Kuz malikasi oyoqlaringiz ostini oltin soçqilari bilan bezaydi, ruhingizga ajib sokinlik, bağringizga halovat bağişlaydi. Boğlarni sayr qilganingiz sari ruhingizda ajib sokinlik sezasiz, vujudingizga halovat singib boradi. Hayot sinovlari, turmuş taşvişlarida toliqqan qalbingizdan dardingizni oladi, malham böladi. Şoirona aytganda:

Sen kuzning bağriga boş qöyganmisan?
“Çöli iroq” kelar uning köksidan.
Qoşida sir aytib öltirganmisan?
Sirlaşişga malaklar tuşar kökidan.

Çehrasi nuroniy momoga öxşab,
Miskin ölan aytib ötar qoşingdan
Poyingga zarhaldan poyondoz töşab,
Oltin soçqilarin soçar boşingdan...



Kuzni saxovat fasli deya ta’riflaşadi, e’zozlaşadi.

Bobodehqonning erta bahordan qilgan zahmatli mehnati aynan şu faslda çöng xirmon bölib qad rostlaydi. Buğdo-yu paxta, şoli-yu jöxori, sabzi-yu kartoşka, behi-yu olma-anor... Qöyinki, inson uçun zarur tabiat ne’matlarining barçasi omborlardan joy oladi. Darhaqiqat, kuz – tökinlik fasli, kuz – halovat fasli. Şoir kuylaganidek:

Jannatmakon yurtning oltin kuzi bu,
Boğlar ne’matidan qamaşar közlar.
Dehqon mehnatining röyob kezi bu,
Zalvorli xirmonlar qaddin köz-közlar


Bozorlar tökin-u hosillar sara,
Dimoğingiz yorar qovunlar hidi.
“Kep qoling, op qoling, qolmang armonda,
Ming dardga davodir bular har biri”.

Dasturxonlar tökin, töylar qöşaloq,
Keksalar duoda – şukrona sözi.
Qut-baraka yoğar zaminga bu çoğ,
Özbekning kuzi bu, özbekning kuzi!


Aziz zamondoş, tinçlig-u omonlikda, erkin-u salomatlikda işga otlanyapsiz. Kuz tongida turli yumuşlar bilan şoşilayotgan odamlar oqimiga qöşilasiz, beixtiyor şukrona keltirasiz. Çunki sizning qadoq qöllaringiz, aql-u şuuringiz, yuksak iqtidoringiz, fidoyiligingiz sabab hayot sayqallanadi, insonlar bahra oladi. Siz muallima, siz şifokor, siz Vatan posboni... Bir söz bilan aytganda, siz zahmatkaş işçi-xizmatçi. Sizning jamiyatga qöşajak zarra hissangiz ham ulkan özgarişlarga qodir. Şunday ekan, özingizni asrang, bir nafas hayot taşvişlarini unuting. Donişmand kuz hukmronlik qilayotgan tabiat bağrida hordiq çiqarişni unutmang. Nazmiy satrlarda bitilganidek:

Hayot omonatdir, hayot ğanimat,
Inson baxti ila gözal har oni.
Ötkinçi har lahza kutmagay fursat,
Ezgu amallarning böling sultoni.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar“



BILIMINGIZNI SINANG!



"VATANPARVAR" SAVOLI

Bobur Mirzo öz memuari "Boburnoma"da köplab zamondoşlari haqida ma'lumotlar berar ekan, ularning laqab va qiziqişlari, nimagadir moyilligi haqida ham qiziqarli ma'lumotlarni keltirib ötadi.

Şoh va şoir Mir Murtoz haqida aytar ekan, uning hikmat ilmi, aqliy ilmlarni yuksak bilişini ta'kidlaydi. Hatto u bir yumuşga nihoyatda mukkasidan ketganini aytar ekan, u işni biladigan ikki odamni uçratib qolsa, biri bilan şuğullanib, ikkinçisi ketib qolmasin, deb etagidan tutib ötirar ekan.

Savol: Bobur Mirzo ta'riflayotgan kişi qaysi işga mukkasidan ketgan deb öylaysiz?

***

Ötgan sondagi savolning javobi qatiq edi. Tabibning aytişiça, qatiqda öşa iqlimning barça xususiyatlari jam bölar ekan.

MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Alisher Ergashev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi: kapitan Bobur Elmurodov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6233
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 700 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot

BIZ HAQIMIZDA

https://gov.uz/oz/mudofaa
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya